


SALOHİYAT - MEZONI



14

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTETI

MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT
ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI KAFEDRASI

ILMIY MAQOLALAR

TO'PLAMI

«SALOHİYAT MEZONI»

14-SON



NAMANGAN-2018

Mazkur maqolalar to‘plami Namangan Davlat universiteti Milliy g’oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi kafedrasining 2018 yil 7 apreldagi yig’ilishida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan.

Mas’ul muharrir: f. f. n. , dotsent O. Mamatov

Taqrizchilar: t.f.n., dotsent T. Qozoqov, t.f.n., dotsent Z. Haydarov

Ilmiy to‘plam Namangan Davlat universiteti Ilmiy-texnikaviy kengashining 2018 yil 10 aprel kungi 4-sonli yig’ilishida ko‘rib chiqilgan va nashrga tavsiya qilingan.



NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI, 2018 YIL

O'zbekiston haykaltaroshligida milliy ijodiy yondoshuvlar tavsifi

Dilmurod Po'latov,
NamDU dotsenti

Mahobatli haykaltaroshlikda ilg'or g'oyalarni ifodalash, milliy qahramon va davlat arboblari obrazini na'munaviy qiyofada tasvirlash bosh maqsad ekanligi bois, mazkur soha jamiyat taraqqiyoti bilan muvoziy rivojlanadi, davr ruhini aks ettiradi. Shu ma'noda o'tgan asr davomida shakllanib, hozirda milliy san'atimiz xazinasidan munosib joy olayotgan O'zbekiston haykaltaroshligini ham ikki davr kesimida kuzatish va tahlil qilish mumkin. Birinchi: 1990-yillargacha bo'lgan davr – O'zbekistonga haykaltaroshlikning kirib kelishi va ijodiy shakllanishi; ikkinchi: Mustaqillik davri – haykaltaroshlikning milliy ijodiy maktabini mustahkamlash.

Birinchi davr. Mamlakatimizda haykaltaroshlik o'tgan asrda sobiq tuzum davrining mafkuraviy qobig'i ostida shakllandı. Yaratilgan asarlarda kasbiy mahorat va ijodiy tajriba nechog'lik ijodiy o'zlashtirilgan bo'lmasin, milliy makonimizga begona va dahlsiz "qahramonlar" qiyofasidan iborat bo'lgan. Shu bois, XX asrning 1990 yillariga qadar yurtimizda ko'plab haykallarlar o'rnatilgan bo'lishiga qaramay, milliy mакtab rivojiga ta'siri sezilmagan edi. O'sha kezlari o'rnatilgan yodgorlik monumentlar orasida milliy mavzudagi obrazlar mavjud bo'lsahamki, ularning plastik yechimida tipik xususiyatlarni ifodalash, yoki chuqur talqin etish sust bo'lgan.

Agar O'zbekistonda haykaltaroshlikning shakllanishiga¹ e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu jarayon XIX asr oxiri XX asr boshlariga to'g'ri keladi. Chunonchi, XX-asr boshlarida O'zbekistonga ko'plab rus rassomlari kelishgan, ular tasviriy san'atni o'lkada rivojlantirish va badiiy ta'limini yuritish borasida faoliyat yuritgan. Dastlabki badiiy ta'lim rassomlar ustaxonalaridagi studiyalarda olib borilgan bo'lsa, 1920 yillarda Samarqandda rassomlik mакtabi ochilgan, keyinroq Toshkentda ham tashkil etilgan. Shu ta'lim maskanlarida o'zbek rassom va haykaltaroshlari tasviriy san'at sirlarini o'rgandilar.

¹ Izoh. O'zbekiston haykaltaroshligi eramizdan avvalgi ikkinchi ming yillik uzoq tarixiy shakllanish va rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Bu maqolada faqtgina XX asrda Yevropa uslubidagi haykaltaroshlikning kirib kelganidan keyingi qayta shaklanish davri nazarda tutilmoqda.

San'atshunos olim R.Toqtoshning fikriga ko'ra, bu sohani mamlakatimizda rivojlanishi tasviri san'atning rangtasvir va grafika sohasiga nisbatan ancha qiyin bo'lgan. "1920 yillarda mahobatli va dastgohli haykaltaroshlikning rivojlanishi juda sekin kechgan, maqtovga arziydigani birona asar bo'lmasigan. Rassomchilik badiiy ta'lim maskanida yuqori malakali yosh haykaltaroshlarni tayyorlash masalasi yetarli darajada bo'lmasiganligi uchun uzoq vaqtgacha tajribali haykaltaroshlar yetishib chiqmagan"². Shunday bo'lsada, Respublika haykaltaroshligining 1930-yillar ikkinchi yarmidagi rivojlanish ko'rsatkichi oldingi yillar ijodiga nisbatan o'sganligi ta'kidlanadi³.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'ttizinchi yillarda naturalizm uslubidagi haykaltaroshlik asarlari yaratilgan. Haykaltaroshlar G.Massonts, O.Korjinskaya, Rusakova, N.Krasovskiylar tomonidan istirohat bog'i va korhonalar uchun yaratilgan bunday asarlar puxta ashyolardan ishlanmaganligi va joylarni o'zlashtirilishi bois bizgacha saqlanib qolmagan⁴. 1930-yilning o'rtalarida O'zbekistonga kelgan V.Simonov, B.Ingal, D.Shvarts, A.Lavinskiy kabi malakali haykaltaroshlarning ijodi sohada sezilarli o'zgarishlar yasadi⁵. Biroq ijodiy siljishga bo'lgan bu intilishlar ikkinchi jahon urushining boshlanishi tufayli ma'lum vaqtgacha cheklanib qoldi.

Aytish mumkinki, XIX-asrning oxiri XX-asrning 30-yillarigacha bo'lgan davr O'zbekistonga haykaltaroshlikni kirib kelishi bilan izohlanadi. Shunga ko'ra bu davr ijodiy jarayonida badiiy saviyadorlikning sustligi bilan birga, haykaltaroshlikka tegishli uslubiy yondoshuvlar shakllanib ulgurmagan. Ba'zi ko'rgazmalarda⁶ namoyish etilgan maishiy janrdagi haykallarda shu xususiyatlarni ko'rish mumkin. Haykaltaroshlikni kirib kelganiga ancha vaqt bo'lganiga qaramay, 1940-yillar oxirida ham mahalliy makonda o'zlashtirilishi sust bo'lgan. O'sha davrlarga tegishli adabiyotlar kuzatilsa, 1950-yillar o'rtalarida ham faqat Rossiyadan kelgan

² Kol. avt. Iskusstvo sovetskogo Uzbekistana 1917-1972. "Sovetskiy xudojnik". M.: 1976., 69 s.

³ Qarang: O'sha kitob. B. 68-69.

⁴ Qarang. R.X.Taktash. Izobrazitelnoe iskusstvo Uzbekistana (vtoraya polovina XIXv.-shestidesyatye godu XX v. Fan T.:1972 146 s.

⁵ Qarang.O'sha kitob. B.182.

⁶ 1932-yilda Moskvada O'zbekiston rassomlari ijodiga atab o'tkazilgan ko'rgazma va 1933-yilda Toshkentda o'tkazilgan ko'rgazmalar.

haykaltaroshlar ijodiga asoslanib fikr yuritiladi, mahalliy ijodkorlar bo'yicha ma'lumotlar uchramaydi. Bu shundan dalolat beradiki, 1930-1940 yillar haykaltaroshligining tasviriy san'at doirasida milliy mavqeyi past bo'lgan. Shu bois, 1940-yillar oxirigacha ko'p sonli haykaltaroshlar ijod qilgan bo'lishiga qaramay, uni tasviriy san'at miqyosida milliy rivojlanish darajasi faol ko'rsatgichda bo'limgan. Zero, "XX asrning bиринчи yarmidan boshlab O'zbekistonda bir necha haykaltaroshlar ijod qilgan bo'lsa-da, jiddiy haykaltaroshlik maktabi hali shakllanmagan edi"⁷.

Ikkinchi davr: 1991-yildan O'zbekiston davlat mustaqilligini qo'lga kiritib, barcha sohalarni erkin tasarruf eta boshlaganidan keyingina, bunday haykallarni ommaviy-markaziy maydonlarda sohta viqor bilan qad ko'tarib turishiga barham berildi. Shuningdek, ushu soha istiqboli uchun yangi ijodiy muhit yaratildi. Jumladan, o'tmishda jahon ilmu-fani va ma'rifatiga katta xissa qo'shgan buyuk allomalarimiz, harbiy tajriba sohibi bo'lgan ja'sur sarkardalarimiz va shu kabi boshqa bobokalonlarimiz siyemosini xolis tasvirlashga yo'l ochilishi ijodkorlarni yuksak g'urur bilan ishlashiga imkon berdi.

1991-yillardan izchil davom etayotgan ma'naviy-madaniy islohatlar badiiy hayotda milliy qadriyatlarimiz bilan bog'liq bo'lgan jiddiy ehtiyojlarni yuzaga keltirdi. Xususan, o'zbek haykaltaroshligida mahobatli asarlarning g'oyaviy mazmuni va badiiy ifodasida yangi ma'naviy muhit qiyofasini gavdalantirish, oldingi davrda ishlangan tarixiy shaxslar ko'rinishdan farqli ravishda, barkamol shaxs qiyofasi, odil hukumdar va mutafakkir siyemosini yanada "jonli"roq tasvirlash davr talabiga aylandi. Davlatchiligidan o'tmish tarixi va zamonaviy qiyofasini mujassamlashtiruvchi mazkur ijodiy masalalar haykaltaroshlar oldiga mas'uliyatli vazifalar qo'ydi. Shundan kelib chiqib, 1991-yillardan barpo etilgan ajdodlarimiz haykallari o'tmishimizning boy madaniyatini ifoda etib, milliy iftixon tuyg'ularini uyg'ota oladigan yodgorlik asarlar sifatida gavdalananadi. Shu boisdan yangi davr O'zbekiston haykaltaroshligida tarixiy shaxslar obrazini yaratish asosiy mavzusiga aylandi.

Ijodiy jarayondagi yangi ijodiy burilish davri sohani mahalliy kesimda rivojlanishiga imkon berdi. Chunonchi, avvalgi yondoshuv

⁷ R.X.Taktash. Xudojestvenno-kiriticheskie etyudi (puti i problemi stanovleniya uzbekskogo sovetskogo izobrazitel'nogo iskusstva, T., Fan., 1992., 107-108, b.

aqidalari barham topib, halqchil andozaga asoslangan yangi bosqich tajalliy eta boshladi. Hozirda yangi mokonga mos haykallarni poytaxtimizdan tashqarida ham ko'payib borayotganligi sohaning milliy qiyofasi keng qamrovda zuhur etayotganligini anglatadi. Endilikda monumental haykaltaroshlik asarlar shahar markazlari, shoh ko'chalar, bog'-hiyobonlari va shu kabi diqqatga sazovor joylarga tantanavor ruhda o'rnatilmoqda. Ajdodlarimiz shaxsidan so'zlovchi haykallarni ko'z o'ngimizda yaqqol gavdalaniishi otabobolarimiz haqidagi tasavvurimizni kengaytirib, ularning siyoshi shunchaki faraz emas, balki real qiyofa tarzida xotiramizga o'mashib bormoqda. Ayniqsa, me'moriy gumbazlar hamohangligida bunyod etilgan muhtasham asarlar o'tmish va zamonning badiiy uyg'unligini ta'minlash barobarida milliy haykaltaroshlik hissini oshirmoqda.

1997-yili O'zbekiston Badiiy akademiyasi tashkil etilgandan so'ng haykaltaroshlikda umumjahon san'atining faol yo'nalishlari bilan uyg'un rivojlanish jarayoni tezlashdi. Haykaltaroshlar orasida obraz olamini yangi plastik shakl va ashyolar yordamida ochishga intilayotganlari ko'rina boshladi. Ular ko'proq, an'anaviy haykaltaroshlik xususiyatlaridan batamom ayri bo'lgan – zamonaviy muhit, yangi texnik taraqqiyot va tafakkurga mos asarlar yaratishga oshiqmoqdalar. Mazkur holat bir tomonidan realistik yo'nalish doirasining torayishiga ta'sir qilsa, ikkinchi tomonidan zamonaviy rivojlanishga muvofiq keladi.

Ma'lumki, yodgorlik haykallar el ardog'idagi buyuk siymolar, qaysidir tarixiy davrga mos voqealik in'ikosi sifatida jamiyatning ilg'or g'oyalarini ifodalashga xizmat qiladi. 1990-yillar mahobatli haykaltaroshligi ham shu maqsaddan kelib chiqib, yangi madaniy hayotning mafkuraviy tushunchalarini ifodelaydi. Ijoddagi yangi talablar, ushubiy yondoshuvlar va ayniqsa zamonaviy mezonga muvofiq faoliyat yuritishning haykaltaroshlar tomonidan jiddiy his etilishi yangi iste'dod egalarini yuzaga chiqardi. Xususan, Ilhom Jabborov, Kamol Jabborov, Jaloliddin Mirtojiev, Anvar Raxmatullaev kabilarni shu o'rinda ta'kidlash mumkin. Bu borada kasbiy mahorat bo'yicha puxta asarlar bajarish ko'proq Ilhom Jabborov bilan Jalolidin Mirtojiev ijodiga xosdir. Ular Amir Temur obrazini gavdalantirish, shuningdek Alisher Navoiy, Shoh Mashrab, Mirzo Ulug'bek, Mirzo Bobur kabi mutafakkirlar haykalini xolisona talqin etish sharafiga muyassar bo'lishdi.

Xususan, ular orasida Jaloliddin Mirtojiev qisqa davr ichida yaxshi natijalarga erishdi. Ijod davomida shakl va g'oya mutanosibligi, badiiy ifoda ravonligi kabi nozik fazilatlarni shakllantirdi. Uning asarlarida shakllar birqadar erkin, plastik xarakatga boy va umumiy qiyofaning kompozitsion yechimi diqqatga sazavor bo'lishi bilan birga, obrazlar o'tmish hayotdagi muhim lavhalar bilan vobasta ishlanishi e'tiborga molik. So'nggi paytlarda Rossiya, Yaponiya, Xitoy davlatlari uchun buyurtmalar bajardi. Shuningdek, mamlakatimizda uzoq va yaqin o'tmishimiz hamda zamonaviy mavzularda e'tiborga loyiq haykallar bajardi. Alalxusus mustabit tuzim davrida vatan istiqboli, milliy madaniyati uchun qayg'urgan va bu yo'lida shahid etilgan adiblarimiz – Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho'lpon, Elbek, Abdurauf Fitrat singari qatag'on qurbanlari xotirasiga atalgan yodgorliklari ichki hissiyotga to'laligi bilan yaqqol ajralib turadi.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, ayni paytdagi ijodiy yangilanish davri mahobatli haykaltaroshlikda milliy yo'naliishni rivojlantirish, dastgohli sohada esa umumjahon badiiy jarayoni tajribalarini mahalliy kesimda o'zlashtirishga moyillik yaratdi. Davrimizda yaratilgan barcha asarlarni umumiy baholaydigan bo'lsak, obrazni ruhiy olamiga chuqurroq kirib borish, shakli-shamoyillarning noan'anaviy tomonlari bo'yicha jiddiy izlanishlar lozimligi ijodkorlar oldida yangi vazifalar qo'ymoqda.

O'zbekistonda XX asrdan shakllana boshlagan tasviriylar san'atning nomahalliy haykaltaroshlik turi bir asrlik tarixiy jarayon asnosida rivojlanib, hozirda katta ijodiy salmoqqa erishdi. San'atshunos olimlar R.X.Toqtosh, A.Umarov, E.Xo'jaeva, A.Hakimov va G.Bobojonovalar tomonidan nazariy masalalari o'rganildi. Endilikda esa Mustaqillik davridan boshlab milliy mafkuramiz ta'sirida tobora xalqchil tus bilan rivojlanib borayotgan yangi ijodiy bosqichini yanada chuqurroq va atroflicha tadqiq etish dolzarbligini ko'rsatmoqda.

Shayboniylar davlat boshqaruving o'ziga xosligi

Gulmira Otaboyeva,

Namangan tumani 2-umumiy

o'rta ta'lif maktabi tarix fani o'qituvchisi

Har bir davlatning eng muhim belgilardan biri bu – davlatning boshqaruvin hisoblanadi. Davlatlar boshqaruvin tizimi orqali islohotlar o'tkazishi, ma'lum bir cheklovlni joriy etishi yoki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga daxldor bo'lgan masalalarni hal etishi mumkin. Davlat boshqaruvi ko'plab davlatlarda monarxiya (yakka hokimlik) ko'rinishga ega bo'lib, unga ko'ra, davlatni xon, amir, sultonlar boshqargan. Xon, amir, sultonlar boshqaruvda oliy hokimiyatga ega bo'lgan. Davlat boshqaruvida qonunlar qabul qilish yoki bekor qilish, soliq majburiyatlarini tartibga solish va soliqlar miqdorini oshirish kabi ishlar uning ularning farmoniga asosan olib borilgan.

Shayboniylar (1500 – 1601) davlati boshqaruvin tizimi ham o'ziga xosligi bilan ajralib turgan. Davlat boshqaruvi shariat qonun-qoidalari asosida boshqarilgan bo'lib, davlatda xon oliy hokimiyatga ega bo'lgan. Xonlik siyosiy tizimida o'zbek davlatchiligining somoniylardan temuriylargacha bo'lgan davrida qaror topgan davlat boshqaruvi qonun-qoidalari hamda ko'chmanchilikka xos an'analar ham mavjud bo'lgan. Xon davlat boshqaruvida cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lib, o'z atrofida viloyat, tuman hokimlari hamda nufuzli qabila boshliqlarini birlashtirgan⁸. Shayboniylar davlat boshqaruvida hukmdorlarni tayinlashning o'zgacha ko'rinishi mavjud bo'lgan. Unga ko'ra, boshqaruv otadan o'g'ilga emas, balki sulolaning eng yoshi ulug' kishisiga o'tgan. Bunday ko'rinishlar keyingi davrlarda Abdullaxon II (1583 – 1598) davriga kelib hokimiyatni valiahdga topshirish shakllari rivojlangan. Lekin, bu holat keyinchalik Ashtarkoniylar davriga kelganda oldingi holatga qaytarilgan⁹.

Shayboniylar davlat boshqaruvi markaziy va mahalliy boshqaruvdan tashkil topgan. Shayboniylar davrida eng oliy davlat idorasini dargoh hisoblanib uning tepasida xon turgan. U davlat ichki va

⁸ Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlod, 2012. – B. 309.

⁹ Shamsutdinov Sh., Karimov Sh., Ubaydullyav O'. Vatan tarixi. – T.: Sharq, 2010. – B.36.

tashqi ishlarida barcha masalalarni hal qilgan. Odatda ushbu mansab bosh vazir tomonidan boshqarilgan. Dargohda davlatning siyosiy, moliyaviy, harbiy va boshqa masalalari ko'rib chiqilib, qarorlar qabul qilingan va xon tasdig'i bilan hayotga tadbiq etilgan¹⁰.

Naqib – davlat ahamiyatiga ega mansablardan hisoblangan. Naqib xonning eng yaqin va ishonchli kishilaridan edi. Rasmiy qabul marosimlarida naqib oliv hukmdorning chap tomonida birinchi bo'lib joy olishi, uning dargohda yuksak maqomidan dalolat bergen. Xonning farmon, yorliqlarida naqib nomi birinchi bo'lib zikr etilgan. Shuningdek, naqib davlatning ichki va tashqi siyosati hamda harbiy masalalarda oliv hukmdorning birinchi maslahatchisi sifatida qaralgan. Naqib lavozimiga asosan payg'ambar avlodidan tayinlangan¹¹.

Shayboniylar davlat boshqaruvida eng muhim mansablardan yana biri otaliq lavozimi edi. Bu mansabga tayinlangan shaxs, avvalo, voyaga yetmagan shahzodaning tarbiyasi uchun mas'ul bo'lgan. Otaliqlar shahzodalarga mulk qilib berilgan viloyatlardagi xon hokimiyati siyosatini belgilash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Ko'kaldosh lavozimi esa davlatning ichki xavfsizligiga tom ma'noda javobgar hisoblangan. Ko'kaldosh davlat bilan do'stona va dushmanlik munosabatda bo'lganlar haqida ma'lumotlar to'plagan. Shuning uchun ham ko'kaldosh dargohning eng ishonchli kishilaridan hisoblanib, bu amaldagi kishilarning vazifasi mamlakatda oliv hukmdor olib borayotgan siyosat daxlsizligi, unga fuqarolarning munosabatlarini o'rghanishdan iborat bo'lgan. Ko'kaldosh yuqori mavqege ega bo'lib, badavlat kishilar bo'lgan. Toshkent va Buxoroda ko'kaldoshlar o'z mablag'lari hisobidan madrasa qurdirgani ham ma'lum.

Shayboniylar davlatida xon yasovuli lavozimi egasi sulolalar ichki munosabatlariga oid bo'lgan tadbirlarni boshqarib turgan. Shuningdek, hukmdor bilan shahzodalar o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatilgan tartib asosida yo'lga qo'yish, xonning shahzodalarni qabul

¹⁰ Eshov B. O'zbekistonda davlat va maxalliy boshqaruv tarixi. – T.: Yangi asr avlodi, 2012. – B.310.

¹¹ Azamat Ziyo. O'zbek davlatchilik tarixi. – T.: Sharq, 2000. – B.244.

qidch, ularning arizalari, iltimoslarini xonga yetkazish kabi
tulbularni bajargan¹².

Davlat hukmdorlari hayotida ov muhim ahamiyatga ega bo’lgan. Xonlikda ov bilan bog’liq masalalarini tashkillashtirishda qo’shbegi yoki amiri shikor mansab egasi mas’ul hisoblangan. Ov qilishi rejalashtirgan hududdagi aholini ot-ulovi, quroq-aslahasi bilan kelib xonga ov qilish jarayonida yordam berishi, ular qo’nim topganda esa ularga qo’noq (chodir) hamda oziq-ovqat bilan ta’minlash ishlari ham qo’shbegi zimmasida bo’lgan.

Shuningdek, davlatda eshikog’aboshi (davlat xavfsizligini ta’minlash ichki tartib qoidalar, keldi-ketdiga javobgar shaxs), miroxur (hukmdorning ot-ulovlariga ma’sul), shig’ovul (chet el elchilarini qabul qiluvchi), chuhraboshi (maxsus harbiy qism boshlig’i) va boshqa ko’plab mansablar ham mavjud bo’lgan¹³.

Shayboniyalar davlat boshqaruvida shariat qonun-qoidalariiga asoslangan holda davlatni boshqargan. Bunday holatda dargohda shayx ul-islomning o’rni ham katta bo’lgan. Yirik din peshvolarining bu davrda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta’siri kuchli bo’lgan.

Shayboniyalar davlatida mahalliy hokimiyatning ham ahamiyati yuqori darajada bo’lgan. Mahalliy boshqaruv viloyat hokimlari tomonidan boshqarilgan. Viloyat hokimliklarining boshqaruv tizimi o’ziga xos bo’lib, ular harbiy qo’shinga boshchilik qilishi, aholidan soliqlarni o’z vaqtida yig’ib olishi, shariat qonunlarini bajarilishni nazorat qilishi kerak bo’lgan. Viloyatlar o’z navbatida kichik ma’muriy birliklarga – tuman, qasaba, mavzeylarga bo’lingan¹⁴.

Shayboniyalar davlat boshqaruviiga Amir Temur va temuriyalar davri davlat boshqaruvi an’analari katta ta’sir ko’rsatgan. Shuningdek, Shayboniyalar davlati boshqaruv tizimida o’zig xosliklar ham mavud bo’lgan.

¹² Eshov B. O’zbekistonda davlat va maxalliy boshqaruv tarixi.... – B.311.

¹³ Eshov B. O’zbekistonda davlat va maxalliy boshqaruv tarixi... – B.312.

¹⁴ Abdurahimova N. A., Isakova M. S., Suleymonova Z. M. Davlat muassasalarini tarixi. –T.: Sharq, 2007. –B.32.

O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari faoliyati

Navbahor Dorxonova,

NamDU Ijtimeiy-madaniy faoliyat yo'naliishi I-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi M.Tojahmedova.

Ommaviy axborot vositalari har doim jamiyat taraqqiyotining ko'zgusi, kishilarning ongi, dunyoqarashi, siyosiy savyasining shakllanishida asosiy vositalardan biri bo'lib kelgan. O'tgan davrda barcha sohalar qatori ommaviy axborot vositalari uchun ham serqirra rivojlanish davri bo'ldi. Mustaqillik ilk kunlaridan ommaviy axborot vositalari jamiyat hayotiga oid yangiliklarni aholi e'tiboriga nomoyon eta boshladi.

Shu barobarda O'zbekiston Respublikasi mustaqillikning daslabki yillarda olib borilgan islohotlar asosan xalqning har tomonlama ilm salohiyatini oshirish, ularda huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotga yangilanishlarni o'z vaqtida aniqlik va holislik asosida yetkazish maqsadida OAV tizimiga alohida e'tibor qaratildi.

Shuningdek, "Axborot asri" deb ta'rif berilgan XXI asrda insoniyat hayotida axborot va unga munosabat tushunchasi tubdan o'zgardi. Dunyo mamlakatlarining rivojlanganlik darajasi, mavqeyi, salohiyati u yerda nechog'li axborotlashgan jamiyat barpo etilganligi bilan belgilanadi¹⁵.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari – gazeta, jurnal, radio, televidenie, axborot agentliklari, internet jurnalistikasi jamiyat yangilanayotgan, hayot yangicha mazmun kasb etayotgan hozirgi paytda erkin so'z, hur fikr va ozod inson taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarga, insonlar faoliyatining barcha tomonlariga ta'sir ko'rsatuvchi g'oyaviy vosita bo'lib xizmat qilmoqda, hozirjavob minbarga aylanmoqda.

Hozigi kunda respublikamizda 1218 ta ommaviy axborot vositalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan 700 nomdagisi gazeta, 250 nomdagisi jurnal, 17 nomdagisi byulleten-axborotnomadir. Teleradiotarmoqlari 100 dan ortiq, veb-saytlar esa 150 tani tashkil etadi. 4 ta axborot agentligi ishlab turibdi¹⁶.

¹⁵ Hurshid Do'smuhammad. Jurnalistning kasb odobi muammolari: Nazariy metodologik tahlil. –T.: 2007. -B.3.

¹⁶ Fikr.uz

Jamiyatimizni yanda rivojlantirish va sifat jihatdan yangilashning ustuvor yo'nalishlaridan biri so'z erkinligini va matbuot erkinligini, shuningdek oshkoralki, jamiyatda o'tkazilayotgan islohotlarning ochiqligi taminlaydigan demokratik pirinsiplarni so'zda yoki qog'ozda emas, balki amalda joriy qilishdir. Axborot sohasini jadal rivojlantirish, ommaviy axborot vositalari matbuot, radio-televideniya faoliyatini erkinlashtirish fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etish jarayonining uzviy tarkibiy qismiga aylanishi lozim.

Yaratilgan keng sharoitlar tufayli mustaqillik yillarda ommaviy axborot vositalari 2013-yil holatiga ko'ra umumiy soni 1366 tani tashkil etgan. E'tiborlisi shundan iboratki, 1991-yillarda davlatga qarashli bitta televidenie va radiodan boshqa bunday ommaviy axborot vositasining o'zi mavjud emas edi. Bugun respublikada nodavlat ommaviy axborot vositalari tez rivojlanmoqda. Telekanal, radiokanallardan tashqari veb-saytlar ham ommaviy axborot vositalari sifatida ro'yxatdan o'tkazilmoqda. Bir so'z bilan aiytganda sohada eng tez rivojlanayotgan tarmoqlar ham aynan elektron ommaviy axborot vositalari hisobiga to'g'ri keladi. Hozirda mavjud nodavlat ommaviy axborot vositalari jami ommaviy axborot vositalarining 60 foizini tashkil etadi.

Ommaviy axborot vositalari O'zbekistonda yashayotgan millatlarning 7 ta tilida va siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy, sport kabi 20 dan ortiq ixtisosliklarda faoliyat olib boradi¹⁷, bu esa mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari tizimining shakillanishi va rivojlanishiga berilayotgan e'tiborning bir namunasi hisoblanadi.

Amir Temur markaziy davlat boshqaruva tizimi va uning o'ziga xosligi

Navbahor Dorxonova,

NamDU Ijtimoiy-madaniy faoliyat yo'nalishi I-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi M.Tojahmedova.

Tarixdan ma'lumki, ko'plab hukmdorlar o'z davlatlarini boshqarishda qonun – qoidalarga yoki avloddan-avlodga o'tib kelayotgan urf-odat normalariga asoslangan holda davlatni boshqarganlar. O'zbek davlatchiligi tarixida ham bunday ko'rinishlar

¹⁷ <http://uz.infocom.uz>

o'rta asrlar davriga kelib yaqqol isbotini topgan. XIV asr 70-yillarda Markaziy Osiyoda Amir Temur boshqaruvda qonun-qoidalarga asoslangan yagona davlatni barpo etdi. Manbalardan ma'lumki, u o'z mamlakatida barcha ishlarini qonunlar asosida qurishga intilgan. "Temur tuzuklari"da mamlakatni boshqarishga qaratilgan qonun-qoidalarni yaratishga bo'lgan intilishi, maqsadi o'z ifodasini topgan va jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayoti qudratli davlatning siyosiy va axloqiy prinsiplarini ifodalagan¹⁸. Unga ko'ra, Amir Temur: "saltanat ishlarini qonun va qoidalarga, to'ra va tuzukka solib, saltanatim martaba-yu e'tiborini saqladim, saltanatim martabasi bo'l mish to'ra-tuzuklar va qonun-qoidalarni ham o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim. Bu o'n ikki toifani saltanatim falakining o'n ikki burji va davlatim korxonasing o'n ikki oyi deb hisobladim", - deb aytgan edi¹⁹. Davlatni boshqarishda har qanday ishlarni mashvarat asosida ko'rib chiqqandan keyingina amalga oshirgan. Buni, "Tuzuklar"dagi bayonlardan yaqqol ko'rish mumkin. Saltanat ishlarining to'qqiz ulushi kengash, tadbir va mashvarat, qolgan bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilishini anglaganligini aytadi²⁰. Bundan ko'rish mumkinki, davlat boshqaruvida faqatgina hukmdorning o'ziga emas, uning yonida turuvchi a'yonlar, amirlar, devonbegi va boshqa amaldorlarning ham ahamiyati katta bo'lgan. Amir Temur davlatni idora etishda vazirlar, amirlar, viloyat voliylari va noiblarga alohida ahamiyat bergen. Davlat boshqaruvi asosan ikki idoraga dargoh va devonlarga (vazirliklar) bo'lingan. Dargoh davlatning oliv idorasi hisoblanib, unga hukmdorning o'zi boshchilik qilgan. Devon esa vazirliklardan iborat bo'lgan. Xususan, vazirlar lavozimiga tayinlash uchun "Temur tuzuklari"da: "...amr qildimki, vazirlar ushbu to'rt sifatga ega kishilar bo'lishlari lozim: birinchidan - asillik va toza nasillik, ikkinchisi - aql, farosatlilik, uchinchisi - sipohi raiyat ahvoididan xabardorlik, ularga nisbatan xushmuomalalik, to'rtinchisi - sabr-chidamlilik va tinchliksevarlik. Kimki shu to'rt sifatga ega bo'lsa, unday odamni vazirlik martabasiga loyiq kishi deb bilsinlar va bunday vazirga to'rt imtiyoz – ishonch, e'tibor, ixtiyor va qudrat berilsin deb keltirilgan.

¹⁸ Mo'minov I.M. Amir Temur O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli. Fan, ikkinchi nashri. 1993 yil. – B.15.

¹⁹ "Temur tuzuklari". – T.: 2011. – B.88-90./ Erkin Azimov. Amir Temur tarixi. – T.: 1996. – B.20.

²⁰ Azamat Ziyo. O'zbek davlatchiligi tarixi. – T.: Sharq, 2000. – B.176.

Amir Temur markaziy ma'muriyati boshida devonbegi, uning yonida arkbegi (marosimlar boshqaruvchisi) hamda to'rt vazir turgan. Birinchi vazir yer soliqlari, chegara bojini undirish hamda mirshablik ishlarini bajargan. Ikkinchisi askarlar maoshi va oziq-ovqat ta'minotlari bilan shug'ullangan. Uchinchi vazir harbiylar, ularning lavozim-mansablarga tayinlashi va meros ishlariga qaragan. To'rtinchisi saroy xarajatlarini boshqargan²¹. Ayrim adabiyotlarda yuqorida keltirilgan vazirlik lavozimi turlicha talqin etilgan. Masalan, akademik Bo'ribboy Ahmedovning fikricha, mamlakatni boshqarishda yetti vazir yordam bergen. Ulardan Vaziri a'zam (bos vazir) davlatning barcha ishlari, xususan, aholining turmush tarzi, kirim-chiqimlar, viloyatlar va o'lkalardan olinadigan soliqlar hamda mamlakat tinchligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan. U podsho oldida mas'ul bo'lgan.

Sipoh vaziri harbiy ishlar bo'yicha javobgar bo'lib, qo'shin ta'minoti va uning ahvolini nazorat qilgan.

Moliya vaziri davlat yer-suv va mulkclarini boshqarish, yaylovlari va o'tloqlarni nazorat qilish, boj va zakotdan tushgan daromadni hisob-kitob qilish vazifalarini bajargan.

Saltanat ishlarini yurituvchi vazir davlat muassasalarining kirim-chiqimlar, xazinadan olingen xarajatlarni tasarruf qilib turgan.

Adliya vaziri nozirlar devoni (yoki devoni adl)ga rahbarlik qilgan.

Mamlakat barcha ishlaridan xabardor bo'lib turuvchi vazir devoni mansabni boshqargan.

Tashqi ishlar vaziri Amir Temur davlatining xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarni o'rnatish, turli muzokaralar olib borish bilan shug'ullangan²². Shuningdek akademik Bo'ribboy Ahmedovning fikridan farqli ravishda Bahodir eshovning "O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi" kitobida vazirlik quyidagicha keltirilgan. Dastlab, Mamlakat va raiyat vaziri, Harbiy ishlar vaziri, Mulkchilik va soliq ishlari vaziri, Moliya vaziri, Davlat korxonalarini vaziri, Devonbegi (devon boshlig'i), Adliya vaziri (devoni mazolim), Harbiy sud vaziri, Vaqf ishlari vaziri, Xabar va aloqa vaziri kabi lavozimlar

²¹ Muxammadjonov A. Temur va Temuriylar sultanati.(Tarixiy ocherk). – T.: 1994. – B.36.

²² Erkin Azimov. Amir Temur tarixi. –T.: 1996. –B. 49 – 50. //Abdurahimova N. A. va boshqalar. Davlat muassasalari tarixi. –T, Sharq, 2007. –B.24.

mavjud bo'lgan²³. "Temur tuzuklari"da esa to'rt vazir vazifalari keltirilgan.

Birinchi – mamlakat va raiyat vaziri. Bu vazir mamlakatning muhim va kundalik ishlarini, raiyat ahvolini, kirim-chiqimlar va mamlakat obodonchiligi haqida ma'lumot bergen.

Ikkinchisi – sipoh vaziri bo'lib u sipohiyarni ulusasi va tanhosи borasida ishlarni amalga oshirgan.

Uchinchisi – egasiz qolgan, o'lib ketgan va qochganlarga tegishli mollar, zakot va bojlar, shuningdek omonatni saqlovchi, o'lganlar mol-mulkini merosxo'rlariga topshirish bilan shug'ullangan.

To'rtinchisi – sultanat ishlarini yurituvchi vazir. U butun sultanat kirim-chiqimlari, xazinadan sarf etilgan xarajatlar haqida ma'lumot bergen. Shuningdek, mamlakat chegara va tobe yerdidan keladigan daromadlar hamda moliyaviy muammolar haqida xabar beruvchi uchta vazirdan iborat bo'lgan davlat hay'ati tuzilgan²⁴. Shunindek, Xerman Vamberi "Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi" asarida keltirilishicha ulug' amaldorlar o'z vazifalarini bajargan paytda, soliklar yigish vaktida yumshoq muomala qilishlari shart bulgan. Qamchi ishlatish man qilingan. Bu to'g'risida Temurning o'zi aytadi: «Xar bir voliy o'zining qamchisi kabi axamiyatga ega bulmasa, u kishi to'ralik mansabiga loyiq emas»²⁵ deb keltirib o'tilgan.

Adolat amiri bu mansabdagi shaxs turli o'lkadagi, viloyat va shaharlarda "sipoh va raiyat orasida urf-odatlarga oid janjalli ishlar haqida" oly hukmdorga hisobot va ma'lumot yetkazib turgan.

Tavochi muhim lavozimlardan biri bo'lib, oliy farmonga ko'ra, joylarga borib harbiy yurish uchun lashkar to'plash ishlari bilan shug'ullangan. Sharofiddin Ali Yazdiyning guvohlik berishicha, tavochilar bosh tavochi, piyoda askar tavochisi kabilarga taqsimlangan. Bosh tavochilar tumanot (o'n minglik), hazorajot (minglik), sadajot (yuzlik) yetakchilaridan, viloyat kattalaridan

²³ Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – T, Yangi asr avlodи, 2012. – B.283./ Odilqoriyev N. va boshqalar. Davlat va huquq tarixi. – T.: 2012. – B.150.

²⁴ "Temur tuzuklari". – T.: 2011. – B.124-125.

²⁵ Xerman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnaxr tarixi. – T, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1990. – B. 43.

qo'shinni o'z vaqtida, belgilangan son va sifat bilan yetkazib berish to'g'risida tilxat olganlar²⁶.

Amir Temur markaziy boshqaruvida bosh hojib, hojiblar, xazinador, xonsolar, jibarchi, qushbegi, bakovulboshi va ko'plab lavozim va mansablar bo'lgan. Xususan, Amir Temur markaziy boshqaruvida ko'plab dunyoviy mansab va lavozimlar bo'lgan bo'lsada diniy mansablarning ham o'rni katta bo'lgan. Tuzuklarda Amir Temur: "o'z tajribamdan ko'rib bildimki, davlat agar din-u tartib asosda qurilmas, to'ra-tuzukka bog'lanmas ekan, unday sultanatning shukuhi, qudrati va tartibi yo'qoladi, shuning uchun ham men davlatim binosini islom dini, to'ra va tuzuk asosida mustahkamladim. Ravshan dingga rivoj berishda qo'llagan birinchi tuzukim shu bo'ldiki, sayyidlar orasidan layoqatli bittasini ahli islomga boshliq – sadir etib tayinladim. Tamom vaqflarni boshqarish va nazorat qilish uchun mutavalli tanlashni, har bir shahar va viloyatda qozi, muftiy, muhtasib, tayinlashni ularning o'ziga xavola qildim", - deb ta'kidlagan²⁷. Yuqorida nomi keltirilgan diniy mansabdagi shaxslar davlatdagi diniy qonun – qoidalarni o'z vaqtida bajarilishini nazorat qilgan. Masalan, Shayxulislom mamlakat va har bir tobe hududlarda islom ahlini nojo'ya xatti – harakatlardan saqlanish, nazorat qilish, ulardan savob ishlarga undash uchun ma'sul shaxs bo'lgan.

Sadrlar esa vaqf mulklarini nazorat qilgan va suyurg'olni belgilab turgan. Ular ahli islomga boshchilik qilganlar.

Mutavalliy sadrlar tomonidan vaqf mulklarini boshqarish hamda nazorat qilish uchun tayinlangan shaxs.

Qozi har bir shahar va viloyatda, devonning turli jabhasida qonunlarga amal qilinishini nazorat qilgan. Qozilar darajasi va martabasiga ko'ra bir – biridan farq qilgan.

Mudarris diniy masalalar, shariat, tafsir, hadis va fiqh bo'yicha dars beruvchi shaxs.

Muhtasib lavozimi esa bozorlarda tarozi, narx – navoni nazorat qiluvchi ma'sul shaxs hisoblangan.

Xulosa o'rnda shuni aytish mumkinki, davlatning rivojlaniishi va taraqqiy etishi faqatgina uning geografik-hududiy joylashuvi, aholisi,

²⁶ Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruvi tarixi. – T, Yangi asr avlodি, 2012. – B.282.

²⁷ "Temur tuzuklari". – T.: 2011. – B.79-80.

tabiiy boyliklari, yer maydoni kabi omillargagina bog'liq bo'lib qolmasdan, balki undagi joriy etilgan qonun-qoidalar, tartib-intizomga bog'liq hisoblanadi. Amir Temur ham o'z davlatida barcha uchun majburiy kuchga ega bo'lgan qonuni (tuzuklari)ni yaratdi va bu qonuni o'z yurtida va boshqa tobe hududlarida tartib, intizom o'matishida muhim omil bo'lib xizmat qildi. Bu esa Amir Temurni butun dunyoda sohibqiron degan nomga munosib ekanligini isbotladi.

Bola tarbiyasining o'ziga xos jihatlari

Muslima Rahmonova,

Namangan shahar 4-maktab boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi Jumavoy aka Umarov.

Bolalar tarbiyasida mavjud bo'lgan oila muammolari, unda yuritiladigan ta'lif-tarbiya masalalari azal-azaldan ilmu - ijod ahli diqqat e'tiborini jalb etib kelgan. Oilaning turmushi va hayoti, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy, uning tabiiy asoslarini nima tashkil etadi. Oila tarbiyasi qanday qonuniyatlar asosida vujudga keladi degan savollarda kishilik tarixining barcha davrlarida dolzarb masala bo'lib kelgan. Millatimiz va xalqimizning 3000 yil avvalgi ko'hna madaniyati va boy ma'naviyatidan saboq beruvchi, ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal ulug'langan «Avesto» yozma yodgorligining ilg'or g'oyalari haqida alohida fikr yuritishga to'g'ri keladi. «Avesto»da zardushtiylikning oltin qoidalaridan biri - oilani muqaddas sanalgani bois, boshqa ayrim sabablarga ko'ra, masalan, ig'vo, tuhmat, erxotinning o'zaro kelishmovchiligi, ota-onal bilan murosa-madora qila olmaslik kabi bahonalar bilan nikohning bekor qilinishiga yo'l qo'yilmagan. Zardushtiylikning axloq-odob qoidalariga ko'ra, ayollar masalasi «Avesto»da alohida o'rinn tutadi. Jumladan, ayollar hayz ko'rgan va homiladorlik paytlarida marosimiy makruh hisoblanganlar va ular boshqa pok narsalar, ayniqsa, suv, olov, oziq-ovqatdan uzoqlashtirilganlar. Jumladan, bunday ayollar o'z oila a'zolari bilan bir dasturxon atrofida o'tqizilmagan, o'zaro munosabat va muloqtlarda cheklangan, ovqat pishirmagan, non yopmagan, hovli supurmagan, sigir sog'magan, marosimlarda qatnashmagan, ro'zg'or yumushlariga aralashtirilmagan. Odatda, bu kabi «cheklash-chegaralash davri» farzand tug'ilgandan yetti kundan to'qqiz kungacha, ~~ba'zah esa kichik~~ chillasi tugagunga qadar davom etgan. Inson bu yorug' dunyoga

yomon odam bo'lib tug'ilmaydi, uning yomon yoki yaxshi odam bo'lib shakllanishiga oila tarbiyasi, mahalla-ko'y, lo'nda qilib aytganda, jamiyatdagi mavjud muhit tufayli yuzaga keladi. Avval boshdan bolani to'g'ri tarbiya qilib voyaga yetkazish kerak. Xalqimiz hayotidagi turli marosimlar, rasm-rusumlar, an'analarning tashkil etilishiga chuqurroq razm solsak, ishontirish, isbotlash, na'muna ko'rsatish, ta'sir etish, tasdiqlash kabi pedagogik usullar orqali barkamol insonni tarbiyalashni pirovard maqsad qilib olinganiga ishonch hosil qilamiz. Hatto ana shunday turli-tuman marosim va to'y-hashamlarda ko'pchilik bilan qilinadigan duoyu fotihalarda ham katta tarbiyaviy maqsadlarga yo'naltirilgan xohish-iorda borki, ularning ta'sir kuchi g'oyat kattaligini alohida ta'kidlash zarur bo'ladi. Inson va jamiyat, insonning tabiat va jamiyatdagi o'rni. Komil insonni shakllantirishda ta'lim va tarbiyaning roli, oilada axloqiy madaniyatni takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy ta'limotlardagina emas, balki falsafiy didaktik va badiiy asarlarda ham keng talqin qilindi. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u-bilik» asarida Oyto'ldi o'g'li O'gdulmishga bir qator nasihatlar beradi: - Mening yagona tashvishim, - deydi u, - sening keyingi hayotingdir. Otaning ish-amali o'g'liga singsa, uning xulqida jilvagar bo'ladi. Bolani tergab-nazorat qilish ota-onha yuzining yorug'ligini ta'minlaydi. Nazoratdan tashqaridagi bola bebosh va yaramaslik sari og'adi. Erka bo'lib o'sgan o'g'il-qizlar xatti-harakati ota-onaga mung va alam keltiradi. Bundan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ota-onaning burchi, avvalo, farzandga ta'lim-tarbiya berish va barkamol bo'lib yetilishi uchun sharoit va imkoniyat yaratib berishdir.

Sharqona odob-axloq qoidalari

Ermatov Abrorbek,

Irvadon pedagogika kolleji o'qituvchisi.

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi Jumavoy aka Umarov.

Sharq xalqlarining bir necha ming yillar mobaynida yaratgan shunday bebaho odob-axloq qoidalari, jahonga ko'z-ko'z qilsa arziyadigan qadriyatları borki, ularni unutish o'tgan avlodlar xotirası oldidagina emas, hozirgi va kelajak nasl-nasablarimiz oldida ham kechirilmaydigan eng katta gunohi azimdir.

Odob-axloq, ta'lim-tarbiya sohasidagi qadriyatlarimiz bizlar uchun faqat milliy merosgina emas, balki insoniyat ma'naviy hayoti

borasida katta o'rin olishi mumkin bo'lgan ma'naviy boylik hamdir. Ana shu milliy qadriyatlarimizni tiklash, ulardan to'la bahramand bo'lish, yosh avlodni ular bilan tanishtirish mustaqilligimizni mustahkamlashda, odamlarda insonparvarlik, vatanparvarlik singari fazilatlarni qoror toptirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Gap ma'naviy va axloqiy poklik, iymon, insof, diyonat, or-nomus, mehr-oqibat, mehmondo'stlik, insonparvarlik va boshqa umuminsoniy va milliy qadriyatlar ustida bormoqda. Ularning jamiyatimizning iqtisodiy taraqqiyoti, madaniy-ma'naviy kamoloti uchun nechog'lik muhim o'rin tutishini yetti yashardan yetmis yashargacha bo'lgan har bir inson biladi. O'zbek xalqida dunyo tan berib kelayotgan ajoyib insoniy fazilatlar, nodir urf-odatlar mavjud. Oila a'zolarining barchasi to'planmaguncha ovqat yemay turish, oila boshlig'ini odob saqlab kutish, ota-onani o'rnidan turib kutib olish, ularga har doim iltifot ko'rsatish, kattalarga hurmat, kichiklarga mehr-shafqat, ulug'-ajdodlarga, qo'ni-qo'shnilar, xesh-aqrobolarga, mahalladoshlarga, tanish-bilishlarga yordamni ayamaslik va boshqalar bunga misol bo'ladi. Birovlar bilan muomalada odob-axloq qoidalariga qat'iy amal qilish, o'zidan kattalar, yoshi ulug'lar bilan hayo, odob-andisha asosida so'zlashish, ularga nojoiz so'zlarni aytmaslik, betagachoparlik qilmaslik, odob-axloq, andishani qo'ldan bermaslik-bularning hammasi xalqimizda chinakkam lutfu nazokat hisoblanadi va yuksak darajada e'zozlanadi. O'zidan kattalarni, birinchi galda keksa bobolaru otalarni, nuroniy onalaru buvilarni hurmat qilish, e'zozlash, ular uchun qo'ldan kelgan yordamni ayamaslik o'zbek xalqining an'anaviy qoidasi bo'lib, ular o'zbek oilalarida yoshlikdan bolalar ongiga, qon-qoniga, vujud-vujudiga chuqr singdirilib boriladi. Otabobolarimiz an'analariga ko'ra, yoshlar o'zidan kattalarni ko'rganda tanish-tanimasligidan, millati va jinsidan qat'i nazar, salom berishlari, yo'lida ro'baro' kelganda birinchi yo'l berishi, ular bilan samimiy munosabatda bo'lishlari, iltifotlarini ayamasliklari lozim.

XI asrning atoqli shoiri, donishmandi va davlat arbobi Yusuf Xos Hojib qarilarni hurmat qilish, ular haqida behuda so'z aytmaslik, ular huzurida odob va kamtarlik bilan so'zlash joizligini uqtirgan edi.

O'zbek xalqining eng qadimiy davrlardan boshlab hozirga qadar davom etib kelayotgan, o'z ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan ajoyib qadriyatlardan yana biri ota-onani yuksak darajada e'zozlash, izzat-ikromi, xurmatini joyiga qo'yishdan iboratdir. Farzand uchun

dunyoda ota-onadan ko'ra mehribon, aziz va mo'tabar zot yo'q. Ota-onan farzandning suyanchig'i, bitmas-tuganmas boyligidir. Hech ikkilansdan shuni aytish kerakki, ota-onan farzand uchun hech narsani ayamaydi. Ularning tabiat ato etgan buyukliklari ham ana shunda. O'zbek xalqi odob-axloq qoidasi bo'yicha, keksalarning, ota-onaning oldidan salom bermasdan o'tish gunoh hisoblanadi. Bundaylarni el-yurt la'natlaydi.

Shunday ekan, ota-onani qadrlash, ularning beminnat xizmati unutmaslik, duolarini olish- bolalarining farzandlik burchi. Bu-milliy qadriyatlarimizning eng muhim talabalaridan biridir. Milliy qadriyatlarimizning mohiyatiga zid bo'lgan bunday salbiy hodisalarning uzoq davom etishiga ortiqcha chidash, sabr-toqat qilish mumkin emas edi. Mustaqilligimiz tufayli bularga chek qo'yildi. Mustaqilligimiz ta'lim-tarbiya, odob-axloq masalalarida ham tub burulish davrini boshlab berdi. Milliy an'analar, milliy madaniyat, milliy qadriyatlar o'zining qaddini rostlay boshladи.

Kattalarga izzat-ikrom, kichiklarga mehr-shafqat, ota-onalarga e'zoz, farzandlarga mehr-sadoqat-bular insonni inson sifatida ulug'laydigan, axloqiy, ma'naviy jihatdan go'zal va barkamol qiladigan qadriyatlardan bo'lib hisoblanadi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining Asosiy Qonuni-Konstitutsiyada farzandlarning jamiyat,oila hamda ota-onalari oldidagi insoniy burchlari va mas'uliyatlari nimalardan iboratligi milliy qadriyatlarimizdagи asosiy g'oya va qoidalarga asoslanib belgilab berilgan. Uning 66-moddasida qayd qilinishicha, voyaga yetgan, mehnatga layoqatli farzandlar o'z ota-onalari haqida g'amg'o'rlik qilishga majburdilar.

Vatanga muhabbat muqaddas tuyg'u

*Abdujabbor Qambarov,
Nam DU katta o'qituvchisi.*

Istiqlol xalqimizning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. Yurtimiz tarixi, qadimiy madaniyatimiz tiklanmoqda va oliy qadriyat nufuziga ega bo'lmoqda. «O'zbekiston - yagona Vatan» tushunchasining g'oyaviy-mafkuraviy mazmunini anglab olish uchun, avvalo Vatan, vatanparvarlik tushunchalarini yoritish lozim. Vatan aslida arabcha so'z bo'lib, ona yurt ma'nosini anlatadi. Shu ma'noda O'zbekiston o'zbek xalqining vatani, sajdagoh kabi muqaddas

makonidir. Vatan – bu inson va uning avlod-ajdodlari kindik qoni to'kilgan muqaddas dargohdir. Vatan - bu ajdodlar maskani, el- yurt, xalq voyaga yetgan, uning tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, qadriyatları shakllanib, o'sib, kamol topib boradigan zamindir.

O'zbekistonning mustaqillik yillarda bosib o'tgan zafarli yo'li, beqiyos ulkan yutuqlari xalqimizning ming yillik tarixinining qonuniy mahsulidir.

Sog'lom, aqlli va yuragida o'ti bor har bir fuqaro, hech shubhasiz, Ona-Vatanni jon dilidan sevadi. Vatanga muhabbat ko'r-ko'rona bo'lishi mumkin emas, buning uchun o'zlikni anglash, demakki, o'zi mansub bo'lgan xalqning kechmishini, kindik qoni tomgan tuproqning tarixini bilish, dilda iftixon tuyish, shu zamin, shu xalq, shu Vatan bilan o'z qismatini bus-butun deb his qilish lozim. O'zbek xalqi barcha xalqlar singari asrlar mobaynida saqlanib kelgan milliy urf odati, rasm-rusumi, marosimi va an'analarini, yurish turishi, g'ururi, bir so'z bilan aytganda, madaniy-ma'naviy dunyosiga ega.

Ko'hna va navqiron o'zbek davlati Buyuk ipak yo'li, ya'ni savdo sotiq, madaniyat, turli dinlar kesishgan muqaddas zaminda joylashgan. Mashhur karvonsaroylarda doimo turli millat vakillarining turli tillardagi suhbatini eshitish mumkin bo'lgan. Tarixan bizning o'lkada yashagan aholi turli dinlarga e'tiqod qilgan. Ammo ularning o'zor tinch-totuv va osayishta tumush kechirishining eng muhim omili shu yashayotgan ona tuproqqa hurmat, sadoqat, muhabbat bo'lgan. Vatanparvarlik tuyg'usi barchani yagona Vatanda birlashtirgan.

Vatanimizning ko'p millatli xalqi ongida «O'zbekiston yagona Vatan» degan ulug' tushunchani qaror toptirish milliy mafkuraning muhim vazifalaridan biridir. «Yagona Vatan» ruhidan ilhomlangan, el-yurt tinchligi va mustaqilligi uchun kurashgan Vatan fidoyilar To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur singari ulug' sarkarda va xalq qahramonlarining jasorati bugungi kunda ham vatandoshlarimizda faxr va g'ururlanish tuyg'usini kuchaytiradi.

Yagona Vatan g'oyasi, bir tomondan, O'zbekiston zaminida kelajagi buyuk, ozod va obod Vatan, erkin va farovon jamiyat barpo etish uchun xalqimiz kuch-quvvatini jipslashtirishni, xalq irodasini bunyodkorlik ishlariga safarbar etishni, ikkinchi tomondan esa milliy mustaqilligimizga xavf solayotgan mafkuraviy taxidlarga zarba bera oladigan vatanparvar avlodni tarbiyalashni ko'zda tutadi.

O'z Vataniga, tavallud topgan zaminga yuksak hurmatda bo'lган ulug' ajdodlarimiz ismlari oxiriga tug'ilib o'sgan joy nomini unutmaslik uchun qo'shib aytganlar: Xorazmiy, Buxoriy, Farg'oniy, Termiziy, Marg'inoniy, Farobi, Qoshg'oriy, Beruniy Yugnakiy va boshqalar. Bu kindik qoni to'kilgan yerga bo'lган azaliy sadoqat timsolidir. Biz milliy mustaqillik tufayli «O'zbekiston – yagona Vatan» g'oyasi ruhida tarbiyalanib, o'qib, mehnat qilish imkoniyatiga ega bo'ldik.

Mustaqillik tufayli bizning ma'naviy qadriyatlarimiz, o'tmish ajdodlarimiz qoldirgan meros, o'zining butun mukammalligida tiklana boshladi. Nosiriddin Rabg'uziy, Ahmad Yassaviy, Ubaydiy, Muhammad Rahimxon Firuz, Burhoniddin Marg'inoniy, Abu Mansur Moturidiy, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon va boshqa "sovet davrida" hatto nomlarini eslash man qilingan allomalarimizning asarlari birin-ketin nashr etilib, chanqoq kitobxonlar qo'liga yetib kela boshladi.

Ulug' bobomiz Imom Buxoriyning «Jome' as-sahih» kitoblari islom dunyosi ulamolari tomonidan yakdillik bilan Qur'oni Karimdan keyingi ikkinchi muqaddas kitob deb e'tirof etilishi va umuman, Qur'oni Karimdan keyingi islom dinimizning asosini tashkil etgan oltita hadis to'plamidan to'rtasining ona-Vatanimiz Turkiston zaminida yaratilganligi ajdodlarimiz an'analarining naqadar ulug' va samarali bo'lganligi dalolatidir.

Mustaqillik sharoitida boy o'tmishimiz va milliy madaniyatimiz xolisona, ilmiy asosda o'rganila boshladi, ularga to'g'ri yondoshuv va munosabatlар yuzaga keldi Chunonchi, Eron axmoniylariga qarshi Shiroqning, Iskandar Zulqarnaynga qarshi Spetamenning, arab fotihlariga qarshi Abu Muslim va Muqannalarning, mo'g'ul istilosiga qarshi Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Najmiddin Kubro, Mahmud Torobi va boshqalarning, ayniqsa adolatparvar, ma'rifatparvar xukrndor Amir Temurning sa'i-harakatlari, shuningdek, Po'latchon, Dukchi Eshon qo'zg'ololnları - bularning həri hech qanday «sinfiy kurash»ga aloqasi yo'q edi.

Bunday harakatlarni yuzaga keltirgan, unga kuch bag'ishlagan asosiy omil milliy g'oya bo'lib, uning mohiyatini yurt ozodligi, tinchligi, Vatan ravnaqi va xalq farovonligi tashkil etardi.

Kishi yaxshi inson bo'lib yetishishi uchun yaxshilar bilan suhabatdosh bo'lib, yaxhilarni qidiradigan, ularga ergashadigan bo'lishi lozim.

Agar kishi yaxshilar bilan hamfikr, hamqadam bo'limasa, unday odamdan yaxshilik kutib bo'lmaydi. Kishi shirinso'z, muloyim bo'lishi, atrofidagi kishilarni qo'pol, qattiq so'z bilan bezdirmasligi lozim. Mana shu hayotiy g'oya, falsafiy xulosa buyuk shoirlarning asarlarida o'zining teran badiiy talqinini topgan.

Ajdodlarimiz merosi va ma'naviyatini o'rganish biz yoshlarda g'urur uyg'otib, aynan shu maqsadlarga xizmat qiladi. Bugungi kunda mamlakatimiz yoshlarining katta qismini qamrab olgan soha o'rta maxsus, kasb-hunar va oliv ta'lim tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni oqilona va maqsadga muvofiq tashkil etish umum davlat siyosati miqyosidagi vazifadir. Darhaqiqat yoshlarni milliy g'oyani anglashi, ishonch va e'tiqodiga aylanishi, qanday yangi qadriyatlar shakllantirilganligi bilan ham bog'liq bo'ladi.

Milliy ma'naviyatimiz rivojida Navoiy merosining o'rni

Rohatoy Dolimova,

Uchi tumani 19-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi Abdujabbor Qambarov.

O'zbek adabiy tilining asoschisi, ulug' shoir va mutafakkir, yirik davlat arbobi va madaniyat homiysi Alisher Navoiy 1441-yilning 9 fevralida (hijriy hisob bilan 844 yil ramazon oyining 17 kuni) Hirot shahrining Bog'i Davlatxona degan joyida tug'ilgan.

Alisherning otasi G'iyo'siddin Muhammad «Kichkina Bahodir», «Kichik baxshi» laqablari bilan tanilgan bo'lib, temuriylar saroyida e'tiborli shaxslardan hisoblangan. Onasi Qobulning amirzodalaridan Shayx Abu Said Changning qizi edi. Alisher bolaligidanoq o'tkir zehni, fahm-farosati bilan o'z tengdoshlari orasida alohida ajralib turardi. U to'rt-besh yoshligidanoq she'riyatga muhabbat qo'yadi. Chunki she'riyat muxlislari, taniqli shoirlar Alisherlar xonadonida to'planishib, she'rxonliklar qilib turar edilar. Qolaversa, yosh Alisherning tarbiyasida o'z zamonasining iste'dodli shoirlari bo'lmish tog'alari Mir Said Qobuliy va Muhammad Ali G'aribiylarning ta'siri katta bo'lgan. Alisher o'zi yashagan davr an'anasisiga binoan boshlang'ich bilimlarni forscha manbalardan oldi. Chunki u davrlarda Saroy ahli fors-tojik tilini tan olib, turkiy tilni mensimas edi. Shu sababli Alisher muktabda Ganjaviy, Shayx Muslihiddin Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Farididdin Attor asarlarini o'qigan, Qosim Anvar g'azallarini yod olgan. Mir Shohiy, Sharafiddin Ali Yazdiy kabi yirik

fors-tojik shoir va olimlarining ijodi bilan tanishgan, ulardan ilhom olib, o'zi ham ijod qilishga kirishgan edi.

Navoiy yashagan davrlarda Sharq adabiyotida besh dostondan iborat «Xamsa» yozish an'anasi mavjud edi. Ilk xamsanavislikni ulug' ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy boshlab bergen. Keyinchalik ana shu an'anani Xisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiylar davom ettirganlar. Ammo hali hech kim o'zbek tilida «Xamsa» yozishga jur'at qila olmagan edi. Bu baxtga 1483-1485 yillarda birinchi bo'lib Alisher Navoiy erishdi. Demak, Alisher Navoiy turkiy tilda to'rt devondan iborat ulkan kulliyot, besh dostonдан iborat «Xamsa» asarini yozib, o'zbek tilining ham badiiy go'zalligini, bu tilda ham ajoyib asarlar yozish mumkinligini amalda isbotlab berdi. Mana shuning uchun ham o'zbek adabiy tilining asoschisi sifatida tan olinadi. Navoiy ustoz hamsanavislarning yuksak san'atkorligini e'tirof etdi, xamsachilik an'analarini davom ettirdi. «Xamsa» tarkibidagi dostonlarning muqaddimasida o'zigacha xamsachilikda muayyan yutuqlarni qo'lga kiritgan salaflariga ehtiromini ifoda qilgan. Ayniqsa, Nizomiy Ganjaviy va Xisrav Dehlaviyga, o'zi bilan deyarli bir vaqtida Xamsa yaratgan ustozni Abdurahmon Jomiyga bag'ishlab maxsus boblar yozgan, ularni ulug'lagan.

Navoiy ruboiylarida jamiyat hayotining muhim masalalari haqidagi falsafiy qarashlar yetakchi o'rin egallaydi: shoirning ko'pgina ruboiylari uning hayotidagi ayrim muhim voqealar bilan uzviy bog'liq ekanligi sezilib turadi. Muhimi shundaki, Alisher Navoiy ruboiylarida ma'naviy-axloqiy masalalar o'ta hayotiy detallar asosida talqin qilingan.

Ma'naviy –ma'rifiy ishlarni tashkil etishning mazmuni

Dilfuza Jo'rayeva,

Uychi tumani 19-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Ilmiy rahbar; katta o'qituvchi Abdujabbor Qambarov.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ma'naviyatning mohiyatini chuqur anglash muvafaqqiyat garovidir. Chunki ma'naviyat-insonning insoniylik mohiyati, shaxsdagi ijobiy fazilatlar majmui, insonning zohiriy va botiniy qiyofasi. U inson hayotining tub mohiyatini belgilaydigan aqliy, ruhiy, axloqiy va jismoniy qarashlar, ko'nikmalar, odatlar tizimidir. Ma'naviyat – har bir insonning milliy va umuminsoniy komillik darjasи, unga yetaklovchi, undovchi

imkoniyat. U inson shaxsini insoniylik bilan boyituvchi, kamol toptiruvchi, ko'rkamlashtiruvchi beqiyos hayotiy omil. Ma'naviyat – yaxshilik va ezzgulikka moyil, yomonlik va yovuzlikdan tiyilish, nafosat va haqiqatga, halollik va rostgo'ylikka intilish, o'zi mansub jamiyatning axloqiy, huquqiy, ma'rifiy-madaniy mezonlariga amal qilish hissidir. U insonning umrguzaronlik mohiyati, faoliyatining tabiatini belgilab bergen va faoliyatida gavdalangan ijobiy, go'zal fazilatlar majmui. Ma'naviyatda inson qalbi, shuuri, aql-zakovati, tabiat, bilimi, madaniyati aks etadi.

Ma'rifat esa insonning o'zini o'zi anglash, o'zini o'zi kamol toptirish, imkoniyatlarini harakatga keltirish yo'lida bilim, tarbiya, madaniyat boyliklaridan bahramand bo'lishini kafolatlovchi omildir. Ma'rifat – mohiyatan aql-idrok, tafakkurning mayog'i, mijozning murabbiysi, qaldba munavvarlikni, insoniy ulug'vorlikni qaror toptiruvchi umriy vosita, iymon-e'tiqod, xarakter, lafzning me'mori, vujudning jon tomiri. U – bilish, tanish, ilm va madaniyatning kamol topish mazmuni, usul va vositalaridir.

Ma'naviy –ma'rifiy ishlarning asosiy vazifasi yuksak axloqiy fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan komil insonni tarbiyalashdan iborat. Bugungi kunda bilimdon, yetuk malakali, yuksak aql-zakovat va istiqbol dunyoqarashiga ega tadbirkor kishilargina jamiyatimizning jahon sivilizatsiyasi sari taraqqiyotini tezlashtira oladi, O'zbekistonning dunyodagi rivojlangan mamlakatlar safidan munosib o'rin egallashini ta'minlay oladi. O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashning va yangi jamiyatni qurishimizning eng asosi bo'lgan ma'naviyat va ma'rifatni yuksaltirish hamda uni izchillik bilan hozirgi zamon talablari, milliy ruhiyatimizning ildizlariga suyangan holda yanada rivojlantirish bugungi kunning dolzarb va g'oyat muhim vazifasidir.

Ma'naviyat va ma'rifat davlat ichki hayotidagi bir butunlikni, odamlar ruhiyatidagi ko'tarinkilik va kelajakka ishonchni, aql-zakovat yuksakligini, o'z faoliyatida tinchlikni, millatlararo hamjihatlikni barqaror rivojlantirish yo'lini aniq belgilashdagi o'z fuqarolarning orzu-umidlarini, manfaatlarini ifoda eta bilish, uni buyuk kelajak sari harakatga yo'naltirish va unga rahbarlik qilish salohiyati hisoblanadi.

Mingbuloq tumani 12-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi Barotjon Ibrohimov.

Bugungi g'oyalalar kurashi ketayotgan davrda inson ma'naviyatini boyituvchi ma'naviy ozuqa sifatida xizmat kiluvchi vosita bu adabiyot va san'atdir. Adabiyot va san'at azal – azaldan inson qalbining ifodachisi sifatida xalq hayotini yorqin buyoqlarda aks ettirib kelgan. Adabiyot va san'at hamisha, turmushning mushkul damlarida ham, quvonchli paytida ham odamlar kayfiyatiga ta'sir ko'rsatib, ularga ma'naviy madad bo'lib kelgan. Hayotning barcha tamonlarini o'zida mujassam etgan adabiyot va san'at kezi kelganda xaqiqat vaadolat jarchisi bulib maydonga chiqqan.

Adabiyot inson ruhiyatiga, uning kayfiyatiga ta'sir qilib, uni o'z izmiga soladi va uning orzu niyatlarini o'zida ifoda etadi. Bugun yaratilayotgan asarlarimiz xalqimiz hayoti, turmush tarzi, tarixi, urf – odat va an'analarini yoritish bilan birga hayotimizga, milliy qiyofamizga tahdid va tajovvuz qilayotgan turli buzg'unchi, yot g'oya, mafkuralar mazmun – mohiyatini ochib berishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. “**Har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadurg'on oynasi – til va adabiyotidir**” degan edi buyuk ma'rifatparvar A.Avloniy. Adabiyot o'zining halollik, poklik, adolat, vatanparvarlik va insonparvarlik kabi g'oyalari bilan inson ma'naviyatini boyitib, uning qalbida xalq hayotiga salbiy ta'sir qiluvchi, turli buzg'unchi g'oyalarga qarshi mafkuraviy quroq sifatida xizmat qilmoqda. Adabiyot, ayniqsa, badiiy adabiyot bugungi mafkuraviy kurashda juda katta ta'sir kuchiga ega. Shuning uchun adabiyotdan mafkuraviy minbar sifatida ongimizga, qalbimizga kirib o'rashib olishga urinayotgan giyohvandlik, aqidaparastlik, diniy ekstrimizm va boshqa milliy qiyofamizga yot va begona, zararli oqim va g'oyalarga qarshi kurashish mumkin. Buzg'unchi kuchlar targ'ib qilayotgan g'aliz niyatlariga qarshi ezgu g'oyalalar bilan yo'g'rilgan milliy adabiyotimiz bilan javob berish zarur. Bunda buyuk allomalarimiz yaratgan asarlar, ota – bobolarimiz qoldirgan boy ma'naviy me'rosga tayangan holda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi xalq qaxramonlari siyosini yosh avlodga o'mak qilib ko'rsatish orqali ular qalbida vatanparvarlik,

yurtga sadoqat, har qanday yovuz kuchlarga qarshi nafrat tuyg'usini tarbiyalash bugungi kunning dolzARB mavzusidir. Bugun dunyo bo'yLAB inson ma'naviyati, qalbini egallash uchun g'oyaviy kurash ketayotgan va mafkuraviy tahdidlar kuchayib borayotgan bir sharoitda g'oyaviy yuksak, milliy qadriyatlarimizni o'zida aks ettirgan pishiq va puxta ishlangan san'at asarlarimiz yo'q emas, albatta. Ammo bu sohada qilingan ishlar yetarli emas. Buzg'unchi kuchlarning ma'naviy tahdidlari tabora kuchayib bormoqda, shunday ekan, ijod ahli oldida ana shu kuchlar qarshiligini dadil yengaoladigan, xalqning qalbiga chuqur kirib boraoladigan, milliyligimizni tarannum etadigan yetuk asarlar yaratishdek dolzARB vazifa turibdi. Toki, o'sib kelayotgan avlod qalbida o'z vataniga mehr, ota – bobolarining ruhiga hurmat, ajdodlarimiz qilgan buyuk ishlaridan faxralnish tuyg'ulari shakllanib, o'zlarini ham ulardek bo'lib yashashga intilsin. Buyuk olmon adibi Gyote havas qilganidek, hayo, vafo, e'tiqod, ixlos hamisha xalqimiz qalbida yashab qolsin.

Hayotni va undagi sir-sinoatlarni turli usullarda o'rganish mumkin. Masalan, ilmiy o'rganish, badiiy o'rganish va hokazo. Ilmiy o'rganish muayyan qonuniyatlar, aniq dalillar asosida isbotlash orqali amalga oshiriladi. Ilmiy o'rganish ham badiiy o'rganish kabi obrazlarga tayanib olib boriladi. Biroq, bunda obrazlar jonsiz va his-tuyg'udan mahrum, faqat fikr-mulohazaga asoslangan bo'ladi. Shu bois, ilmiy asarlar aqlingizni boyitib, tabiat va jamiyat haqidagi tasavvurlaringizni kengaytiradi. Badiiy obrazlar borliqdagi narsalarning oddiy nusxalari bo'lmay, ularning obrazli ko'rinishidir. Badiiy asarlarda narsa-hodisalar, umuman, voqelik badiiy obrazlar vositasida tasvirlanadi. Badiiy obrazlar his-tuyg'ularingizga ta'sir etish orqali inson va borliq haqidagi tasavvurlaringizni boyitadi.

Badiiy obraz yozuvchining hayot va voqelikka hissiy munosabatini ifodalaydi. Mana shu munosabat bir vaqtning o'zida his-tuyg'ularingizga ham, aql-idrokingizga ham ta'sir ko'rsatadi. Ijodkorning voqelikni badiiy obrazlar vositasida qayta gavdalantirishi obrazlilik asosida yuzaga keladi. Obrazlilik san'atning kino va teatr, musiqa va rassomlik, adabiyot va haykaltaroshlik kabi barcha turlariga xosdir. Ammo ularning har biri o'ziga xos obraz yaratish vositalariga ega. Masalan, rassomchilikda bo'yoq va chizgilarga, musiqada ohanglar rang-barangligiga, raqsda xatti-harakat va imo-ishoralarga asoslanib obraz yaratiladi.

Badiiy adabiyotda esa obraz so'z vositasida yaratiladi. Shuning uchun san'atning turlari ko'p. Ularning eng muhimlari musiqa va rassomchilik, kino va teatr, adabiyot va haykaltaroshlik kabilardan iborat. Ana shu san'atlarning barchasi badiiy obrazlar ishtirokiga asoslanadi. Biroq, adabiyotdagi so'z oddiy emas, balki muayyan histuyg'uni, holat va harakatni, ruhiyat va manzarani kishilar qalbiga ta'sir etadigan darajada ifodalovchi so'zdan iboratdir. Shu sababli u badiiy so'z san'ati deb yuritiladi.

Xalq og'zaki ijodida ma'naviyat masalalari

*Nargiza Dadajonova,
Kosonsoy tumani 50-maktab boshlang'ich ta'lif o'qituvchisi
Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi Barotjon Ibrohimov.*

Uzoq o'tmishda, hali yozuv kashf etilmagan paytlarda, kishilar o'zlarining tabiat va jamiyatga bo'lgan barcha munosabatlarini og'zaki bayon etganlar. Mana shu jarayonda ularning og'zaki ijodi paydo bo'lgan. Xalq og'zaki ijodi o'ziga xos bir necha xususiyatlarga ega bo'lib, ularning barcha janrlari ijro jarayonida yashaydi. Shu bois og'zakilik xalq ijodiyotining yaratilish va yashash tarzi hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodida xalq hayotining barcha sohalarida o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham xalq og'zaki ijodi janrlari nihoyatda xilma-xil bo'lib, ular kishilar turmush faoliyatining turli sohalari turlicha shakllarda ijro etilgan. Masalan, kishilar tirikchilik uchun zarur bo'lgan turli-tuman ishlar bilan shug'ullanish jarayonida qo'shiqlar kuylaganlar. Xalq og'zaki ijodi xilma-xil janrlardan tarkib topgan bo'lib, ularda xalqning dunyoqarashi, badiiy zavqi, ijodiy qobiliyati, orzu va intilishlari aks etgan. Maqollar xalqning ko'p asrlik hayotiy kuzatishlari, turmush tajribalari natijasida tug'ilgan xulosalardan iborat. Bu dono xulosalar shunchaki oddiy so'zlar orqali aytilmay, balki ixcham shaklda, betakror obrazlar orqali aniq va lo'nda ifodalanadi. Shu sababli xalq maqollar katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir maqolda ifodalangan fikr kishilar hayotida, kundalik turmushida uzoq yillar mobaynida sinovlardan, necha martalab kuzatuvlardan o'tib, yuzaga keladi. Xalq maqollarida yaxshilik va yomonlikni qarama-qarshi qo'yish, yaxshilikni ulug'lash, yomonlikni qoralash usuli orqali hayot haqida, inson hamda uning olijanob maqsadi haqida aniq xulosalar bildiriladi. Shu bois

maqollarda mehnatsevarlik ulug'lanadi, ishyoqmas va tekinxo'rlardan nafratlanish hissi alohida samimiyat bilan aks ettililadi. Chunki maqolni yaratgan xalq insonni kamolga yetkazuvchi narsa mehnat ekanligini juda yaxshi biladi. Mana shuning uchun ham ko'pgina maqollarda ishyoqmaslar, tekinxo'rlar maqolga xos aniqlik va o'tkir kinoyaviy til orqali fosh etiladi. «Baxt yalqovga begona», «Bersang – olasan, eksang - o'rasan», «Azob ko'rmay, rohat yo'q», «Ishyoqmas – rohat topmas», «Ishlamay yegan – og'rimay o'lar», «Tekinxo'r – xaromxo'r» kabi yuzlab maqollar borki, ular yosh avlodni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda katta ahamiyatga ega.

Xalq maqollari uzoq vaqtlar yashaydi, ular siyosiy tuzumlar, hayot sharoiti o'zgarsa ham, o'zlarining purhikmat ma'nolarini barqaror saqlab qoladi. Chunki ularda ifodalangan xulosa hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Masalan: «Er haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang – yuz hayda». Ushbu maqol xalqimizning dehqonchilik madaniyati, tirishqoqligi haqida aniq, inkor qilib bo'lmas dono xulosasini ifodalaydi. Muhimi shundaki, bu hayotiy xulosa kechagi yoki bugungi hayotimiz uchun emas, hatto kelgusidagi hayotimiz uchun ham ahamiyatli.

Xulosa qilib aytganda, xalq maqollarida ulkan mazmunli, dono fikrni ixcham shaklda aniq va lo'nda ifodalash yetakchi o'rinnegallaydi.

«So'z ko'rki – maqol» deydi dono xalqimiz. Chindan ham har bir maqol tilimiz ko'rkinii, nutqimiz nafosatini, tafakkurimizning mantiqiy qudratini ta'minlab turadi. Mana shuning uchun ham har bir inson, eng avvalo, xalq maqollarini o'rganishi, ulardagi dono o'gitlardan bahramand bo'lishi, o'z hayoti va faoliyatida bu hikmatlardan o'rinnli va unumli foydalanishi lozim.

Axborot va jamiyat taraqqiyoti

*Muyassar Tojiboyeva,
Chortoq tumani 7-maktab o'qituvchisi
Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. O.Mamatov*

O'zbekistonda demokratik yangilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta'minlashning g'oyat muhim sharti - ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish bo'yicha aniq va izchil choralarini

...imalga oshirishdir. Bu boradagi asosiy vazifa matbuot, televidenie, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, ularning mustaqilligi va erkinligini amalda ta'minlashdan, ommaviy axborot vositalarini fikrlar va g'oyalarni erkin ifoda etadigan maydonga aylantirishdan iborat. Bu choralar natijasida aholining siyosiy faolligini oshirish, fuqarolarning mamlakat siyosiy va ijtimoiy hayotida amaliy ishtirok etishi uchun kengroq jalg qilishga erishish mumkin.

Ayni chog'da bugungi globallashuv asrida axborotga bo'lган talab tobora kuchayib borayotganini e'tiborga olish zarur. Shunday ekan, xolis va haqqoniy axborotni tarqatish, ommaning bu mahsulotga bo'lган ehtiyojini qondirish har qachongidan ko'ra bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buyuk vatandoshimiz Abu Rayhon Beruniy "Xabar, deb yozadi - xabar beruvchilar sababli rostlik va yolg'onlik tusini oladi. Chunki, odamlarning maqsadlari xilma-xil. Xalqlar o'rtasida tortishish va talashish ko'p". Bundan o'n asr muqaddam aytilgan ushbu haqqoniy so'z nuqtai nazaridan kelib chiqilsa, axborot jangi avj olgan bugungi kunda siyosiy jarayonlarning ma'no-mazmunini va asl sabablarini chuqur anglash, atrofda sodir bo'layotgan voqealar haqida haqqoniy ma'lumotlarga ega bo'lish, har qanday noxolis axborot hurujlari zamirida rangli inqiloblar, namoyishlar yotganini aholiga va avvalo yoshlarimizga tushuntirishda OAV ning o'rni va ta'sir kuchi beqiyosligi ayon bo'ladi.

Yurtdoshlarimizni, ayniqsa yosh avlodni yot va zararli g'oyalardan muhofaza qilish, xavfsizlikka turli tahdidlar va xatarlarga qarshi kurashni kuchaytirish, mamlakatimiz hamda mintaqadagi barqarorlikni mustahkamlash borasida OAV vakillari o'zining qat'iy pozitsiyasiga ega bo'lish, e'tiqod qo'ygan nuqtai nazarni ishonch bilan asoslay olish kabi xislatlarni fuqarolaramizda shakllantirish ham soha vakillarining muhim vazifalaridandir.

Bu borada O'zbekiston MDH mamlakatlari ichida birinchilar qatori aloqa tarmog'ining 4 avlodi hisoblangan (4G) ishga solganini qayd etish zarur. Bu texnologiya ma'lumotlarni 100Mb/sek gacha tezlikda (ya'ni, 3G tarmog'iga nisbatan 30 baravar tezroq) uzatish imkoniyatiga ega. Tizimning ishga tushirilishi natijasida

foydaluvchi shu ondayoq so'ralayotgan ma'lumotga ega bo'lishi mumkin²⁸.

Bugun zamonaviy hayotni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) siz tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, bu texnologiyalar qisqa muddat ichida aloqa qilish imkoniyatlari va axborot olish usullari to'g'risidagi tasavvurlarimizni keskin o'zgartirib yubordi. Hozirgi vaqtida AKT jamiyat turmushining barcha sohalarida – davlat boshqaruvida, iqtisodiyot, siyosat, tibbiyot, ta'lim, fan va madaniyat, maishiy turmush va boshqa sohalarda keng qo'llanilmoqda. Mubolag'asiz aytish mumkinki, hech bir mamlakat axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining doimiy ravishda takomillashuviga yetarli darajada e'tibor bermay turib, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy jihatdan muvaffaqiyatli rivojlana olmaydi. AKT axborot olish, uzatish va tarqatish erkinligini berish bilan birga odamlarga o'zining intellektual salohiyatini yanada to'liq foydalanish imkoniyatini yaratib, barqaror iqtisodiy o'sish, faravonlik darajasini oshirish maqsadlariga erishishga yordam beradi.

Mustaqillik yillarda milliy matbuot tizimida ilgari mutlaqo kuzatilmagan nodavlat ommaviy axborot vositalari instituti vujudga keldi. Ayni paytda, bu turdag'i ommaviy axborot vositalari axborot maydonini axborot bilan ta'minlashda emin-erkin faoliyat yuritmoqda. Shu bilan ular nafaqat axborot maydonini, balki jamiyatda demokratlashtirish muhitini yanada mustahkamlashga bevosita hissa qo'shamoqda. Shuni ham ta'kidlamoq zarurki, nodavlat ommaviy axborot vositalarining ko'payishi o'z holiga tashlab qo'yilgani yo'q. Balki bu soha faoliyatini ham moddiy-texnik jixatdan qo'llab-quvvatlash ham kadrlar masalasida ko'maklashishga qaratilgan ikkita salohiyatli nodavlat notijorat tashkilot tashkil etildi. Hozirda bu ikki tashkilot – Nodavlat elektron ommaviy axborot vositalari milliy assotsiatsiyasi hamda O'zbekiston mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondi samarali faoliyat yuritmoqda.

²⁸ Yangi marralar sari //Xalq so'zi, 2010 yil 23 sentyabr.

Fuqarolik jamiyatining ma'naviy negizlari

Dilnoza Qurbonova,

Namangan tumani 14-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. O.Mamatov

Fuqarolik jamiyatining tuzilishi, deganda uning o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sirda bo'lgan tarkibiy qismlarining majmui tushuniladi.

Bunday tarkibiy qismlar sirasiga iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy va axborot tizimlari kiradi. Biroq, ta'kidlash zarurki, bu tarkibiy qismlar ba'zan shunchalik chambarchas bog'lanib ketganki, ularni bir-biridan ajratish ham mushkul bo'lib qoladi.

Ijtimoiy tizim kishilarni oiladagi, ishdagi, jamoat tashkilotlaridagi va ijtimoiy tabaqalardagi munosabatlari bo'yicha birlashtiradi. U fuqarolik jamiyatining birlamchi negizi bo'lib, fuqarolik jamiyatining boshqa tizimlariga ham ta'sir ko'rsatib turadi.

Ijtimoiy tizimda bosh rolni oila o'ynaydi, chunki aynan oilada o'sib kelayotgan yosh avlodga tarbiya beriladi, aynan oilada keyinchalik butun jamiyatga o'z ta'sirini ko'rsatadigan psixologik iqlim shakllanadi. O'zbekistonda oilaga katta e'tibor qaratilmoqda, yoshlarga va ko'p bolali oilalarga yordam berilmoqda. 1998 yilning O'zbekistonda "Oila yili", 1999 yilning esa "Ayollar yili", 2000 yilning "Sog'lom avlod yili" deb e'lon qilinishi ham buning yorqin isbotidir.

Qadim vaqtlardan buyon Sharqda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi kuch mahalla bo'lib kelgan. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, bu ezgu an'analar mamlakatda qayta tiklana boshladи. Mahalla haqiqatdan ham ijtimoiy institut bo'lib, bu yerda odamlarning o'zaro yaqin munosabatlari qaror topadi.

Ijtimoiy tizimlar qatorida keyingi o'rirlarni yirik tuzilmalar hisoblanadigan siyosiy partiyalar va jamoat birlashmalari egallaydi.

Ma'naviy-ma'rifiy tizimmlar yagona va 'bir butun tuzilmani tashkil etadi. Ularga ma'rifiy jihatdan o'zaro bog'liq munosabatlar kiradi. Ma'rifatsiz jamiyatning kelajagi yo'q. Ma'naviy-ma'rifiy tizimlar o'ziga ilmiy faoliyatni qamrab oladi, shuningdek, ilmiy-texnik taraqqiyot ham ular bilan chambarchas bog'liq. Bu borada avlodlarning muntazam aloqasini o'rnatish, o'z Vatanining tarixiy o'tmishini bilish juda muhimdir.

Iqtisodiy tizim fuqarolik jamiyatining eng asosiy tarkibiy qismlaridan biri sanaladi va u mulkchilikning turli ko'rinishlarini qamrab olgan bozor iqtisodiyotini ko'zda tutadi. Mulkchilikning barcha shakllari teng amal qiladi va teng himoya qilinadi.

Moddiy boyliklarni ishlab chiqarish munosabatlari ijtimoiy tizimda muhim o'rinni tutadi. Ishlab chiqarishning asosida jamiyat a'zolarining yaratuvchilik mehnati yotadi, shu boisdan mehnat munosabatlari iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismi hisoblanadi.

Yalpi ijtimoiy mahsulotni taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qilish munosabatlari iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi va garchi ular ma'lum darajada, boshqa ijtimoiy tizim doirasida amal qilsa ham. Siyosiy tizimni o'z-o'zini tartibga soladigan bir butun unsurlar (tashkilotlar) – diavlat, siyosiy partiyalar, ijtimoiy-siyosiy harakatlar, birlashmalar va ular orasidagi o'zaro munosabatlar tashkil etadi.

Avval boshdanoq hususiy shaxs ham, shu qatori har qanday jamoa ham mustaqil ishlab chiqaruvchi bo'lishi mumkinligini qayd etamiz. Barcha hozirgi zamon mamlakatlarida teng asoslarda davlat mulkchiligi ham mavjud.

Aynan xususiy mulkchilik jamiyatida muxtojlikda yoki hoxishiga ko'ra, uning istalgan a'zosi qonun doirasida davlatga "yo'q" deb, ayni paytda hayoti uchun zarur mablag'lardan ajralmay qoladigan holatni shakllantiradi.

Agar ishlab chiqaruvchilar ko'pchilik bo'lmasada, ular jamiyatning bir qismi bo'lib qolaversa, hamma – iste'molchi hisoblanadi. Moddiy va ma'naviy ne'matlar iste'molchisi hisoblangan fuqaro tanqislik bo'limgan holatdagina o'zini nisbatan hotirjam his qiladi. Ana shundagina jamiyat va davlat barqarorlikka ega bo'ladi.

Fuqarolik jamiyatı – shaxsiy hokimiyyat rejimiga, o'zboshimchalikka, sinfiy nafratga, totalitarizmga, odamlar ustidan zo'ravonlikka o'rinni bo'limgan, qonun, axloq, insonparvarlik va adolat tamoyillarini hamma hurmat qiladigan erkin, demokratik, huquqiy sivilizatsiyalashgan jamiyat. Bu – aralash iqtisodiyotga ega bo'lgan ko'p ukladli raqobatli bozor jamiyatı, tashabbuskor tadbirkorlik, turli ijtimoiy qatlamlar manfaatlarining oqilona muvozanati ta'minlangan jamiyatdir.

Farzand tarbiyasi

Hayitova Shahlo,

Kosonsoy tumani 5-maktab o'qituvchisi.

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots. O.Mamatov

Farzandlarning ota-onaga hurmati sharqda hamma vaqt juda yuqori bo'lgan. Farzandlar yoshligidanoq otasiga suyanib, onasini allasini tinglab ularning mehriga qonib voyaga etganlar. Ularning ko'ngliga mehr ona suti bilan kirgan. Hazrat Navoiy aytganlaridek onani oy, otani quyosh deb bilganlar.

Odatda otani padari buzrikvor, onani esa mehribon volida deymiz. Chunki, har bir inson uchun otadek ulug` va qadrdon, onadek mehribon va yaqin kishisi yo`q. Ota-onha buyuk zotlardir. Ular siz bilan bizni dunyoga keltirib, ko`z qorachig`iday asrab-avaylab, voyaga etkazibgina qolmasdan hamma vaqt quyosh yang`liq hayotimizga nur sochib turadilar, bamisolgi oy kabi kunimizni yorug`, yo`limizni oydin qiladilar. Shu bois, eng ro`zal dostonlar, eng yaxshi qo'shiqlar, eng yoqimli musiqalarning ana shu zotlarga bag`ishlangani bejis emas. Ota-onha qadri, ularga mehr muhabbat g`oyasi xalq og`zaki ijodi asarlarida samimiyat bilan qo'llanib kelinadi²⁹.

Oila jamiyatning tarkibiy qismidir. Oilaning shakllanishi va rivojlanishi bevosita jamiyat hayotidagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma`naviy munosabatlari bilan bog`liq ravishda amaga oagan. Jamiyatdagagi barcha o`zgarishlar, odamlarning turmush tarzi, yashash va mehnat qilish sharoitlari, milliy ahloq normalari, psixologiyasi, diniy e`tiqodlari oilaviy munosalatalarning shakli va mazmuniga ta'sir qilgan. Shu sababli oilaviy munosabatlarning ahloqiy, huquqiy, ijtimoiy mezonlari ham o`zgarib turgan.

Tarixiy taraqqiyotning ma'lum bir davrlarida oilaviy munosabatlarni rivojiga jamiyat, jamoatchilik ta'sirini o'tkazish, ularni boshqarish zarurati ham kuchaygan. Bu zarurat natijasida nikox bilaq bog`liq munosabatlari kelib chiqqan. Nikox oila qurayotgan ikki yosh o`rtasidagi munosabatlarni davlat, jamiyat tomonidan muayyan ahloqiy, huquqiy mezonlar asosida boshqarilishi zarurati natijasida vujudga kelgan. Nikoh ikki yosh roziligi asosida qayd qilinadi va

²⁹ Bozorov E. Ota-onaga izzat-hurmat, oilaga sadoqat ma`naviyat ma'rifat mezonlari. Salohiyat/Ilimiy to`plam. -Namangan: 2010.-B.12.

o'zaro ishonch, xurmat va muhabbatga tayanadi. Nikoh – oilaga, jamiyatga, farzandlarga nisbatan bo'lgan ma'naviy, huquqiy burch va mas'uliyatini belgilashdir. Nikox muqaddas xisoblanib, oila barqarorligini asosiy omili bo'lib qolmoqda.

Tarixiy madaniyatimiz, an' analarimizning dastalbki ilk ildizlari xaqida ma'lumot beruvchi "Avesto"da ham oiladagi muhit, er va xotin o'rtaсидаги муносабатлар, ular bir-birini tushunishii, ko'maklashishi, mehr-oqibatliligi, farzand tarbiyasi bilan bog'liq mas'uliyatni anglash jamiyat taraqqiyotining asosiy omili deb qaralgan.

Farzand tarbiyasida qo'ni-qo'shnilar ta'siri va mahalladagi muhitga bog'liqligi sababli o'zbeklar barcha davrdarda jamoatchilik fikriga tayanganlar. "Xovli olma, qo'shni ol", "Qo'shning tinch bo'lsa, sen ham tinchsan", "Qiyomat kuni qo'shnidan", degan maqollar ijtimiy muhitning inson va jamiyat hayotidagi o'rmini, ahamiyatini yuksak darajada ifodalagan xikmatlardir.

Har bir oilaning tinchligi – yonma-yon yashayotgan qo'shnilarning ham tinchligidir. Shu sababli oilalar o'rtaсидаги ilq, samimiylit mahallalar va qishloqlardagi qo'ni-qo'shnichilik munosabatlarning asosiy shaklini tashkil etadi.

Farzandlarning o'z ota-onasiga bo'lgan munosabati ham jamoatchilik e'tiboridan chetda qolmagan.

Har bir oilaning tinchligi barcha qo'ni-qo'shnilarning butun mahallaning tinchligidir. Bir uyda eru-xotin, farzandlar va ota-onalar o'rtaсидада доимо janjal bo'lsa, urush bo'laversa qo'ni-qo'shnilarning tinchligi ham, yoshlarning tarbiyasi ham buziladi. Bunday janjalkash oilalarni yarashtirib qo'ygan kishilar ham bundan o'zları uchun ham xulosa chiqarib oladilar.

Komil inson tushunchasi

*Usmonova Shahnoza,
Namangan shahar Ijtimoiy-iqtisodiyot
va pedagogika kolleji o'qituvchi.*

Ilmiy rahbar: t.f.n., dots. T.Qozoqov

Bugungi kunda ma'naviyat masalasi ijtimoiy hayotimizning asosiy masalalaridan biriga aylanib qoldi. Mustaqillikning dastlabki kunlariдан оғози mustaqillik tufayli o'z eri, o'z tili, o'z diniga ega

bo`ldi; milliy g`ururi, izzat obro`sı tiklanib, endilikda qadriyatlarimiz, ma`naviy merosimizdan bahramand bo`lmoqdamiz. Mustaqillik va ma`naviyat bir-biriga g`oyat bog`liq tushunchalardir. Ma`naviyati buyuk xalqni qul qilish, abadiy istibdod zulmi ostida saqlash mumkin emas. Bunday ma`naviyatning kamol topishi, qalblarga singishi uchun Mustaqillikni mustahkamlash ham lozim bo`ladi. Qudratli kelajagi buyuk davlat, buyuk ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar qudratli ma`naviyat zamirida vujudga keladi. Har bir alohida shaxsning va butun millatning ma`naviy kamoloti orqali demokratik huquqiy davlat barpo etiladi. Davlatimiz rahbari shu bois ham ma`naviyat va ma`rifatga doimo katta e`tibor berib kelmoqda. Shu oqilona siyosat tufayli xalqimiz o`zligini tanib, o`z shajarasini idrok etmoqda, tarix oldidagi vazifasini anglab olmoqda.

Inson ma`naviyatini yuksaltirmasdan turib, xalqimiz hayoti va turmushi yuksalishida, hamda mamlakatimiz taraqqiyotida muvaffaqiyatlarga erishish qiyin. Islohatlarning birinchi bosqichida milliy ma`naviyatni yuksaltirish yo`lida ko`zlangan maqsad to`la amalga oshirildi va ikkinchi bosqichda amalga oshirilishi lozim bo`lgan vazifalarga zamin hozirlandi. Ma`naviy, mafkuraviy parokandalik davriga barham berildi. Ma`naviy tarbiya sohasida ko`zbo`yamachilikka yo`l qo`yish nihoyatda xatarli. Ma`naviyat jamiyat hayotining shunday bir nozik, ahamiyatli sohasiki, bu borada xo`jako`rsinga ish qilish iqtisodiy va siyosiy sohalarda kutilmagan turli inqirozlarni keltirib chiqarishi mumkin. Ayniqsa, bu sohada o`zi bo`larchilik va lo`ttibozlikka yo`l qo`yib bo`lmaydi. Kishilarda, xususan yoshlarda yangi ma`naviyatning shakllanishi ancha murakkab va mashaqqatli jarayon hisoblanadi. Buni amalga oshirish uchun keng ko`lamli madaniy, tarixiy, ma`rifiy, tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish kerak bo`ladi. eski tuzum sharoitida tarkib topgan ma`naviy inqirozga barham berish, yangicha tafakkurga ega bo`lgan insonni shakllantirish murakkab, muayyan davrni talab qiluvchi, asta-sekiq amalga oshadigan jarayon bo`lganligi sababli tarixning burlish davrlarida jamiyat hayotida ma`naviy bo`shliq holatlari ham yuzaga kelishi tabiiydir. Bu bo`shliq jamiyat uchun iqtisodiy, siyosiy inqirozga nisbatan ancha xatarliroq kechadi. Bunga keyingi vaqtarda yuz bergen mudhish voqealar yaqqol misol bo`la oladi. Shu sababli tarixiy burlish davrlarida ob`ektiv tarzda yuzaga keladigan bunday holatlarni chuqur anglab, ularga to`g`ri munosabatda bo`lish lozim.

Avvalo shuni aytish kerakki, ma'naviy barkamol inson tushunchasining o`zi keng qamrovli, serqirra tushuncha. Ma`naviy barkamol inson - komil inson tushunchasi bilan hamohangdir. Ayni vaqtida ma'naviy barkamol inson tushunchasi sog'lom avlod tushunchasi bilan ham bog`lanib ketadi. Ilmiy adabiyotlarda bu tushunchalar alohida-alohida ishlatsa-da, mohiyatan ularning hammasi inson axloqi va odobini, ularda shakllangan barcha ijobjiy xislatlarni, ularning insonlarga, jamiyatga va Vatanga bo`lgan munosabatlaridan tortib, toki oilaga, ota-onaga va boshqalarga munosabatlarining barcha qirralarini qamrab oladi.

Sog'lom deganda, biz faqtgina jisman baquvvat farzandlarimizni emas, balki ma'naviy boy avlodni, aqliy rivojlangan, axloqiy pok, ma`rifatli farzandlarni, avlodni tushunmog'imiz kerak. Bunday kishilar o`zlarida xalqimizning eng ardoqli fazilatlari - iymon va insof, mehr-oqibat, shafqat va rahmdillik, uyat va andisha, or-nomus, o`zaro hurmat, yuksak Vatanparvarlik, eliga va xalqiga sadoqat kabi qadriyatlarni va g`oyalarni mujassamlashirgan bo`lishlari lozim.

Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish asoslari

*Muyassar Tojahmedova,
Nam DU katta o'qituvchisi*

Ayolni qadrlagan yurtda e兹gulik, adolat, yaxshilik hamisha muzaffar. Shuning uchun ham xotin-qizlar sog'lig'ini muhofaza qilish, ma'nan barkamol va jismonan yetuk avlodni shakllantirish mustaqil O'zbekiston siyosatining ustuvor yo'naliшlaridan biriga aylandi. Chunki ayol millatning ijtimoiy sog'lomligini belgilab turuvchi omil hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham biz obod va ozod Vatan barpo etishni sog'lom avlodni dunyoga keltiruvchi ayollar timsolda ko'rmoqdamiz va ularning har tomonlama barkamol bo'lishlari uchun bor kuch va imkoniyatlarni ishga solmoqdamiz. Bu kabi xayrli ishlarni amalga oshirishda Prezidentimizning «Ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog'lom avlodni shakllantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi hamda «2009-2013 yillarda aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom bola tug'ilishi, jismoniy va ma'naviy barkamol avlodni voyaga yetkazish borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish va samaradorligini oshirish

chora-tadbirlari Dasturi to'g'risida»gi qarorlari dasturilamal vazifasini o'tamoqda.

Bugungi o'zbek ayoli ishlab chiqarish, ilf-fan, tadbirkorlik, san'at, sport, hunarmandchilik, qo'yingki, barcha sohalarda muvaffaqiyatlarga erishmoqda, xotin-qizlar davlat va jamoat tashkilotlarida va muassasalarga rahbarlik qilmoqda. Prezidentimiz O'zbekiston xotin-qizlariga 8 mart bayrami bilan tabrik yo'llar ekan, «... ayollarimizning siyosiy-iijtimoiy hayotdagagi o'rni va ta'siri ortib borayotganini davlat hokimiyatining barcha bo'g'inidagi vakillik organlarida 1132 nafar xotin-qiz, jumladan, Oliy Majlisimiz tarkibida 48 nafar senator va deputatlar faoliyat yuritayotgani, qariyb 332 ming ayol siyosiy partiyalarning a'zosi sifatida o'z salohiyatini namoyon qilayotgani, fuqarolik jamiyatining tayanchi bo'lgan nodavlat notijorat tashkilotlarida ularning faol ishtirok etayotganida ko'rish, kuzatish qiyin emas», — deya ta'kidladi.

Ayollarning 13 nafariga «O'zbekiston Qahramoni» unvoni, 64 nafariga «Nihol» mukofoti berilgan bo'lsa, ular Konstitutsion sud tizimida 20 foizni, Oliy sud sohasida 14,6 foizni, ishlab chiqarish tizimida 42,8 foizni, qishloq xo'jaligida qariyb 43 foizni, ta'lim, madaniyat va ilm-fan sohasida 72,9 foizni, sog'liqni saqlash tizimida 75,3 foizni tashkil etadi. Bulardan tashqari, xotin-qizlar tomonidan 300 dan ortiq doktorlik, 3 mingga yaqin nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilingan, hozirgi kunda esa 4 ming nafarga yaqin xotin-qiz ilmiy izlanishlar olib bormoqda. Nufuzli xalqaro instittlarning bergen xulosalariga ko'ra, O'zbekiston dunyodagi ravnoq topgan 125 ta davlat orasida xotin-qizlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va onalikni muhofaza qilish bo'yicha yetakchi o'rnlardan birini egallab turibdi. O'zbekistonning bundan oqilona siyosati YuNISEF tomonidan namunaviy model sifatida e'tirof etilishi ham yurtimizda xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklarning hosilasidir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham xotin-qizlar barcha sohalarda erkaklar bilan teng huquqli ekanligi alohida e'tirof etilgan bo'lib, ularning mehnat qilish, sog'liqni saqlash, nafaqaga chiqish kabi yo'naliishlarda erkaklarga nisbatan birmuncha kengroq imtiyozlarga egaligi qounun yo'li bilan belgilab qo'yilgan. Hukumatimiz tomonidan chiqarilayotgan barcha turdag'i qonunlar, qarorlarda ayol, oila, farzand manfaati hamisha ustuvor bo'lib

kelmoqda. Bu ham O'zbekistonda xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklarning tobora bo'y cho'zib borayotganidan dolalatdir.

Vatanning ertangi kuni, borlig'i, orzu-umidi, ishongan tog'i, yashnagan bog'i, ko'rар ko'zi bo'l mish ayollar, albatta, mo'min-qobil, odobli-axloqli, mehnatsevar, ilmli, ma'rifatli bo'lib yetishishida hamda o'z qarashlariga egalik qilishida, siyosiy va iqtisodiy jihatdan barkamol avlod, buyuk ajdodlarimizning munosib farzandlari sifatida shakllanishida biz, xotin-qizlar jon koytishimiz zarur. Vatan bizdan aql-idrokli, dono va zukko avlodni tarbiyalab berishni talab qilmoqda. Chunki, aql-idrok, ma'naviyat shunday kuchga egaki, u insonga eng og'ir paytlarda ham kuch-quvvat baxshida etadi, qiyinchiliklarni yengib o'tishida yo'lchi yulduz vazifasini o'taydi.

Farzandlarni ma'naviyatli qilib tarbiyalash onaning birinchi navbatdagi vazifasidir. Xalqimiz, «Nima eksang, shuni o'rasan», deganidek farzandimizning yaxshi, yomon, ma'naviyatli yoki ma'naviyatsiz bo'lishi ko'pincha o'zimizga bog'lik. Shu bois ham oilalar, xususan, xotin-qizlar bilan ish olib boruvchi tashkilotlar faoliyatini yanada jonlantirish, ularni amaliy ishlar bilan ko'proq shug'ullanishga da'vat etish lozim.

Madaniyat va shaxs kamoloti

*Dilfuza Xatamova,
Chortoq tumani 13-maktab boshlang'ich ta'llim o'qituvchisi*

Ilmiy rahbar: t.f.n., dots. T.Qozoqov

Madaniyat va shaxs nafaqat mazmunan bir-biriga yaqin bo'lgan, balki shaklan va mazmunan o'zaro mos keluvchi tushunchalardir. Shaxs muayyan madaniy muhitda yashaydi va faoliyat ko'rsatadi. Qolaversa, madaniyatning paydo bo'lishi va rivoji shaxsga bog'liq. Ayni paytda shaxsning kamoloti madaniyatni va unga oid tushunchalarni o'ziga qanchalik singdirishi va buning natijasida munosib avlod bo'lib shakllanishiga bog'liq.

Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy «Baxt-saodatga erishuv haqida» risolasida inson kamolotida jamoaning roli katta ekanligini ta'kidlab shunday deydi: «Kamolotga bir kishining o'zi yolg'iz (birovning yoki ko'pchilikning yordamisiz) erishushi mumkin emas. Har bir insonning tug'ma tabiatida va unga lozim bo'lgan har qanday ish va harakat jarayonida boshqa bir inson yoki ko'pchilik bilan munosabatda

bo'lish, o'zaro aloqa qilish hissiyoti bor, odamzod jinsidan bo'lgan har qanday insonning ahvoli shu: u har qanday kamolotga erishuvida boshqalarning ko'maklashuvlariga va ular bilan birlashishga muhtoj yoki majburdir». Uning fikricha, inson o'z-o'zidan baxtli bo'lolmaydi, kamolotga ham erisholmaydi. «Bu narsa uning harakatlariga, mehnatiga, kasb-hunar egallashiga, bilimiga va fozil jamiyatda yashashiga bog'liq».

Yakka shaxs ijtimoiy turmush va madaniyatga qay tarzda jalb qilinganligigagina emas, balki uning tabiiy imkoniyatlariga, harakatiga, hissiyotiga, aql-idroki muhim ijtimoiy mazmun bilan to'ldirilganligiga va madaniy shakl kasb etganligiga qarab shaxs sifatida qaror topadi.

Madaniyat kishilarga tana a'zolari orqali, tug'ma his-tuyg'u yoki tug'ma iste'dod kabi tabiatan berilmaydi. Har bir shaxs o'zining shaxsiy tajribasi asosida, mustaqil ravishda bevosita tevarak-atrofdagi kishilarning, jamiyatning va o'tgan ajdodlarning to'plagan tajribalarini o'zlashtiradi. Yakka shaxs ijtimoiy amaliyot mahsuli bo'lgan madaniyatni o'zlashtirish bilan birga, unga ta'sir ham etadi. Shaxsning shakllanishi jarayonida moddiy va ma'naviy madaniyatni boyitadi. Shuningdek, inson madaniyat normalariga amal qilgan holda nafaqat tabiatni va jamiyatni, balki shaxsiy «tabiatini» ham o'zgartiradi. Madaniyat shaxsning ichki dunyosi mazmuniga, «ikkinchi tabiatiga» aylanadi.

Shaxsning madaniyat bilan o'zaro munosabati hech qachon mukammal va uyg'un bo'la olmaydi. Ijtimoiy va individual hayot bilan umumiy madaniy tushunchalar bir-biriga mos kelmasligi mumkin. Ammo madaniyat doimo inson hayoti va faoliyati bilan chambarchas bog'liq bo'ladi, madaniyat shaxssiz yashay olmaydi. Lekin voqelikning murakkab, yaxlit birligi sifatida shaxs o'z rivojlanish qonunlariga ega bo'lib, borliqqa nisbatan mustaqildir. U madaniyatni o'zida mujaşşamlashtirgan aniq bir ijtimoiy guruhlarning ma'naviy hayotiga nisbatan boyroq va chuqurroqdir. Madaniyat doimo kadriyatlarning eng yirik zahirasi, tajribalar hazinasi bo'lib qoladi. Insoniyat avlodlari undan foydalanadilar va ayni paytda unga o'z hissalarini qo'shib boyitib boradilar.

Shaxs va madaniyat o'rtasidagi munosabat, yuqorida aytib o'tganimizdek, murakkab jarayon hisoblanadi. Shaxsning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishiga imkon yaratuvchi ruhits va ma'naviy

dunyoqarashi ijobjiy va salbiy munosabatlari yig'indisidan tashkil topadi. Insonga ishchanlik, fidoiylik, matonat, o'tkiz zehn kabi ijobjiy fazilatlar bilan birga kaltafaxmlik, yalqovlik, shafqatsizlik, inson manfaatlarini to'g'ri tushuna olmaslik, haqiqiy qadriyatlarni soxtasidan ajrata bilmaslik illatlari ham xosdir. Shuning uchun madaniyatni nafaqat qadrlash va saqlash, balki unga tanqidiy munosabatda bo'lism ham talab etiladi.

Yuqorida qayd etilgan sabablar ta'sirida muayyan ishlab chiqarish usuli hukmronligi sharoitidagi tarixan tarkib topgan ijtimoiy va madaniy muhitda jamiyat bilan shaxs o'rtaida nisbatan o'zgaruvchan muvozanat bo'ladi. Bu muvozanatni hosil bo'lismida madaniyatning ishtiroki salmoklidir.

Madaniyatilik – kamtarlik, halollik, rostgo'ylik, saxovatpeshalik, insonparvarlik, yaxshilik, saxiylik kabi insoniy fazilatlarga ega bo'lism, axloqiy qoidalarga to'la amal qilish, o'z millati hamda boshqa xalqlarni hurmat qilishni o'zlashtirishdir.

Etarli bilimga ega bo'limgan holda barcha bilimlar va narsalar to'g'risida fikr bildiruvchi kishi yuzaki ishqiboz (diletant)dir. Yuzaki ishqibozlik madaniyatilikning yetishmovchilig belgisi bo'lib, chinakam madaniyatilik va ziyolilikka aloqasi yo'qdir.

Tarbiyalilik ziyolilikning asosiy belgisi bo'lib, uning umumiyligi madaniy saviyasi ko'pincha nutqda aks etadi. Madaniy nutq, avvalo, «to'g'ri nutq» demakdir. Madaniyatli kishi ifodali va chiroyli nutq orqali o'z fikrini bayon qiladi. Ziyolining estetik didi baland bo'ladi. U san'at asarlarining go'zalligi tug'risidagina emas, balki kishilarning, tabiatning va jamiyatning go'zalligi haqida fikr yuritishga, qo'pollik va adolatsizlikka qarshi turib, uni bartaraf qilishga qodir bo'ladi. Hamma narsada me'yor va uyg'unlik tuyg'usi ziyolilikniig asosiy hisusiyatidir.

Ziyolilik bilim va tarbiya orqali kamol topadi. Ziyolilik tushunchasiga, umumiyligi madaniyatdan tashqari, nozikdidililik, umuman, hayotga yuksak ong va ijtimoiy faoliy bilan munosabatda bo'lism ham kiradi. Demak, «ziyolilik» faqat aqliy mehnat kishisiga taalluqli emas, balki iste'dodi keng qamrovli, oliyjanob fazilatlarga ega, ma'naviyati yuksak har bir odamga nisbatan qo'llash mumkin.

Ziyoli - intellektual fikrlash qobiliyati yuksak shaxs, uning madaniyatli odamdan farqi shuki, u jamiyat va millat taqdiriga ma'naviy jihatdan javobgardir.

Madaniyat tushunchasi

Abdumutal Qurbonov,

Namangan tumani 14-maktab boshlang'ich ta'slim o'qituvchisi

Ilmiy rahbar: t.f.n., dots. T.Qozoqov

Madaniyat, xususan milliy madaniyatlar rivoji o'bekтив jarayon. Bu jarayon o'z ichki qonuniyatlari asosida kechaveradi, Lekin, bu hodisa jamiyatdagи boshqa hodisalardan ayroholda emas, bog'liqliklikda, aloqadorlikda ruy beradi. Madaniyat tarraqiyotiga o'z ta'sirini o'tkazayotgan bundan hodisa bugungi kunda globallashuv jarayonidir.

Globallashuv (frantsuz Global - eng umumiy) atamasi birinchi bor 1983 yilda amerikalik olim T. Levitt tomonidan «Garvard biznes rev'yu» jurnalida Transmilliy korporatsiyalar (TIK) ishlab chiqaradigan mahsulot bozorlarining birlashuv jarayoni sifatida tilga olingan edi. Bu hodisani iqtisodchilar-moliyaviy globallashuv, TMK ning shakllanishi, jahon savdo aloqalarining mintaqalashuvi va jadallahuvi, siyosatchilar-transmilliy lashuv jarayonini tezlashuvi dunyo mamlakatlarining o'zaro bog'liqligining kuchayishi sifatida talqin etsalar, sotsiologlar madaniyatning unversallahuvi ta'sirida turli mamlakat va mintaqqa halqlari turmush tarzini bir xillashuvi, deb izohlamoqdalar

“Falsafa” qomusiy lug'atida-globallashuv - o'z ko'lami, qamrovi jihatidan xilma-xil va butun yer shariga, insoniyatga dahldor bo'lган muammolardir, deb tavsiflanadi³⁰. Bu avvallo, tabiat va inson o'rtasidagi munosabatlar muvozanati buzilishi - yadro urushi xavfi, ozon muammosi ekologiya, aholining nazoratisiz migratsiyasi, xomashyo taqchilligi, ishsizlik, bedavo kasalliklarni ko'payishi, texnik falokatlar turli ko'rinishdagi zo'ravonlik va bosqinchilik, jinoyat va giyohvandlik, halqaro terrorizm, ma'naviy – axloqiy tubanlashuv, tanazzul ko'rinishlari. Bu muammolarni har biriga bugun umuminsoniyat, kelajak nazaridan qaramoq, umumiy manfaatlar yo'lida ularning yechimini topmoq lozim bo'layapti. Keyin kech bo'ladi. O'z vaqtida Orolni qurishiga mintaqqa muammosi, deb qaraldi va unga yetarli e'tibor berilmadi. Bugun undan ko'tarilgan tuzlar Antiartidagacha yetib bormoqda. Kurrai zamindagi o'rmon, yoqilg'i, ichimlik, suv zahiralari tejamsiz foydalanilsa qachongacha yetadi?

³⁰ Falsafa, qomusiy lug'at. Toshkent- 2004 yil, 95 bet

Xususan, insoniylik qiyofasidan chiqa boshlagan ma'naviy – axloqiy hayot ko'rinishlari: giyohvandlik, fohishabozlik, bir jinsdagi jinslar nikohi, odam savdosi, behayo va bepara yashash tarzi Odamzod taqdirining o'zini gumonlashtirib qo'ymoqda.

Demak, globallashuv jarayoni – iqtisodiy – texnik taraqqiyot, boshqaruv tizimi, siyosiy – huquqiy qadriyatlar, turmush tarzining barcha jabhalarini qamrab olayotgan texnologik jarayongina emas, turli kuch guruhlar manfaati nazaridan, xilma- xil vositalar yordamida ma'naviy - axloqiy ta'sir, g'oyaviy ustvorlikka erishishga intilish hamdir.

Bir millat, mamlakat erishgan yutuq kashfiyotlarga boshqalari ham kezi kelib erishishi, yohud uni jahoniy kadriyat tarzida o'zlashtirilishi tadrijiy xol. Lekin, u tabiiy, ijtimoiy ehtiyoj mezonida bo'lGANI maql va maqsadga muvofiq. G'azal – Sharq, bobolarimiz mulki bo'lGANligi ayon. Ammo, bu bebaho mulk ta'siridan Geyne, Gyote, Pushkin, Yeseninlar chetda qolmadı. Bobomiz Beruniy, Gomer merosni, lotin falsafasi javohirlarini sanskritdeq egalladi. Bu hali globallashuv emas edi.

Ijtimoiy taraqqiyot ko'lamenti Misr ehromlariga mengzasak, bugungi avlod uning eng yuqori bosqichlarida turibdi va turli mintaqalardagi xalqlarning siyosiy – huquqiy, ijtimoiy – iqtisodiy, moddiy – texnik, madaniy – ma'naviy jihatlarida tafovutlardan ko'ra umumiyl belgilar, tomonlar ustvorlik qilmoqda. Bu jarayon cheksiz, chegarasiz tarzda jadallahshmoqda. Globallashuv uchun geografik, mintaqaviy, siyosiy – davlat sarhadlari mavjud emas. U rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarni bir yo'sinda o'z girdobiga olaveradi. Biroq, uning oqibatlari, ta'sir ko'lami rivojlanishning turli bosqichlarida turgan mintaqqa, xalqlar uchun bir xil kechmaydi. Dunyoning 70 % xududida dollari aylanayotgan AQSh, yiliga yalpi ichki mahsulotni 11-13 % hajmida berayotgan Xitoy bilan endigina sivilizatsiya yo'liga o'tgan Afrika, Lotin Amerikasi mamalakatlari uchun uning ta'siri, oqibatlari turlicha. Ayniqsa, hali o'zini o'nglab ulgurmagan – rivojlanayotgan mamlakatlar uchun uning natijasi salbiyligi, shubhasiz. Moddiy – texnik yordam, molyaviy ko'mak, texnika va texnologiya yutuqlari, jahon tajribasidan foydalanish, bu mamlakatlarni rivojlanishiga madad – ijobiy hodisa. Tor manfaatlar negizidagi moddiy-texnik yordam va bitimlar kichik davlatlarni rivojlanishni oldingi saflarida borayotgan davlatlarga qaramlikka olib

kelmasligi lozim. Bir tomonlama iqtisodiy ustunlik, harbiy-siyosiy zo'ravonlik (Afg'oniston va Iroqdagagi "demokratik" tartiblar) millat ma'naviyati va madaniyatining yemirilishi (Iroqdagagi asriy obidalar, kutubxona, muzeylarni vayron etilishi, yodgorliklarni talon – taroj etilishi) tub joy aholi "milliyligi"ning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Afrika, Lotin Amerikasidagi qator malakatlarning teleradio dasturlari, kitob, gazeta nashrlari asosan xorij til va alifbosida yo'lga qo'yilgan. Mazkur yurt odamlari o'z milliy tili, udum – an'analaridan mahrumlik chegarasida. Bu degani – Yevropa ittifoqimi yohud boshqa biron-bir iqtisodiy – siyosiy uyushma milliyatga daxl etmasligi lozim. Ta'kidlaganidek, iqtisodiy – texnik xamkorlik, invistitsiyalar oz sonli millatlarning umumiyligi rivojiga turtki berar, ammo ma'naviy kemtiklikka yuz tutsa bu millatning o'zligini yo'qolishiga olib keladi. Ma'naviy qaramlik ertami – kech har qanday mustaqillikni yo'qqa chiqaradi.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda oilaning roli

*Azimjonov Ulug'bek,
TATU Farg'ona filiali 3-kurs talabasi.
Ilmiy rahbar: t.f.n., dots. T.Qozoqov*

Sog'lom turmush tarzi tushunchasi - ko'pqirrali, murakkab tushuncha. Uning murakkabligi nafakat mohiyatining xususiyatlari bilan, balki uni shakllantiruvchi, unga ta'sir qiluvchi omillarning xilma-xilligi bilan **ham** belgilanadi. Ushbu omillarni ikkita yirik turkumga birlashtirishimiz mumkin. Bu makro va mikro omillardir³¹. Mikro omil. - oila, do'stlar davrasi va h.k. Makro omil esa oiladan tashqarida dinamik o'zgaruvchan muhit sifatida ta'sir etuvchi omillardir.

Jamiyatni sog'lomlashtirish tamoyillari asosida olib borilayotgan islohotlar yurtimizda ijtimoiy sog'lom muhitning sog'lom turmush tarzi hamda barkamol insonlarni, ayniksa sog'lom yosh avlodni shakllantirishni taqozo etmoqda. Jamiyatimiz a'zosi ijtimoiy mavjudot

³¹ Shirmatova G. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning ma'naviy – psixologik omillari. // "Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning ilmiy-uslubiy asoslari" mavzusidagi ilmiy-amaliy va uslubiy konferentsiya materiallari. O'zRFA Falsafa va huquq instituti. 2007. 12 iyun.-Toshkent: 2007. -15-bet

sifatida uning kamoloti uchun zarur muhitda yashaydi, faoliyag ko'rsatadi va kamol topadi. O'zbek oilasi azaldan soglon turmush tarzi, muomala madaniyatini saqlab kelgan. Bu o'z navbatida ota-onalari farzandlar munosabatlari hamda uy tutish, o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish, ro'zg'orni saranjom tutish, ozodaliq tamoyillarida o'z aksini topgan. Ma'naviy yetuk va barkamol jamiyat mustaqkam, baquvvat, turmush tarzi sog'lom, siyosiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonida adolatli, fuqarolari esa maksad va manfaatiga suyangan holda taraqkiy etadi.

Oila yangi insonni voyaga yetkazadigan muqaddas qo'rg'on bo'lgani uchun jamiyatdagi sog'lom turmush tarzini shakllantirishda muhim o'rinni tutadi. Zero, sog'lom avlodning sur'ati ham, siyrati ham go'zal bo'lmos'i kerak. Avvalambor tirik mavjudotning ulug' vakili sifatida sog'-salomat, to'rt muchasi but, aql-zakovati teran, ilmu bilimda zukko, hayot tarzi ko'rkan, xislat, fazilatlarga boy barkamol, yangi asr talablariga mos inson bo'lmos'i lozim. Oila deb atalmish barchamizga juda yaqin makonimiz -salomatligimizning ham dastlabki qo'rg'oni hisoblanadi³². Oilada sog'lom muxitni yaratish, farzand tarbiyasi, burch va mas'uliyat kabi mukaddas tushunchalarni bolalar ongiga singdirib borish eng avvalo ayol zimmasiga tushadi.

Sog'lom turmush tarzi madaniyati, avvalo shaxsnинг fikrlash tarzidan kelib chiqadi, ya'ni tafakkuriga bog'liqidir. Inson uchun zarur bo'lgan xuzur-halovat, osoyishtalik, ahillik, g'amxo'rlnk, izzat-hurmat, qadr-qimmat, samimiyl mehr-oqibat, muruvvat, xullas, oljanob insoniy tuyg'u va fazilatlar, inson kamoloti uning axloqan pokligi, jismonan salomatligi va ma'naviy yetukligidan boshlanadi. Ayniksa, oilaning sharqona ildizlaridan oziqlanib, hozirgi mustaqil elimiz farzandlari davr va hayot talabiga monand komil inson bo'lib yetishadi. Oiladan boshlangan mehr-muruvvat, oqibatlilik, tinchlik-osoysishtalik, qadr-qimmat, insonparvarlik munosabatlari qarindoshurug', ko'shni-mahalla, jamoatchilik o'rtasidagi munosabatlarda davom etadi, unadi, o'sadi, meva beradi. Bular esa oiladagi sog'lom muhit, ma'naviy, ruhiy va axloqiy tamoyil hamda me'yorlar asosida

³² Karimova V.M. "Sog'lom turmush tarzini shakllantirishning ilmiy-uslubiy asoslari" mavzusidagi ilmiy-amaliy va uslubiy konferentsiya materiallari. O'zRFA Falsafa va huquq instituti. 2007 yil, 12 iyun.-Toshkent: Falsafa va huquq instituti. 2007.

shakllanadi, ijtimoiy rivojlanish jarayonida yangi mazmun-mohiyat kasb etib takomillashib boradi.

Insonlarning sog'lom turmush tarziga rioya etishlariga to'siq bo'luchchi omillardan biri - odamlarda sog'lom yashashga nisbatan sabab (motiv) kuchsiz ekanligi. Ya'ni, ko'pchilikda sahar turib badan tarbiya bilan shug'ullanish istagi tonggi uyqudan ko'ra kuchsiz keladi. Ayrim odamlar esa o'zlarining salomatligiga nisbatan haddan tashqari optimistik qaraydilar. Ya'ni, to'rt muchasi sog' tug'ilgan farzandini ona kasal bo'lmaydi, deb o'ylaydi va ba'zan ehtiyyotsizlik qilib ko'yadi. Sog'lom odamga, "Sog'lig'ingizni saqlang" desangiz, u bunga o'ziga xos kinoya bilan qaraydi. Darvoqe, sog'lom turmush tarziga bo'lgan ilk tasavvurlar oila ostonasidayok shakllantiriladi. Oilada sog'lom muhit, adolatli munosabat, o'zaro izzat-hurmat hukm sursa, bu oila hamjihat, totuv va sog'lom iqlimga ega — muqaddas makon vazifasini o'tay oladi. Oila ostonasidan Vatan, inson kamolati, avlod kelajagi boshlanadi. Zero, oila sog'lom, uning ma'naviy-axloqiy asosi mustahkam bo'lsa, demak jamiyatdagi axloqiy muhit ham sog'lom bo'ladi. Aksincha, oiladagi nosog'lom muhit juda ko'p illatlar qatori odamning o'z salomatligi holatiga bo'lgan munosabatini salbiy tomonga o'zgartirib yuborishi mumkin. Bunday o'zgarishlarning ham turlicha sabablari bor. Masalan, agar oila a'zolari ma'lum sog'lom turmush tarziga o'rgangan bo'lsalar ham, biror sabab bilan shu oilada nizo, janjal kelib chiqsa, bu holat barcha oila a'zolari tafakkurining salbiy tomonga o'zgarishiga olib keladi³³. Shuning uchun jamiyatni yangilash, poklash va bosqichma-boskich iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy holatga o'tishida oila alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Oila - jamiyat rivoji, uning turmush tarzi va ma'naviyat dunyosi bilan bog'liq uyushmadir. O'zbekiston istiqlolining muhim vazifalaridan biri xalqning turmush madaniyatini ko'tarish va ma'naviy-axloqiy dunyosini kamol toptirishdan iboratdir. Madaniyat va ma'naviyat uchun kurash yangicha tafakkur, dunyoqarash, iymon-e'tiqod uchun kurashdir, ya'ni davr talabiga mos barkamol inson uchun kurashdir. Istiqlol avlodni uchun kurash aholining milliy tarixiy turmush va

³³ Karimova V.M. // "Sog'lom turmush turmush tarzini shakllantirishning ilmiy-uslubiy asoslari" mavzusidagi ilmiy-amaliy va uslubiy konferentsiya materiallari. Toshkent: 2007, 12 iyun

tafakkur tarzidan, xalk an'analari va urf-odatlaridan boshlanadi. Bu kadriyatlar jamiyatning negizi sanalmish oilada shakllanadi va mujassamlashadi. Mustaqillik tamoyillari va axloqiy me'yorlar asosida rivojlanib borayotgan oilalarning eng muhim vazifalaridan - sog'lom turmush tarzi va axloqiy munosabat madaniyatini *oila* a'zolari o'rtasida ochiq ko'ngillik, xushfe'llik, rostgo'ylik, muruvvat, oriyat, pok-halolliq, iboyu - latofat, iffatu - nazokat, kamtarlik, bosiklik kabi xislatlarni *kundalik* axloq me'yoriga aylantirish lozim. Buning uchun aql va idrokni ishga solish kerak. Chunki, aql va idrok insonning piri-komili, murshididir! «Ruh ishlovchi, aql boshlovchidir», - deydi dono xalqimiz. Uni axloqiy burch, ijtimoiy majburiyat, ichki e'tiqodga aylantirsak — fazilatlar hayot qoidasi, faoliyati va munosabatlar mezoni bo'lib xizmat kiladn. Chunki burchni anglash, vijdonni pok tutish, oriyatga amal qilish, qadr-qimmat, insonparvarlik, xushmuomalalik, mehnat, kasb-hunarga hurmat, oila sha'ni-obro'sini saqlash kabi xis-tuyg'ularni uyg'otadi.

Ta'lim islohotlari

Abdujabbor Qambarov,
Nam DU katta o'qituvchisi.

Mustaqillikning o'tgan davri – tarix uchun bir lahma, bamisol osmon kengliklarida chaqnagan chaqin kabidir. Biroq istiqlolning murakkab, dolg'alarga to'la, ziddiyatli bir paytida xalqimiz boy ma'naviyatini, mislsiz iqtidorini, beqiyos irodasini namoyish qila oldi. Ayni ana shu muddatda mamlakatimizda amalga oshirilgan ishlar salmog'i va ko'lami bilan bir necha o'n yilliklarga teng keladi.

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq mamlakatda tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash, iqtisodiy barqarorlikka erishish, sobiq ittifoq bir-biriga ulab tashlaganmoddiy zanjirlar uzilgach, ularning o'rnini qoplaydigan yangi imkoniyatlarni izlab topish lozim edi. eng mushkul paytlarda aholini ijtimoiy muhofazalash bilan birga jahon hamjamiyatiga yo'l qidirish, dunyonи o'rganish, o'z imkoniyatlarini olam ahliga ko'rsatish singari tajribamizda ko'rilmagan, mashaqqatli vazifalarni ham uddalashi kerak edi. Ma'lumki, mustaqil taraqqiyot o'z qobig'iga o'ralib yashash emas, aksincha, jahon andozalariga mos ravishda qadam tashlash, dunyodagi rivojlangan, obro'li mamlakatlar

bilan tengma-teng turib gaplashish, o`z mavqeい va nufuzini topa bilish kabi og`ir masalalar yechimini ham taqozo etar edi.

O`zbekiston mustaqil davlat sifatida o`z ichki va tashqi siyosatini amalga oshira boshlagan davrdayoq oliv ta`limga ham alohida e`tibor qaratib, uni siyosatning ustivor yo`nalishlaridan biri deb bildi. Chunki, o`z oldiga rivojlanish, taraqqiyotga erishish kabi buyuk maqsadni qo`ygan har qanday Inson singari davlat ham busiz o`zining milliy taraqqiyotini, jamiyatda yashayotgan insonlar hayotining gullab-yashnashini, ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayotni tasavvur qila olmaydi.

Oliy o`quv yurtlarining dastlabki ko`rinishlari bo`lmish falsafa maktablari esa miloddan avvalgi 5–3 asrlarda Afina va Rimda vujudga keldi. Musulmon Sharqida esa islam qabul qilinib, shiddat bilan yoyilgan 10 asrga kelib arab xalifaligiga qarashli Iroq, Suriya, Misr mamlakatlarida Oliy o`quv yurtlarining madrasa shakli qaror topgan. Musulmon Renessansining yuzaga chiqishida madrasa ta`limi tizimi muhim ahamiyatga ega bo`lgan³⁴.

Mustaqillikning ilk yillardan oliy ta`lim sohasiga oid davlat siyosatini belgilab bergen qonundan, hozirgi amaldagi qonungacha bo`lgan davrning o`zida mamlakatimizning oliy ta`lim sohasida muhim ishlar amalga oshirildi. Buni hatto nufuzli hisoblanadigan Butunjahon Banki ham e`tirof etganligi ma`lum. Ma`lumotlardan shu narsani anglash mumkinki, O`zbekiston Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi mamlakatlari ichida ta`limga eng katta e`tibor qaratgan davlatdir. Buni oliy ta`lim sohasidagi davlat olib borayotgan siyosatdan ham anglab olishimiz mumkin.

Respublika oliy ta`lim tizimidagi o`zgarishlar, oliy o`quv yurtlarini dunyodagi tegishli ta`lim sohalari bilan yaqinlashtiradi. Ta`lim sohasidagi har bir yutuq global o`zgarishlarga o`zining ta`sirini ko`rsatishi mumkin. Lekin, milliy ta`lim tizimi har bir xalqning milliy-ma`naviy qadriyatlaridan uzulib qolmasligi uchun, yopsharda milliy g`oyani chuqur o`rgatish, ularda o`ziga bo`lgan ishonch va e`tiqodni mustahkamlash, har bir professor-o`qituvchi kafedra, dekanat, fakul`tetlarning, oliy ta`lim muassasasi ilmiy jamoatchiligining muqadtsas burchi bo`lmog`i lozim.

³⁴ Abdullaev Yu. Xorijiy oliy ... – B. 24.

Shuningdek, milliy oliv ta'lim bilan bog'liq o'zgarishlar davlat siyosati bilan bog'liq holda, milliy manfaatlarga xizmat qilmoqda. Mamlakatda erkin va farovon hayot qurilishiga qaratilgan milliy g'oya maqsadlari bilan mushtarak holda tegishli shart-sharoitlar yaratildi.

Ta'lim tizimida yuqori, oliv malakali mutaxassislar tayyorlanadi. Ta'lim o'quv yurtlari tomonidan xalq xo'jaligi, fan va madaniyatning turli sohalari bo'yicha oliv malakali mutaxassis bo'lishni istagan va tegishli talablarni bajargan o'rta maxsus yoki kasb-hunar ta'limini olgan kishilarga ilmiy-nazariy bilim berish hamda muayyan ko'nikmalar shakllantirish yo'li bilan amalgalashiriladi.

Oliv ta'lim jarayonida talabaga oliv ma'lumot beriladi. Oliy ma'lumot tushunchasi muayyan ixtisoslik bo'yicha mutaxassis oldida turgan nazariy va amaliy muammolarni mustaqil hal qilish imkonini beradigan darajadagi bilim va malakalar yig'indisini anglatadi.

Turizm to'g'risida tushuncha va uning turlari

Xabibaxon Mirzahmedova,

Uchi tumani 28-MTM kichik guruhi tarbiyachisi

Sayohat va turizm — biznesning bir-biriga aloqador sohalar majmuyi bo'lib, ular sayohatchilarga u yoki bu tarzda xizmat qiladi. Bu ishda sayohatchilar agentligining muhimligi barchaga birday ayon. Bevosita bu ishga aviakompaniyalar ham jalb qilinadi. Shuningdek, mashina ijarasi, temiryo'llar, avtobus bosib o'tadigan yo'llari, mehmonxona va restoranlar xizmatlari ham muhimdir. Ushbu guruhning jami turizm tuzilmasinini tashkil etadi. Bunga qo'shimcha, xizmat ko'rsatish rivojini ta'minlaydigan moliyaviy tizimlar turistlami kredit kartochkasi bilan ta'minlaydi. Ta'minlovchilar turistlar uchun muhim bo'lgan ishlarni bajaradilar: mehmonxonada nomerlarni band qilib qo'yish, ya'nini bronlash, o'yin-kulgi, oziq-ovqat va h.k.

O'zbekiston Prezidenti tarixiy xotira, milliy ma'naviyat haqida o'z maqola va risolalarida ko'plab fikrlarni bildirib o'tdi. Mazkur hislatlarning kamol topishi va rivojlanishida shubhasiz turizm beqiyos ahamiyat kasb etadi. Webster tuzgan lug'atda "turist" so'ziga "zavq olish yoki qizi-quvchanlik yuzasidan sayohat qiluvchi kishi" deb ta'rif berilsa, «XIV» asrdagi lug'atda esa qiziqarliroq ma'lumot bor, ya'ni: "zavq olish uchun, qiladigan ishi bo'limgani uchun, hattoki

keyinchalik o'zaro maqtanib yurish uchun sayohat qiluvchi g'aroyib odamlar" degan ta'rif mavjud.³⁵

Turizmni boshlang'ich va nisbatan aniqroq belgilash Bern universiteti professorlari Gunziker va Krapaf (Shvetsariya) tomonidan amalga oshirildi va keyinroq turizm ilmiy ekspertlari Xalqaro assotsiatsiyasi tomonidan qabul qilindi. Olimlar turizmni hodisa sifatida va sayohat chog'ida vujudga keladigan o'zaro munosabatlar deb qarash kerak deb hisoblaydilar. U hali doimiy bo'lishga olib kelgani yo'q va biror-bir foyda olish bilan bog'liq emas.

Ekoturizm – shaxslarning dam olish, sport bilan shug'ullanish, sog'lomlashish, ma'rifiy-ma'naviy (umumtarbiyaviy) ishlarni amalga oshirish kabi maqsadda hamda ekologik vazifalarni bajarish uchun doimiy yashash joylaridan chiqib, atrof tabiatga qiladigan sayohatlari. Bundan kelib chiqqan tarzda Ekoturizmning maqsadi – turizm orqali hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishni. Davlat va jamiyatning ekoturistik ehtiyojini qondirish uchun milliy miqyosda quyidagi vazifalar bajarilishi³⁶ talab etiladi: ekoturizmning yagona, umume'tirof etilgan ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqish; aholining ekologik ongi va madaniyatini ekoturizm orqali o'stirish yo'llarini izlab topish; ekoturizm yo'nalishidagi ta'lim va tarbiyani yo'lga qo'yish; ekoturizm bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash; hududning ekoturistik imkoniyatlarini baholash, ro'yxatga olish, monitoringini olib borish va h.k.

Turizm ta'rifini to'laroq belgilash uchun BTT turizm turlari bo'yicha quyidagi tasnif (tasnif)ni kiritishni taklif qildi: ichki, kirish va chiqish turizmi³⁷.

Ichki turizm — fuqarolarning aniq bir mamlakatda doimo yashagan holda, o'sha mamlakat milliy chegarasi doirasida dam olish, dunyoni bilishga bo'lgan qiziqishini qoniqtirish, sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanish va boshqa turistik maqsadlarni amalga oshirish uchun yaqtinchalik chiqishidir. Bu turizm turi mamlakatga valutani olib kelmaydi. Shunday bo'lsa-da, mamlakat mintaqalari o'rtasida

³⁵ Kamilova F. Kamilov.Z. Halqaro turizm bozori.-Toshkent, 2011.-B.7b.

³⁶ «O'zbekiston Respublikasida ekologik turizmni rivojlantirish Kontseptsiyasi» // Ekoliya xabarnomasi.3-son, 2007.-B. 8.

³⁷ Komilova F.K. Turizm marketingi. O'quv qo'llanma. - Toshkent: Uzinkomsentr, 2003.-B.175.

daromadlarning taqsimlanishiga ta'sir etib, iqtisodiyotning rivojlanishiga turtki beradi.

Turizm milliy ma'muriy tashkilotlar tomonidan iqtisodiyotni rivojlantirish omili sifatida qaraladi. Ko'p hollarda ehtimol tutilgan salbiy oqibatlar (bevosita va bilvosita zararlar) unda hisobga olinmaydi.

Turizm iqtisodiyotidagi samaradorlikning o'sishini xizmat ko'rsatilgan har bir turistdan o'rtacha olinayotgan daromadni hisoblab topish orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, Respublikamizda turizmdan olinayotgan daromadlar (daromadlar so'mda keltirilgan bo'lsa-da, uning ichida chet el valutasida olingen daromadlar ham davlat kursi asosida so'mga aylantirib keltirilgan) yil sayin oshib bormoqda. Shuningdek, xizmat ko'rsatilgan har bir mijozdan olinayotgan daromadlar ham asosan o'sib bordi.

Tarixiy tafakkur

Saida Isoqova,

To'raqo'rg'on tumani 11-maktab boshlang'ich ta'lim o'qituvchisi

Ilmiy rahbar: t.f.n., dots. T.Qozoqov

Mamlakatni demokratik asoslarda qayta qurish va jamiyatda ma'nnaviy-axloqiy muhitni sog'lomlashtirish – ko'p qirrali jarayondir. Bunda ta'lim-tarbiya tizimlarining o'rni, ahamiyati, shubhasiz, juda katta. O'zining kundalik tirikchilik tashvishlaridan ortmay qolgan, milliy-tarixiy qadriyatlaridan, urf-odatlari va qadimiy an'analaridan deyarli begonalashgan, tor ixtisoslik doirasida fikr yuritish va faoliyat ko'rsatishdan chiqa olmagan, erkin va ijodiy fikr yuritishdan mahrum etilgan «sovet kishisi»ning ongi va dunyoqarashini o'zgartirish, qalbiga, ruhiga milliy va umuminsoniy qadriyatlar nurini singdirish, uning bugungi taraqqiy etayotgan madaniy olam, erkin va ilg'or fikrllovchi insonlar darajasida faoliyat ko'rsatishi uchun shart-sharoitlar yaratishda ta'lim-tarbiya tizimlari oldida katta va keng miqqyosli vazifalar turibdi. Bu, avvalo, yangi davr talablariga to'la javob beradigan yuqori malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlashdir. Ma'lumki, xalqimiz tarixining buyukligi, avvalo, ma'naviyati va ma'rifatining yuksakligi bilan belgilanadi. Xorazmiy, Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sinov, Imom Buxoriy,

Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz insoniyat taraqqiyotiga, xususan ilmfan, ma`naviyat va ma`rifatning yuksalishiga ulkan hissa qo`shgan. Temuriylar, Boburiylar tomonidan yaratilgan buyuk sultanatlar, ular rahnamoligida barpo etilgan muhtasham tarixiy obidalar bugun ham xalqimiz daholarining yorqin namunalari sifatida dunyo ahlini hayratga solib kelmoqda.

Xalqimiz daxolari yaratgan yuzlab badiiy asarlar jahon adabiyotining tengsiz durdonalari sifatida insoniyatning ma`naviy mulkiga aylangan. Xullas, o`zbek xalqi ma`naviyatini yuksaklikka ko`targan misollarning chek chegarasi yo`q. Ular vatandoshlarimizning dunyoqarashi, fe`latvori, tafakkuri va tiynatida, urfodatlari, an`alari va udumlarida o`z ifodasini topgan. Jannatmonand yurtimizga yovuz maqsadlar bilan kelgan bosqinchilar, mustamlakachilar bunday yuksak ma`naviyat oldida o`zlarini yovvoyi his qilgan va vahshiylarcha go`zal obidalarni vayron etgan, beba ho kitoblarni o`tda yoqqan, ilm-fan, ma`naviyat va ma`rifat taraqqiyotini bo`g`ishga uringan. Ular tomonidan mingminglab ziyolilar, yozuvchilar, san`atkorlar qatag`on qilingan, tarixiy osori atiqalarimiz, boyliklarimiz shafqatsizlarcha talangan. Bu mudhish jarayon to O`zbekiston mustaqillikka erishgunga qadar davom etdi.

Faqat mustaqillik sharofati bilangina minglab yurtdoshlarimiz haj ibodatlarini eminerkin ado etish huquqiga ega bo`ldi. Sovet davrida muqaddas haj safariga yiliga birikki kishi borgan bo`lsa, hozirgi kunda kelib yiliga 4 mingdan ortiq vatandoshlarimiz hajga borib kelmoqdalar.

Bizning vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo`lganini butun jahon e`tirof etadi. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan buyuk allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar etishib chiqqan. Muallif boshqa o`rinlarda Shiroq, Spitamen, Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Ahmad Farg`oni, Muhammad Xorazmiy, imom al-Buxoriy, imom at-Termiziyy, Beruniy, Ibn Sino, al-Moturudiy, Burxoniddin Marg`iloniy, Pahlavon Mahmud, Ahmad Yassaviy, Hakim otaning shogirdi Zangi ota, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Jamshid Koshiy, Abdulkoliq G`ijduvoniy, Bahouddin Naqshband, Alisher Navoiy, Nasafiylarning tabarruk nomlarini, hayoti va ijodini chuqur hurmat-ehtirom bilan tilga oladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining qo'lga kiritilishi tariximizni tubdan isloh 3'ilish, mavjud birlamchi manbalarga tayangan holda xolisona va haqqoniy,adolat hamda tarixiylik nuqtai nazaridan o'rghanish va o'qitish imkonini berdi. Yurtimiz fuqarolari O'zbekistonning har qanday masjuradan xoli bo'lgan hamda tahlillarga asoslangan haqqoniy tarixini o'rghanishi va undan saboq olishi davr taqozosiga aylandi.

Bugungi kunda xalqning, ayniqsa, yoshlarning ma'naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish borasidagi ishlar davlatning oldida turgan muhim vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda. Ma'naviyat, ma'naviy barkamollik shundaygina kishi ruhiga kirib qolmaydi. Unga har kuni va har soatda tinmay sabr-bardosh bilan mehnat qilish orqali etishish mumkin. Bu xayrli ishda O'zbekiston tarixini o'rghanishning o'rni beqiyosdir.

O'tmisht shunday boy tarixiy tajriba manbaidirki, odamlar unda o'rghanadilar, tajribaga ega bo'ladilar va undan ilhom oladilar. Hozirgi kunda tarixni bilish kundalik nazariy va amaliy vazifalar echimini topishda zaruriy vosita hisoblanadi.

Jamiyat hayotida mahallaning o'rni

Yulduzzon Sotiboldiyeva,

Chortoq tumani 7-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

O'zbekiston bozor munosabatlariiga o'tish, huquqiy demokratik davlat qurish, xo'jalikning barcha sohalarida keng ko'lamli islohotlar o'tkazish, yangicha fikrlaydigan, mehnatga yangicha munosabat bilan qaraydigan yoshlarni tarbiyalash, milliy-ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash xalqimiz uchun farovon turmush sharoitini yaratish yo'lidan bormoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, butun mamlakat hududlari -shahar, tuman, qishloq, ovul va mahallalarda yangi turmush tarzini shakllantirish-da, jamiyatda shaxsning rolini oshirishda, o'zini o'zi idora qila olish fazilatlarini kuchaytirishda, o'z hayotini o'zi tashkil etish tamoyillarini kundalik faoliyatga aylantirishda mahalla imkoniyatlaridan foydalanish zarur edi. Respublikani tubdan isloh qilish jarayonlari fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish mahalliy organlari faoliyatini o'zgartirishni, uni milliy an'analar va jahon tajribalari asosida tashkil etishni taqozo etadi.

Inson bir – biridan ma’naviy ozuqa olib yashaydi. U bir o’zi yakka yolg’iz yashay olmaydi. U o’zining ongi, tafakkuri, ma’naviy olami bilan bir – biridan fark qiladi va bir – biriga ta’sir qilib yashaydi. Er yuzida odamlar azal – azaldan jamoa bo`lib yashashgan. Ayniqsa, Sharqda odamlarni bir – biriga yaqinlashtiruvchi, o’zaro yaqin muloqatda bo`lib yashashga chorlovchi maskan - bu mahalladir. Inson ma’naviyatida kemtiklik bo`lsa, uning o’rnini hech narsa bilan to`ldirib bo`lmaydi. Inson ma’naviyatini boyituvchi, unga hamisha ma’naviy ozuqa, tarbiya beruvchi maskan sifatida Sharqda **maxallaning** o’rni alohida. Shuning uchun bugun yurtimizda mahallalarga e’tibor berilayotgani ham bejiz emas, chunki mahalla asrlar davomida odamlar hayotida muayyan o’rin egallab kelgan. «Bir bolaga etti qo’shni ota – ona» degan maqol negizida mahalladagi yoshlarning tarbiyasida shu mahalla mas’uliyati yotadi. Mahallada amalga oshirilayotgan har bir tadbir albatta shu mahallada o’sib – unib kelayotgan yosh avlod ko’z o’ngida sodir bo`ladi. Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, keksalar, kasallar holidan xabar olishlik, etim- esirlarga muruvvat, obodonchilik, saronjom – sarishtalik, halollik va poklik, insonparvarlik singari fazilatlar, xalqimizga xos bo`lgan urf - odatlar ilk bor mahallada kamol topgan.

Jamiyatning eng kichik bo`g`ini oila bo`lsa, mahalla ana shu jamiyatning ijtimoiy institutidir. Oilada bo`lib turadigan turli majorolar azaldan mahalla doirasida hal etilishi xalqimizning qadriyati bo`lib kelgan. Mana shu qadriyatlarimiz hisobga olingan holda, O’zbekiston Konstitutsiyasida ota – onalarning farzandlari voyaga etgunga qadar ularni boqish va tarbiyalashlari, voyaga etgan, mehnatga layoqatli farzandlar oldiga ota – onalari haqida g’amxo’rlik qilishlari majburligi belgilab qo`yilgan. Inson odob - axloqini muayyan tartibga soluvchi, uni ezgulik sari undovchi, unga ma’naviyat qoidalaridan dars beruvchi va sharq kishisining qalbida yuksak ma’naviy fazilatlarni tarbiyalaydigan maskan – bu mahalladir. Mahalladagi tartib – qoida, urf – odatga hamma birdek bo`ysinishi shart.

Bizning bir bolamizga etti mahalla ota – onalik qilishi birortamizga malol kelmaydi, kelinimiz axloqi uchun qo’ni – qo’shni ham o’zini javobgar his qilishini faqat yaxshilik alomati deb bilamiz, farzandlarimizning nojo`ya qadamidan qo’shnimiz vaqtida ogohlantirsa, unga faqat rahmat aytamiz. Bizning ajodolarimiz

iymonli hayot kechirish deganda aynan shunday turmushni tushungan, ular hech qachon kam bo`lmagan.

O`z mahallasi haqida qayg`urish, shu mahalladan chiqqan ulug` insonlar bilan faxrlanish, mahallaning sha`nini saqlash, mahalla obodligi uchun xizmat qilish bugun ham xalqimizning ezgu fazilatlaridan hisoblanadi. Bugun odamlar hayotini, ular ma`naviyatini mahallalar timsolda bemalol kuzatish mumkin.

Yoshlar o`rtasida sodir etilayotgan jinoyatchilik va huquqbazarliklarni oldini olish omillari

Yulduz Ahmedova,

Pop tumani 49-maktab yoshlar yetakchisi

Bugungi kunda qonunlarni yaxshi bilmaslik oqibatida huquqbazarlik bilan bog`liq jinoyatlar yuzaga kelayotganligi, bu jinoyatlarning aksariyati esa, voyaga yetmagan yoshlar o`rtasida ro`y berayotganligi, shuningdek, qing`ir yo`llar bilan bo`lsa-da, mo`may daromad topish, yengil hayotni ko`zlab o'g'irlilik, tajovuzkorlik, birovni mulkini talon-taroj qilish, insonlarga tan jarohati yetkazish kabi jangari harakatlar kundalik hayotda ko`plab uchramoqda. Yoshlar o`rtasida jinoyatlar sodir bo`lishiga nimalar sabab bo`lmoqda? Avvalo ana shu masalani kengroq ko`rib chiqsak maqsadga muvfiq bo`ladi. Yosh avlod niholga o`xshaydi. Uni yoshligidan qanday tarbiyalasak, shunday voyaga yetadi. Bunda, albatta oila, mahalla va jamiyatdagi muhit muhim ahamiyatga ega. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich aytganlaridek, shaxs noto`g`ri yo`ldan qaytdimi uni jamiyatdan ajratmaslik kerak. O`zi, oilasi, xalqi, ma`naviy ildizlari haqida yetarli tushunchaga ega bo`lgan shaxs jinoyat ko`chasiga qadam bosmaydi. Har xil oqimlarga qo'shilmaydi. Bunga erishishda jamiyatimizning har bir a`zosi zimmasidagi mas'uliyatni chuqur his etishi, burchini sidqidildan bajarishi lozim.

Mustaqil Vatanimizni jahon hamjamiatida yuqori cho`qqilarga ko`tarishda keng ko`lamli demokratik islohotlar, siyosiy tizimni yangilash, huquqiy demokratik davlatni shakllantirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, shaxsni rag`batlantiruvchi huquqiy tizimni yaratish, yoshlarni davlat siyosatida ahamiyatini oshirish yo`lida keng ko`lamli ishlar olib borilmoqda.

2016-yil 15-sentyabrda Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich tomonidan "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi qonunni imzolanishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Huquqiy demokratik davlat qurish va jamiyat taraqqiyotining rivoji o'sib kelayotgan avlodning ta'lif - tarbiya darajasiga bog'liqidir. Bunga erishish uchun avvalo jamiyat a'zolarining siyosiy, ijtimoiy, huquqiy saviyasini o'stirmoq lozim. Har bir fuqoro, har bir shaxs o'z huquqlarini yaxshi bilashi va himoya qila olishi zarur. Shu bilan birga davlatimiz manfaatlarni ham yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmog'i lozim. Prezidentimiz aytganlaridek, fuqaro davlat idoralari uchun emas, davlat idoralari xalq uchun xizmat qilishi kerak. Zamon talablaridan kelib chiqqan holda yosh avlodni huquqiy madaniyati, onggi va bilimlarini oshirish asosiy vazifalarimizdan biridir.

Voyaga yetmaganlar jinoyatlarini oldini olish, ular shaxsini tarbiyalash va axloqan tuzatish, axloqiy va huquqiy chetga chiqishini hamda uning jinoiy faoliyatga o'sib chiqishini oldini olish asosiy maqsadimiz bo'lmosg'i lozim. Voyaga yetmagan shaxsda endi shakllana boshlagan g'ayri ijtimoiy o'zgarishlarni oldini olish, to'g'ri yo'lga solish, salbiy jihatlarini bartaraf etish alohida e'tiborni talab qiladi. Har bir maktab o'qituvchisidan tortib, yuqori mansablarda ishlovchi shaxslar shuni yodda tutishi kerakki, yosh avlod tarbiyasida ma'naviyatni shakllantirish, milliy qadriyatlarimizni o'rgatish, sharqona odob-axloqni singdirish alohida o'rinni egallaydi. Yoshlar tarbiyasida psixologik-pedagogik tarbiya bilan birgalikda sharqona qadriyatlarimizni uyg'unlashtirish tarbiyaviy ishlarda alohida o'rinni tutadi. Yosh avlodga pedagogik ta'sir etishdan maqsad shuki o'sib ulg'ayotgan shaxsni jamiyat uchun foydali ishga jalb qilish, pedagogika tarbiya yig'indisi bo'libgina qolmay, tarbiyalanuvchi ongiga ijobjiy ta'sir etish, muomala va murojaatidir. Yuksak huquqiy ong - demokratiya asosi hisoblanadi. Shunday ekan voyaga yetmagan yoshlarni ongi, tafakkurini shakllantirish, yuksaltirish, dunyoqarashini kengaytirish hamda huquqiy savodxonligini oshirishda ma'naviy - ma'rifiy ishlarni olib borish dolzarb masalalardan biridir. Yoshlarni mehnatga jalb qilish, tarbiyalash, ular o'rtasida huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olishda mutasaddi bo'lgan o'zini o'zi boshqarish organlari va mahalla idoralari, hokimliklar huzuridagi mayjud komissiyalar faoliyatini takomillashtirib va izchillikda olib borish zarur. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif

hamda Xalq ta'limi vazirliklari, "Ma'naviyat - Ma'rifat" kengasi, "Sog'lom avlod uchun", "Yoshlar Ittifoqi" Kengashlari, Ichki ishlari organlari xodimlari va boshqalar davlat oldidagi burchlasini sidqidildan mas'uliyat va vijdonan ado etishi yuqoridagi fikrlari tasdig'ini topishida asosiy vosita hisoblanadi. Burch-kishining boshxas, oila, jamoa, mahalla, el-yurt oldidagi majburiyatini anglatuvchi axloqiy tushuncha. Davlat - mamlakat miqyosida jamiyatni uyshtirish masalalarini hal qilish, uning tashqi munosabatla belgilash kabi vakolatlari bo'lgan huquqiy tuzilma. Shunday jamiyatni shakllantirishda shaxsni shakllantirish uning huquq savodxonligini oshirish kerak. Shaxs, jamiyat va davlatning uyg'unlikdagi faoliyati esa rivojlanish kalitidir.

Jinoyatlarni oldini olishda avvalo uning sabablari, sharoitlarini aniqlash, ularni bartaraf qilish, shuningdek, hayot tarziga xulq-atvori jinoyat sodir etish holatlaridan kelib chiqib shaxsni bundan yo'lldan qaytarishga qaratilgan davlat va jamoatchilik tomonidan amalga oshiriladigan choralarни demokratik, qonuniylik, insonparvarlik, odillik va ilmiylikka asosan amalga oshirish jihatida. Jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimini onalar, mahalla jamoasi, ta'limga muassasalarini va ichki ishlarni organ bilan birga qonun va boshqa normativ hujjatlarga suyangan holatda ilmiy-tadqiqot va ilmiy - ommaviy ishlarni bilan tushuntirish lozim.

Jinoyatchilik profilaktikasida huquqshunos-pedagog kadrlar bilan hokimliklar organlari va jamoat tashkilotlari ishtirokida amalga oshirish darkor. Yoshlar o'tasida jinoyatlar asosan 14-20 yoshga qadar bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etiladi. Jinoyatchilikni oldini olish bo'yicha ommaviy targ'ibotlar aksariyati ichki ishlarni organ xodimlari tomonidan asosan oliy ta'limga muassasalarida olib boriladi. Profilaktik tadbirlarni keng qamrovida olib borib, avvalo, ota-onalar, mahalla faollari va jamoatchilik monitoringidan kelib chiqib olib borish kerak. Voyaga yetmaganlar jinoyatlarini tahlili ham shuning xulosasiga asosan ko'rildi. Ko'pincha yoshlar o'tasida so'z etilayotgan huquqbazarliklarni yosh bilan bog'liq sho'xlik deb hisoblandi va va e'tibordan chetda qoldiriladi. Bunday holatda qonunlarni bilmaslik oqibatimi yoki befarqliq oqibatimi deb o'yub qolasan kishi. Yoshlik sho'xligi deb chora ko'rмаган holatlari bundan-da og'ir holatlarni vujudga keltirsa kim javobgar bo'lib. Ijtimoiy xavfli bo'lмаган jinoyatlar sodir etgan fuqorolarga nishbu-

ijtimoiy ta'sir choralarni qo'llanilishi samaradorlik koifeseneti yuqori. Chunki jinoiy, ma'muriy, intizomiy, moddiy choralarning qo'llanilishi har doim ham samarali bo'lmasligi mumkin. Voyaga yetmagan inson shaxsi hali to'liq shakllanib bo'lмаган hisoblanadi. U o'zi sodir etgan qilmishini ko'p hollarda to'liq anglab yetmaydi. Shu bilan birga yosh bilan bog'liq qiziqqonlik, o'zini tuta olmaslik va boshqa hususiyatlari tufayli ham o'spirin katta yoshli insonga nisbatan tezroq qo'l urishi mumkin. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich aytganlaridek, "Biz yoshlar bilan ko'proq gaplashib, ularni qalbiga quloq solib, dardini bilib, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak". Shu fikrlardan kelib chiqqan holda yoshlar bilan ko'proq ishlab, ularni faoliyatini nazorat qilib, o'qish ishlarida ko'mak berib, ularni bandligini ta'minlasak, kelgusida vujudga kelishi mumkin bo'lgan jinoyatchilik, huquqbuzarliklarning va har xil oqimlarga qoshilib ketish holatlarini oldini olgan bo'lamiz. Chunki, har qanday vayronkor va yot g'oyalar ma'naviyati zaif va maqsadsiz insonlarda paydo bo'ladi. Ushbu holatlarni oldini olishda yoshlarni mehnatga jalg qilish ham ijobjiy samarasini beradi. So'zimiz oxirida shuni aytishimiz mumkinki, har qanday huquqbuzarliklarning kelib chiqishiga ob'ektiv va sub'ektiv omillar sabab bo'ladi. Jinoyat sodir etilishi ma'naviy shakllanishning buzilishi va ijtimoiy uzoqlashishga olib keladi.

Yoshlarda yuksak ta'lim tarbiya va ma'naviy daxldorlik hissini shakllantirish

Yulduz Ahmedova,

Pop tumani 49-maktab yoshlar yetakchisi

Yoshlar — davlat va jamiatning nafaqat ertangi kuni, balki bugungi ijtimoiy siyosiy, madaniy-ma'rifiy salohiyatini ham belgilab beruvchi o'ziga xos to'lqindir. Yoshlar muammolari o'z vaqtida hal etilsa, ular to'g'ri va aniq maqsadlar sari yo'naltirilsa, bunyodkorlik yanada keng quloch yoyadi.

Bu jarayonda yoshlar ongidagi mafkuraviy bo'shliqni to'ldirish, uyushmagan yoshlar, ayniqsa, yosh oilalar, qizlar bilan muloqot qilish, ularning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish, hayotda o'z o'rnini topishiga yaqindan ko'maklashish juda mux'im ahamiyatga ega. Bu turli illatlarning ildizlarini o'z vaqtida qirqish, yosh oilalar va xotin-

qizlarning jamiyat, Vatan oldidagi ma'suliyatini kuchaytirish bilan chambarchas bog'liq.

Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asda bu masala haqiqatdan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqida: "**Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi**", deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi" – deb, ta'kidlagan edi. Haqiqatdan ham, yoshlарimiz tarbiyasi, ayniqsa, uyushmagan yoshlар tarbiyasi, ularning bugungi kundagi g'oyaviy-ruhiy holati, muammolari, qiziqishlari va intilishlarini o'rganish, muammolarga yechim topish, ularni to'liq qamrab olish masalasi bir soat va bir soniya ham nazardan chetda qoldirib bo'lmaydigan dolzarb vazifa ekanligini hozirgi davr shiddati va silsilasi isbotlab bermoqda.

Diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "ommaviy madaniyat" kabi xavf-xatarlar kuchayib, odamzot asrlar davomida amal qilib kelgan ehtiqdolr, oilaviy qadriyatlarga putur yetkazmoqda. Bu kabi xavf-xatar va taziyqlar nishoni yoshlар qatlami, ayniqsa uyushmagan yoshlар bo'lib qolayotganligi, shuning uchun ham yoshlар masalasi, ularning tarbiyasi davlat tinchligi barqarorligini ta'minlash bo'yicha muhim masala ekanligi sabab prezidentimiz tashabbusi bilan 2016 yil 14 sentyabrdra "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun yangi tahrirda joriy qilindi. Mazkur qonun bilan mas'ul tashkilot va muassasalar zimmasiga yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, faolligini oshirish, masifikaviy tahdidlarga qarshi immunitetini mustahkamlash, ijodiy va intellektual salohiyatini yuzaga chiqarish, bandligini ta'minlash borasidagi ishlarni yanada kuchaytirish bo'yicha vazifalar belgilab berilgan. Qonun qabul qilingan dastlabki oylarda yoshlар, ayniqsa uyushmagan yoshlар bilan siyosiy partiyalar, deputatlar, mas'ul muassasalar rahbarlarining uchrashuvlari, targ'ibot tadbirlari ko'plab tashkil etildi, bir qator yoshlarga o'z tadbirkorlik faoliyatlarini yo'lga qo'yishlari, sog'liliklarini tiklashlari yoki ish bilan ta'minlanishlari uchun amaliy

ko'mak berildi. Lekin, ko'p vaqt o'tmay, bu muhim masala kun tartibidan o'z o'rnnini yo'qota boshladi.

Natijada, davlatimiz rahbarining 2017 yil 5 iyuldagagi "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoni joriy etildi. Mazkur farmonni yoshlar masalasi kun tartibida birinchi navbatdagi masala sifatida mustahkam joy olishi lozimligining tasdig'i sifatida baholash mumkin. Yuqoridagi fikrlarning isboti o'laroq, prezidentimizning ushbu farmonni imzolashdan oldin, "Kamolot" yoshlar ittifoqining IV Qurultoyidagi ma'rurasidan ushbu fikrlarni keltirishni kifoya deb o'yaymiz, ya'ni, "Mana, Prezidentning Xalq qabulxonalarini va Virtual qabulxonasiga kelib tushayotgan murojaatlar bilan tanishib ko'ringlar. Ularning aksariyati "Bizni hech kim eshitmaydi", "Bizni hech kim tushunmaydi", "Biz bilan hech kim qiziqmaydi", "Rahbarlar o'zini o'ylash bilan ovora" degan mazmunda yozilgan." – degan fikr keltirilgan.

Yoshlarning yangi tuzilmasi, Yoshlar ittifoqining tashkil etilishi yoshlar qalbida umid uchqunlarni uyg'otgandek bo'ldi, nihoyat ularni, ayniqsa uyushmagan yoshlarni qiziqish va muammolari, istak va talablari bilan qiziqadigan, har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, yoshlarni ichiga kirib boruvchi tashkilot yuzaga kelgandek edi. Lekin, o'tgan vaqt davomida, shu narsa tobora ma'lum bo'lib bormoqdaki, "ittifoq" ham huddi "Kamolot" singari o'z atrofiga faqat talabalar va o'quvchilarning ma'lum qismini birlashtira olmoqda xolos. Ushbu fikr isboti sifatida uyushmagan yoshlar hayotidan ko'plab misollar keltirishimiz mumkin. Jumladan, shahar va tuman markazlarida kompyuter o'yinlari va bilyard klublari faoliyat olib borayotgani, bunday maskanlar asosan, aholining samarali mehnatdan so'ng, maroqli dam olishni tashkil etish uchun faoliyat olib borishini, aslida esa, ularda juda ko'plab uyushmagan yoshlar o'z vaqtlarini bekorga o'tkazayotganliklari, kollej, akademik litsey va hatto maktab o'quvchilari ham bu kabi joylarda qimmatli vaqtlarini nomuhim ishlarga sarflayotganliklari to'g'risida yoshlar masalasiga mas'ul rahbarlar xabardor emas, ularga kimdir bu haqda axborot bermasa, o'zlarini bila olishmaydi desak, vijdonimiz oldida aybdor bo'lamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yilning 12 yanvar kuni "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini

oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida" farmoyish berdi. Aslini olganda, mazkur farmon ham aynan, uyushmagan yoshlarni qamrab olish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli va maqsadli tashkil etishga o'rgatish maqsadida joriy qilingan edi. Ushbu farmonning hayotga tadbiqi o'laroq "Eng faol kitobxon" tanlovlari o'tkazildi. Joylarda, ushbu tanlovnning tashkil etilganligi va faol kitobxonlar aniqlanganligi to'g'risida ko'plab xabarlar tarqatildi. Ammo, mazkur tanlovlarning aksariyati o'quvchilar, talabalar ishtirokida o'tkazilganligi, prezident farmonining asl maqsadi amalga oshiriilmaganligining dalolatidir. Balki, yoshlar masalasi bo'yicha mas'ullar o'sha kompyuter va bilyard klublariga kirib, yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, sharoitlar to'g'risida tushuntirish ishlarini olib borishganda, o'tkazilayotgan tanlovlar bo'yicha targ'ibot ishlari amalga oshirilganda, farmonning asl maqsadiga yanada yaqinlashilgan va ijrosi anchayin jonli bo'lishi mumkin edi.

Fikrimizcha, o'sha klublarda vaqt sarflayotgan yoshlarning barchasini ham "bekorga vaqt sarflayapti", - deb, aytib bo'lmaydi. Ularning ichida shunchaki, dam olgani yoki bekorchilikdan kirgan yoshlardan tashqari, elektron o'yinlarni mutaxassislar singari tushuna oladigan yoki bilyardni mohir o'yinchilari ham topiladi.

Taklifim, kompyuter va bilyard klublarida, mahallarda ham targ'ibot va tushuntirish ishlarini olib borib, yoshlar ittifoqining shahar va tuman kengashlari tomonidan uyushmagan yoshlar qiziqishlarini o'rganib, "Bilyardchilar" yoki "Shaxmat-shashka" bo'yicha sho'balarini tashkil etilsa, ular o'rtasida ham viloyat va respublika miqyosida tanlovlar o'tkazilsa, yangi iqtidorli yoshlarni kashf etish, ularning mahoratini yanada oshirish orqali xalqaro miqyosda tashkil etilayotgan shaxmat-shashka, bilyard, kompyuter o'yinlari bo'yicha birinchiliklarda yurtimiz nomidan ishtirok etib, mamlakatimiz sharafini yanada yuqoriga ko'tara oladigan yoshlarni tarbiyalash mumkin.

Albatta, bu ishlardan eng asosiy maqsad, uyushmagan yoshlarni bo'sh vaqtini maqsadli tashkil etish, ular tomonidan huquqbazarlik sodir etilishini oldini olish va shu yo'l bilan vatanimiz tinchligini yanada mustahkamlashdir.

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini yanada isloq qilishda Harakatlat strategiyasining o'rni

Behzod Tursunov,

Nam DU talabasi

Ilmiy rahbar J.Umarov

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi. Xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Qolaversa, mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyat qurishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Bosib o'tilgan yo'l va orttirilgan tajribani xolisona baholashdan, mustaqillik yillarda erishilgan yutuqlarni tahlil qilishdan hamda zamон talablaridan kelib chiqqan holda, oldimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishning muhim ustuvorliklarini hamda aniq marralarini belgilash vazifasi turgan bir paytda, aholidan kelib tushgan takliflarni jamlash, chuqur o'rganish hamda umumlashtirish asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni loyihasi ishlab chiqilib, u bilan: 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi ishlab chiqildi va mamlakatni mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilandi:

1. Davlat va jamiyat qurilishini akomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloq qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohanı rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zo manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Harakatlar strategiyasining masadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishda, davlat va jamiyatning har

tomonlama va jadal rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Loyihalarni tayyorlash davomida aholining keng qatlamlari orasida qizg'in muhokamalar olib borildi. Loyihalar muhokama uchun turli axborot maydonlariga joylashtirildi, ularning natijasida ko'plab taklif va mulohazalar kelib tushdi. Fuqarolar siyosiy-huquqiy borada yuksak faoliyat ko'rsatib, olib borilayotgan islohotlarga alohida qiziqish va daxldorlikni namoyon qildilar.

Mana shu belgilangan besh bosqichning ikkinchi yo'nalishida qonun ustuvorligini va sudning chinakam mustaqilligini ta'minlash chora-tadbirlari nazarda tutilgan. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishga yo'naltirilgan sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini hamda fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini mustahkamlash, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini, jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimi samarasini oshirish, sud jarayonida tortishuv tamoyilini to'laqonli joriy etish, yuridik yordam va huquqiy xizmatlar sifatini tubdan yaxshilash ishlari amalga oshirilib borilmoqda.

Ma'muriy sndlarni, xo'jalik sndlari tizimida mintaqaviy appellatsiya sndlарini tuzish, suda yordamchisi lavozimini ta'sis etish orqali sndlarni kelgusida ixtisoslashtirish va ularning devonini mustahkamlash nazarda tutilmoqda.

Sansalorlikka va ishlarning ko'rib chiqilishi sndlар tomonidan asossiz cho'zib yuborilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida protsessual qonun hujjatlarini takomillashtirish, quyi instansiya sndlарining kamchiliklarini mustaqil bartaraf etish va uzil-kesil qaror qabul qilish yuzasidan yuqori sud instansiyalarning vakolatlarini kengaytirildi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimiga, jinoyatchilikka qarshi kurashish ya jamoat tartibini saqlash bo'yicha ichki ishlar organlarining faoliyatini tubdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratildi. Shuningdek ushbu yo'nalish 2018-2021-yillarda jinoyat va jinoyat-protsessual qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish konsepsiyasini ishlab chiqishni, sud, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari xodimlarini o'qitish, tanlash va joy-joyiga qo'yish tizimini takomillashtirishni, murojaatlarni muntazam tahlil qilishni

hamda vaqtı-vaqtı bilan uning natijalarini e'lon qilib borishni ham o'z ichiga oladi.

Ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha jinoyat va jinoyat-prosessual qonunchiligini takomillashtirish va liberallashtirish, alohida jinoiy qilmishlarni dekriminallashtirish, jinoiy jazolar va ularni ijro etish tartibini insonpapvaplashtirish, odil sudlovni amalga oshirish samaradorligi va sifatini oshirish, ma'muriy, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik sud ish yurituvining prosessual asoslarini takomillashtirish, jinoyat, fuqarolik va xo'jalik ishlarini ko'rib chiqish tartibini takomillashtirish, bir-birini takrorlaydigan vakolat va instansiyalarni qisqartirish hamda elektron tartibda sud va ijro ishini yuritishning zamonaviy shakl va usullarini joriy etishilshi yo'lga qo'yilmoqda.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish, diniy ekstremizm va terrorizmga, uyushgan jinoyatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarни kuchaytirish, korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish, aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish kabi ishlar ham amalga oshorilmoqda.

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan O'zbekistonda qamoq jazosi (arest) bekor qilinib, uning o'rniiga boshqa jazo choralar qo'llanila boshlandi.

Shuningdek, ayrim jinoyatlar bo'yicha beriladigan jazolarni yengillashtirish ham nazarda tutilgan. Masalan, tomonlarning yarashganligi munosabati bilan javobgarlikdan ozod qilish institutini kengaytirish, ijtimoiy xavfi katta bo'limgan ayrim jinoyat tarkiblarini jinoyat toifasidan chiqarish va jinoyat ishini qo'zg'atish faqat jabrlanuvchining arizasiga ko'ra amalga oshiriladigan jinoyat tarkiblari ro'yxatini kengaytirish kabi choralar ishlab chiqildi.

✓ Qamoq jazosini bekor qilishdan tashqari, 1 apreldan kuchga kiradigan yangi qonunda, quyidagi o'zgarishlar ham bor:

✓ jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxslarni ushlab turish muddati 72 soatdan

48 soatga qisqartiriladi;

✓ qamoqqa olish va uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot choralarini qo'llashning, shuningdek dastlabki tergovning eng ko'p muddati 1 yildan 7 oyga qisqartiriladi;

✓ pochta-telegraf jo'natmalarini xatlab qo'yish va eksgumatsiya qilish uchun sanktsiya berish huquqi sudlarga o'tkaziladi;

✓ sudlarga qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyyot chorasi qo'llash rad etilganda muqobil ehtiyyot choralarini qo'llash huquqi berilindi;

✓ fuqarolik ishi bo'yicha sud qarorini nazorat tartibida qayta ko'rib chiqish muddati 3 yildan 1 yilga qisqartiriladi;

✓ Yangi qonun, yo'lidan adashgan, voyaga yetmagan qonumbuzurlarning qaytib to'g'ri yo'lga kirishiga kengroq imkoniyatlari yaratib berildi. Xususan, unda voyaga yetmaganlar uchun qonunda belgilangan jinoiy jazolarni liberallashtirish, ularning huquqiy himoyasini kuchaytirish, sudlanganlik holatini tugatish va sudlanganlikni olib tashlash kabi o'zgarishlar nazarda tutilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolik protsessual va Xo'jalik protsessual kodekslariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish huqida"gi qonunlariga muvofiq, 2017-yil 1-iyundan boshlab ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy nizolar va ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish vakolati yangi tashkil etilgan Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman (shahar) ma'muriy sudlariga o'tkazildi.

Ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishlar ma'muriy sudlar sudloyiga taalluqli bo'lib, unga O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan barcha ishlar, ommaviy-huquqiy munosabatlardan kelib chiqadigan ma'muriy nizolar toifasiga kiradigan ishlar kiradi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini buzuvchi xatti-harakatlar va qarorlar ustidan berilgan shikoyatlar, saylov komissiyasining xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan berilgan shikoyatlar, notariusning yoki fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd

qilish organlari harakatlarini bajarishni rad etgani yoxud ularni noto‘g‘ri bajargani ustidan berilgan shikoyatlar, prokurorning huquqiy xujjatni g‘ayriqonuniy deb topish to‘g‘risidagi arizasi, vakolatli organning jismoniy va yuridik shaxslar manfaatini ko‘zlab berilgan arizalari, davlat organining, fuqarolar o‘zini o‘zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish haqidagi arizalar ham ma’muriy sudlar tomonidan ko‘riladi.

Qonundagi ushbu o‘zgarishlar O‘zbekiston sud-huquq tizimini yanada erkinlashtirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati samaradorligini oshirish va aholining odil sudlovga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan.

Bozor va ma’naviyat

Gulchehra Kazakova,

Namangan shahar 27-maktab boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

Inson farishta emas. U moddiy vujud sifatida yaratilgan. Shunday ekan, uning inkor etib bo‘lmaydigan moddiy ehtiyojlari atrof-tabiat va o‘zga mavjudotlar bilan doimiy amaliy munosabatlarni taqozo qiladi. Iqtisod ayni shu inson jismining moddiy voqelik bilan amaliy munosabatlariga oiddir. Insonning tabiatga munosabati iqtisodning asosini tashkil etadi, dedik, ammo bugungi kunda har bir inson o‘z moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun faqat tabiat bilan emas, balki o‘zga insonlar bilan ham turli munosabatlarga kirishadi.

Bunday munosabatlarni, maqsad yo‘nalishidan kelib chiqib, iqtisodiy munosabatlar deb ataymiz. Ularning tagzaminida mulk tushunchasi, talab va taklif nisbati asosiy nuqtalardan hisoblanadi. Bozor insonni o‘z-o‘zini qadrlashga o‘rgatadi, muomala odobiga o‘rgatadi, o‘zga mehnatining qadriga yetishga o‘rgatadi. Bizga yaqingacha “ta’lim” bergenlaridek, bozor tovlamachilar, “spekulyantlar” makoni emas, balki ibrat va tarbiya maktabidir. Bozor aylangan kishi ona-er, tabiatimiz saxovatini ko‘rib, Vatanga mehr tuyg‘ulari qalbini to‘ldiradi. Albatta, buni his etish uchun ham inson ma’naviy kamolotining ma’lum darajasi talab etiladi.

Dehqonning, hunar egasining mehnati va bardoshiga, mahorati va didiga bozor aylanganda, bir yaxshi narsa xarid etganda baho beramiz, tasanno aytamiz. Didsizlik, uquvsizlik, o‘z ishiga e’tiborsizlik bozorda darhol o‘zini oshkor etadi. Demak, bozor va ma’naviyat aslo zid

tushunchalar emas. Biz bozor iqtisodiga asoslangan jamiyat qurmoqchi ekanmiz, ayni o'z milliy an'ana va qadriyatlarimizga qaytgan bo'lamic, kelajak sari ularga tayanib olg'a siljymiz. Albatta, bu yangi tizim shundayicha oldingi asrlarni qaytarish bo'lmaydi, XX asrning jahon taraqqiyoti erishgan barcha yutuqlaridan ijodiy soydalaniladi, ammo hech bir o'rinda ko'r-ko'rona nusxa ko'chirish naf keltirmasligini ham unutmaslik lozim.

Bugungi jahon bozorining muhim jihat - uning ilmiy asosga qo'yilganligidir. Marketing fani, ya'ni bozorni o'rganish ilmi ilgari asosan savdogar yo kosibning farosatiga bog'liq bo'lgan bo'lsa, bugun jiddiy tadqiqotlar asosiga tayammoqda. Ilgari bir mintaqani qamragan bo'lsa, bugun jahon miqyosida yaxlit fikrlashni taqozo qilmoqda. Demak, bozor va ma'naviyat turli nuqtalarda tutashuv hosil qilmoqda. Ularning biri e'tiqod bo'lsa, ikkinchisi - ilm. Yana biri farosat bo'lsa, boshqasi - insonni tushunish. Bizga marksizm olabo'ji qilib ko'rsatgan tuzum bugungi kun nuqtai nazaridan yondoshganda - axlatxona.

Har sohada ham chiqindilar bo'ladi, shu jumladan, bozorda ham. O'sha barcha chiqindini bir joyga uyib tashlasa, iflos va ko'rimsiz bir uyum hosil bo'ladi, ana shuni bizga kapitalizm deb ro'baro' qilib kelishdi. Vaholanki, "sotsializm" deb atalgan totalitar tuzumdag'i qabohatlardan tashkil topgan butun boshli "arxipelag" lar mavjud bo'lganligi endi ko'pchilikka ma'lum bo'lib qoldi. Asosiy masala inson ma'naviyatida. Chunki ma'naviyat avvalo me'yor, u uyg'unlikni ta'minlaydi. Xususiy mulkning yagona hukmronligi ham, uning butkul taqiqlanishi ham me'yorning buzilishiga olib keladi, demak, hayotdagi uyg'unlikni buzadi.

Bugungi bozor e'tiqod, ilm, riyozat, mehr uyg'unligi tomon ketmoqda. E'tiqod bozorda insof ko'rinishida namoyon bo'ladi. "Tesha bo'limagin, arra bo'lgin", - deydi Amir Xusrav. Chunki tesha doim o'zi tomonga chopadi, payraha faqat chopayotgan kishi tarafga tó'planadi. Arra ikki tarafga borib keladi, qipiqlik ham ikki tarafga barobar to'kiladi. "Qars ikki qo'ldan chiqadi", - deydi xalqimiz. "Faqat o'zim bo'lay", degan odam uzoqqa bormaydi. "Insof sari baraka" - ma'naviyatini yo'qotmagan millatning bozoridagi bosh qonundir. Bugungi kunda biz ba'zi joylardagi kabi bir qirdan ikkinchi qirga sakrashga urinmay, insof va diyonatni saqlagan holda, qadim milliy an'analarimizning eng ilg'or jihatlariga tayanib, farosatli, insofli, ilmiy asosga qo'yilgan, jahondagi eng ilg'or tamoyillarga muvofiq

keluvchi bozor iqtisodi sari intilib borayotirmiz. Albatta, xatolar ham ko'p, ammo beayb parvardigor deydilar, niyat xolis bo'lsa, natija yomon bo'lmas.

Demak, ma'naviyatga, madaniyatga e'tibor bozor iqtisodining bugungi jahon talablari darajasiga ko'tarilib borishida yetakchi ko'rsatkichlardan hisoblanadi. Ammo masalaning ikkinchi jihatni ham bor. Biz - ma'naviyat va madaniyat sohasining odamlari, o'zini ziyoli sanab yurganlar ham eski aqidalardan, ko'nikmalardan iloji boricha tezroq forig' bo'lishimiz, Alloh bergen farosatimizni ishga solib, o'z sohamizda mantiqli tadbirlar ishlab chiqishimiz kerak.

Ta'lim va tarbiyada milliylikning o'rni

Mohira Usmonova,

Namangan shahar 27-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Yosh avlodda nafaqat o'z hayoti, oila a'zolari, Vatani va millati oldidagi, balki atrof-tabiat, butun kurrai zamin va jami bashariyat oldidagi mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish bugungi kun ta'lim-tarbiya tizimining eng muhim masalasi bo'lib turipti.

Insonning qalbi va ongiga jo bo'lgan milliy ma'naviy-axloqiy negizlar uni butun umri davomida halol, pok, bilimli, xalq xizmatida bo'lishga, Vatan ravnaqi hamda taraqqiyotiga hissa qo'shishga, o'zining ongli va erkin mushohada qiluvchi shaxs sifatida kamol topishiga muttasil ravishda undaydi. Turli millatlar ma'naviyatining o'ziga xosligi kamalakdag'i turli ranglar tovlanishiga monand bo'lib, ular bir-birini to'ldiradi, boyitadi, ammo inkor etmaydi, bir so'z bilan aytganda, ma'naviyat ellarni zidlashtirmaydi, balki birlashtiradi.

Aslida umuminsoniy qadriyatlarni biror-bir alohida xalq yaratmaydi, bu qadriyatlarni har bir xalq, har bir elat o'z tarixiy tajribasi bilan asta-sekin shakllantirib boradi va o'zaro turlichal munosabatlar jarayonida elatlari, millatlar bir-birini tushunib, o'zaro ma'naviyatlaridagi umumiy jihatlarni tadrijiy anglab boradi.

Ming yillar davomida yer yuzidagi turli mintaqalarda yashagan xalqlarning o'zaro siyosiy, madaniy, ijtimoiy aloqalari hozirdagidek yaqin bo'lgan emas. Asrlar mobaynida yer yuzida turli madaniy mintaqalar shakllangan. Yevropa xalqlarining umummintaqa madaniyati, janubi-sharqiy Osiyo xalqlari mintaqasi madaniyati, Hindiston yarimoroli va unga qo'shni hududlarda yaratilgan umumiy

madaniyat va boshqa bir qator mintaqalar madaniyati - bularning har biri o'zgasidan farq qiluvchi qator diniy e'tiqod, falsafiy maktablar, san'at va adabiyot, urf-odat va an'analarning o'ziga xos uyg'un bir tizimlarini vujudga keltirgan-ki, ahli basharning bunday beba ho mulkini, ma'naviy xazinalarini befarqliq bilan bir-biriga qorishtirib yuborish mutlaqo ijobjiy natijalar bermaydi.

Biz milliy urf-odatlarimiz, marosimlarimizga baho bermoqchi bo'lsak, butun insoniyat manfaatlari nuqtai nazarini, alohida shaxs erkinligi, Vatan va millat manfaatlarini, milliy qadriyatlarimiz majmuini yaxlit uyg'unlikda olib qaramog'imiz talab etiladi.

Agar shu uyg'unlikka mohiyatan muvofiq bo'lsa, yoxud loaqal unga zid bo'lmasa, demak, maqbul, ammo insonlararo ziddiyat tug'dirsa, nifoq solsa, yoki o'zga shaxs erkini bo'g'sa, Vatan va millat manfaatlariga zid bo'lsa, demak, maqbul emas. Ammo milliy ma'naviyatimizni qadrlashimiz, uni rivojlantirishga urinishimiz, kimlardir talqin qilmoqchi bo'layotganidek, o'zga xalqlar madaniyatini mensimaslik yoki milliy xudbinlikka berilishni unglatmaydi, balki uzoq yillik qaramlik asoratidan qutulib o'zligimizga qaytish, o'zligimizni anglab yetishga urinishni bildiradi.

Bugungi kunda milliy tarbiya masalasi borgan sari dolzarblashib bormoqda. Biz endi bu sohada Yevropa ilmi erishgan yutuqlarni nuzardan qochirmagan holda o'z milliy ma'naviy merosimiz un'amariga muvofiq mustaqil tarbiya tizimini ishlab chiqishimiz birinchi darajali vazifaga aylanmog'i kerak. Buning uchun, birinchidan, yuqorida tilga olingan (bugungi kunda Yevropa pedagogikasining asosini tashkil qiluvchi) "ilm ma'rifati" tamoyiliga qo'shimcha ravishda qadimdan milliy tarbiyamizga xos bo'lган "mehr ma'rifati", "riyoza t ma'rifati", "ibrat ma'rifati" tamoyillarini ham tarbiya nazariyasiga kiritish va ongli va to'laqonli ravbhdha turbiya amaliyotiga tatbiq etish lozim bo'ladi.

Ibrat turblyusdi turbiya sohasida juda muhim o'r'in tutadi. Inson o'z mukammal e'tiqod tizimini shakllantirib olmaguncha, ibrat turblyusdi unga tu'sir ko'rsatishning asosiy usuli bo'lib qola beradi. Agar ba'zilar bulog'at yoshidan anche o'tib ketganlarida ham o'z mustaqil e'tiqod tizimiga ega bo'lmasliklari mumkinligi nazarda tutilsa, **Ibrat turblyusning** ahamiyati naqdardan salmoqli ekanligi yanada ayon bo'ladi. **Ibrat turblyusida** eng katta yuk **tarbiyachiga**

tushadi. **Tarbiyachi** o'zi tarbiya ko'rmagan bo'lsa, uning urinishlari bir pul.

Inson va jamiyat hayoti uch asosiy sohadan iborat ekanligi ma'lum. Demak, tarbiyani har uch sohada o'zaro mutanosib olib borilmasa, maqsadga erishilmaydi. Bundan tashqari, ma'lumki, hayotda iqtisod, siyosat, ma'naviyat sohalari bir-biridan ajralgan, sof holda uchramaydi, shu sababli ko'pincha ularning o'zaro kesishuvida mohiyatan murakkab tarbiya yo'nalishlari shakllanishi mumkin.

Farzandlarimiz kelajagi – davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishida

*Azizbek Nosirjonov,
NAMDU talabasi.*

*Jumavoy aka Umarov,
Nam DU katta o'qituvchisi*

O'zbekiston xalqi insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni ko'zlab, o'zining taraqqiyot yo'lini belgilab oldi. Shu yo'lда avvalo, unib-o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviyatli, dunyoqarashi keng, yuksak salohiyatli barkamol avlodni komil inson qilib tarbiyalash har bir insonning ma'suliyatli vazifasi bo'lib kelmoqda.

Yurtboshimiz Shavkat Miromonovich yoshlarni ma'naviyatiga, tarbiyasiga juda katta e'tibor qaratmoqdalar. 2017-yil 30-sentabrda Prezidentimiz tomonidan "Maktabgacha ta'lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi³⁸ qarorlari tasdiqlandi. Prezident joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalarining ahvoli, sohadagi ishlarni jadallashtirish jihatlariga e'tibor qaratdi. Dastlab bu masalada Andijon, Namangan, Samarkand, Farg'ona va Jizzax viloyatlarida o'tkazilgan o'rganishlar natijalariga e'tibor qaratildi. Bog'chalarni moddiy-texnik bazasini yaxshilash to'g'risida ko'rsatmalar berildi. Bolalar tarbiyasi jarayonida o'z ishini puxta biladigan, malakali va har bir bolaga individual yondasha oladigan pedagog-kadrlarni jalg qilgan holda, ularni go'dakligidan ongi va tafakkurini to'g'ri shakllantirib

³⁸ Lex.uz

bormasak, kelajakda yuksak saviya, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash qiyin bo'ladi, deydi Shavkat Mirziyoyev. Shu asosida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 9-fevraldag'i "Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida ta'lim-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish choralar to'g'risida"gi 11-son majlis bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirining 2018-yil 16-fevralda Bayoni tasdiqlandi.

Bayonga ko'ra "Joriy yilning 1-martidan boshlab umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinflarida, yangi o'quv yilidan boshlab 2-3-4 sinflarida o'quv haftasining davomiyligi 5 kun etib belgilandi"³⁹.

Bu qaror yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ota-onas, oila davrasida, aka-uka, bobo-buvilar, qarindosh-urug'lari bilan ko'proq birga bo'lishi, yoshlarda odamiylik tuyg'usini shakllantirib, barkamol avlod qilib tayyorlashda juda muhim o'rinn egallaydi. Qancha ko'p oilasi davrasida bo'lsa, shunchalik ma'naviyatli, madaniyatli bo'lib ulg'ayadi. Vatanni sevish, xalq uchun jonini fido qilish kabi hislatlar shukllanadi.

Ilozirgi kunda ota-onalar oila tshvishi, oilaning moddiy holatini yuxshilash uchun tinim bilmay mehnat qilmoqdalar. Shu boisdan ham fuizundlariga kamroq vaqt ajratishadi. Shuning uchun hukumatimiz tomonidan yoshligidan, maktab davrdaligidan ko'proq ota-onas, qarindoshlar bilan birga bo'lib ular bilan o'zaro mehr almashishi, ularning dunyoqarashiga judayam katta ta'sir qiladi. Bejizga mehr ko'zdu deb aytilmagan.

Muna Yaponiya tajribasini oladigan bo'lsak; Yaponiya ta'lim tizimidagi boshlang'ich sinf o'quvchilariga judayam katta erkinlik berilgan. Ular o'zlarini xohlagan kiyimda kelishlari va ortiqcha marsh'ulotlar, murakkab mashqlar berilmas ekan. Yaponiyada boshlang'ich sinf o'quvchilariga asosan, ta'lim-tarbiya, vatanga muhibbat, ona tabiatga, insonlarga o'zaro hurmat kabi hislatlar o'tqatib horilar ekan.

Xalqimizning boy ma'naviy merosi, mentalitetimizdan kelib chiqqan holda bolalar tarbiyasiga juda katta e'tibor qaratilgan. Tarbiyaning bola tug'ilgan kundan boshlab berib boriladi. Xalqimiz munosida bir nafq bor "Bir bolaga yetti mahalla ota-onas". Shunga binoan

tarbiya jamoatchilik asosida olib boriladi. Ya'ni faqat ta'lif tizimiga bog'liq emas. Boshlang'ich ta'lif o'quvchilari doim hayol bilan yurishadi. Ularning o'y-fikrlari 30-40 yillik reja bilan band bo'ladi. Ana shunday paytda o'qituvchilar o'zlarining pedagogik mahoratlari bilan bolalarni kelajak rejalarini, ularni vatanparvarlik, ezgu maqsadlar sari yetaklovchi, ma'naviyatli, hayotda o'z o'rinnarini topishlari uchun kerakli ko'rsatmalar, yo'naliishlar berib borishlari kerak. Chunki, bolalar hayotda o'z ideallari deb ota-onalarini bilsishsa, maktab davrida esa ko'proq o'qituvchisini aytganini qilishadi. Shunday ekan, yosh avlodni tarbiyalashda nafaqat ota-onalar balki, pedagoglar ham birdek mas'ul bo'lish kerak.

Xilvatiyning «Sayr ul-jibol» asari

*Gulasal Hamidullayeva,
Uychi tumani 2-maktab o'quvchisi.
Ilmiy Rahbar: O.Boltaboyeva
Nam DU o'qituvchisi*

Mulla Yo'ldosh To'raboy o'g'li Xilvatiy (1858-1921) o'zbek va fors tilida barakali ijod etib, o'zidan boy adabiy meros qoldirdi. Uning "Sayr ul-jibol" (Tog' sayri) asari va bir necha qasidalari hijriy 1328 (milodiy 1910-1911) yillar Toshkentda G'ulom Hasan Orifxonov bosmaxonasida (87 sahifada) chop etilgan.

Xilvatiyning «Sayr ul-jibol» asari aruzning ramali musaddasi mahzuf-(foilotun, foilotun, foilun taqte'sida paradigmasi: -v-- -v-- -v-) vaznida yozilgan bo'lib, til, uslub, ohang va tasviriy vositalar qo'llash jihatidan o'ziga xos asardir.

"Sayr ul-jibol" (Tog' sayri) asari 1910- yilda yozilgan. 1910- yili yoz mavsumida Namanganning taniqli shoir, olim va mashhur kishilaridan Nodim Namangoniy, uning o'g'illari, Hoji Musallamxon, Fuzayluddin, Abdulmusavvarxonlar, to'raqo'rg'onlik Sayfuddin Mahdum, Mirzo Olim qoriylar Nodimning taklifi bilan Pochcha Ota⁴⁰ tog' bag'riga sayohatga chiqishadi. U yerda chodir tikib, bir necha kun tog' bag'rida dam olishadi, she'rxonlik va do'stlik suhbatlari bilan

⁴⁰ Namangandan 80 chaqirim yuqorida joylashgan Farg'ona vodiysiga qarashli tog' manzarali joy. 1924 yilda bu joy Qирг'изистон Республикаси qo'shib yuborilgan.

mashg`ul bo`lishadi. Pochcha Ota mozorini ziyyarat qilishadi. Xilvatiy Pochcha Ota havosi, manzarali joylari, o'simlik dunyosi, sayohatga chiqqan kishilarning fazilatlari haqidagi "Sayr ul-jibol" asarini Qodirxo`ja eshon, Nodim Namangoniylar iltimosiga muvofiq safardan qaytgach, oz muddat ichida yozib tugallaydi.

*Ibtido to intiho ushbu safar,
Pardayi nazm ichra bo'lsa jilvagar.*

*Shahr eliga armug`on bo`lg`oy edi,
Barg sabzi jovidon bo`lg`oy edi.*

*Siz bila bizdin bo`lurdi yodgor,
Qolg`ay erdi bu jahonda poydor.*

Sayohat juda qiziqarli va taassurotlarga boy bo`lgan. Bu haqda shoirning o'zi asarning kirish qismida shunday deydi: «Ul safarda xudovandi jala zikruhuni altofi bekaroni birla haddin ziyoda va adaddin berun farah (shodlik) va faraj va tarab va surur ko'rduk. Va boloyi jabalda (tog' tepasida) rufaqa bar tariqi ittifoq dedilarki, bu sayohatda ko'rgon va kechurgonlarimiz nazmga olinsa, nasibi xursandiy va mo'jibi farahmandiy bo'lur erdi. Va ham ajab emaski, to oxiri inqizoyi davri zamон va ixtitomi gardishi davron, safhayi ayyom va daftari ro'zgorda boqiy qolsa. Bu iltimos muqarrar bo'ldi. Binobarin, bu zarrayi hoksor, parishon ro'zg'or Mullo Yo'ldosh Xilvatiy ibn To'raboy so'fiy marhumiy Jiddakafagiy summa Namangoni bu sayru sayohatni va asnoyi sayrda bo'lg'on voqeotlarni nazm qaydig'a oldi va anga «Sayr ul-jibol min sayri-r-rijol» (Erkaklar sayridan bo'l mish tog' sayri) nom qo'yildi». ⁴¹

Asar 16 bob bo`lib, har qaysi bobga forsiy sarlavhalar qo`yilgan. Asar 557 bayt (1114 misra)dan iborat. Asar ikki qismdan iborat bo`lib, birinchi qismida nasriy usulda yozilgan kirish, masnaviy usulida yozilgan hamd va na't, 18 baytli muqaddima, sayohat taassurotlari bayon qilingan bo`lsa, ikkinchi qismida Xilvatiyning Sayyid Burhonxo`ja Eshon ibni Aminxo`ja Eshon bilan uchrashgani va shoirning ushbu asarni Mavlaviyxon Eshon huzurida o`qib berishi voqealari o`rin olgan. Masnaviy usulida yozilgan bu she'riy asar forscha surlavhalar bilan bir necha boblarga ajratilgan. Asarda tog` sayriga

⁴¹ Xilvatiy. Sayr ul-jibol. – T.: G`H.Orifxonov bosmaxonasi, 1910 y. 2-bet.

chiqqan shoir do'stlarining surat va siyratlari bir-bir ochib berilgan. Ayniqsa, tabiat manzaralari, chor-atrofdagi go'zalliklar, xususan, "Pochcha ota" manzaralari, o'simlik dunyosi, suvlari va toza havolari mahorat bilan tasvirlanadi. Masalan:

Ketkonicha ikki yon ko'hsor ekan,
Turfa ko'hsori farahosor ekan.

O'rtasida bir ajoyib soyi bor.
Salsabilu jannatul ma'voyi bor.

Har qadam yurgon sori dil ochilur,
Siynadin g'am har tarafga sochilur.

Har nafas kelgay surur uzra surur,
Qo'shilur har dam ko'zing nuriga nur.

Eyki, topmishsan haqiqatdin xabar,
Diydayi tahqiq ila qilsang nazar.

Uchragan toshu daraxtoni giyoh,
Aylagay sharhi kamoloti Iloh.⁴²

Asar qo'lyozmasi Xilvatiy devonida mavjud (B.1 38a - 58a) "Sayr ul-jibol"ning 1911- yildagi toshbosma nusxasida Xilvatiyning 1903 yilda fors tilida yozilgan "Qasidayi ilm" asari ham berilgan. Bu toshbosma asosida 2009 yil Xilvatiyning "Sayr ul-jibol" asari shoirning nabirasi Shahzodaxon Akmalxon to'ra qizi taklifi bilan kirill yozuvida nashr etildi. Ushbu nashrdan Xilvatiyning "Qasidayi ilm" asari ham o'rinn olgan. Shoirning "Qasidayi ilm" asari O'zRFA Til va adabiyot ilmiy tekshirish instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent Sayfiddin Rafiddinov tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilinib, nasriy bayoni berilgan.

XX asr boshi o'zbek adabiyotida "Sayr ul- jibol" ga o'xshash sayohatnomalar asari mavjudligi hozircha bizga ma'lum emas. Bu manbani sayohatnomalar yo'nalishidagi asarlar bilan qiyoslab tahlil etish alohida tadqiqotni talab etadi.

⁴² Mulla Yo'ldosh Xilvatiy. Sayr ul-jibol. – Toshkent: Fan, 2009. B-18.

Farg'onanining qadimiy poytaxti

*Baxtiyor Ro'zinov,
Namangan shahar 66-DIMI o'qituvchisi.*

*Alijon Vohidov,
Tarixchi-sharqshunos.
Tohirjon Qozoqov,
NamDU dotsenti, t.f.n.*

Har bir xalqning ma'naviyatini uning tarixi, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo, xususan, O'zbekiston jahon madaniyatining eng qo'hna o'choqlaridan biridir. Ota yurtimizga islom dini kirib kelishidan avval ham Markaziy Osiyo xalqlari boy me'morchilik va hunarmandlik an'analariga ega edilar. Keyinchalik mahalliy moddiy va ma'naviy an'analar islomiy madaniyat bilan uyg'unlashib, yurtimiz tarixida birinchi uyg'onish, yuksalish davri boshlangan. Ilm-fan, madaniyat, savdo-sotiq, qurilish va ziroatchilik, ya'ni qishloq xo'jaligi misli ko'rilmagan darajada taraqqiy etgan.

IX-X asrlarda hunarmandchilik va savdo-sotiq rivoji natijasida shaharlar yanada kengaygan va yirik, muazzam inshootlar barpo etilgan. Milliy me'morchilikning ajoyib yutuqlari va namunalari, ayniqsa, masjid va madrasalar qurilishida o'zini yaqqol namoyon etgan. Masjid binolari yonida hashamatli va ulug'vor minora, xonaqoh, alloma va aziz-avliyolarning mozorlari ustiga maqbaralar qurilgan. Bunday qadamjolarni ziyyarat etuvchilar tobora ko'payib borganligi sababli maxsus hujralar ham bino etilgan.

Qadimda Osiyoni Yevropa bilan bog'lab turgan Buyuk ipak yo'lining gullab-yashnashida poytaxt shaharlarning ahamiyati katta bo'lgan. Bu borada qadimgi Farg'ona o'lkasining poytaxtlaridan biri – Axsikent o'ziga xos o'rjn tutgan. Kamida ikki ming yillik tarixga ega qadimiy shahar xarobalari To'raqo'rg'on va Jomasho'y orqali o'tadigan Namangan – Farg'ona avtoyo'lining ikki tomonida, Sirdaryoning o'ng sohili bo'ylab cho'zilib ketgan baland tepaliklar ko'rinishida yotibdi. Axsikentning ham boshqa qadimiy shaharlar (Samarqand, Buxoro, Nasaf, Toshkent...) singari o'z qal'asi, shahristoni (ichki shahar) va raboti (tashqi shahar) bo'lgan. Qadimda shaharning to'rtta darvozasi bo'lib, ular Mardikush, Koson, Masjidi

Jome' va Regxona deb atalgan. IX asrlarga qadar shahriston mudofaa devorlari bilan o'rab olingan va uning qaliligi 5–10 metrlargacha bongan, balandligi esa 20 metrcha bo'lган.

Mashhur sayyoh va olim Yoqt Hamaviy (1179 – 1229 y.) «Mo'jam al-buldon» nomli asarida al-Istahriyning Farg'ona haqidagi fikrini keltirib, shunday yozadi: «Agar siz shahar o'rtasidagi katta qo'rg'onga chiqib, undan Farg'ona atrofiga nazar solsangiz, xuddi qog'ozga chizilgan xaritaga yoki rangli suratga o'xshagan bir manzaraga ko'zingiz tushadi. Bu o'lkaning bosh shahri (poytaxti) Axsikatdir. Axsikat Farg'ona tomonda bir ulug' shahar bo'lib, Sayxun (Sirdaryo) daryosining yoqasidagi tekis go'zal vodiya joylashgan. Ulkan mudofaa istehkomiga ega muhtasham va mustahkam shahardir».

Shaharda belgilab qo'yilgan tartib-qoidalarga binoan har bir xonadonda yuvindi hamda oziq-ovqat qoldiqlari to'kiladigan alohida o'ralar qazilgan. Bu qoida o'sha davrdagi obodonchilik, tozalik, sanitariya-gigienaning asosiy talabi bo'lган. O'ralarning diametri 1 metrga qadar bo'lib, chuqurligi ba'zan 15 metrgacha yetgan. IX–XII asrlarda shahar qonun-qoidasiga muvofiq har bir xonadon o'z hovlisiga yuvindi va chiqindi uchun maxsus chuqurlar qazishi shart edi.

Arxeologik izlanishlar davomida shahriston hududida temir va mis eritadigan maxsus pechlar, hunarmandlarning ustaxonalarida esa metall toblaydigan o'choqlar, X–XII asrlarga oid erkaklar va ayollar uchun alohida qurilgan hammom qoldiqlari ham ochildi. Axsikent ustaxonalarida qurilish va xo'jalik uchun ishlataladigan oddiy metall buyumlardan tortib, to egilsa ham sinmaydigan, toshga solsa kesadigan, dunyoga dong'i ketgan qilichlar tayyorlangan.

Farg'ona vodiysining poytaxti Axsikent X–XI asrlarda juda katta maydonni egallagan gullab-yashnagan shahar bo'lган. Shaharda tengi yo'q qurilishlar qilingan. Jumladan, 14–15 kilometr uzoqlikdagi Kosonsoydan sopol quvurlar orqali suv olib kelingan. Shaharning hamma qismiga suv yetkazib beradigan o'ziga xos vodoprovod tizimi barpo etilgan. Bu quvurlar X asrning oxirlarida uzoq vaqtlar xizmat qilishga mo'ljallab qurilgan bo'lib, o'z davrining buyuk muhandislik inshooti bo'lган.

O'z zamonasining amaliy fanlariga tayanib faoliyat ko'rsatgan quruvchi ustalar bu ajoyib inshootni hozirgi metro qurilishi usulida

bunyod qilganlar deb arxeolog va tarixchilar tomonidan e'tirof etib kelinmoqda. Aslidachi aslida bu usuldagи inshootlarni zamonaviy metro usulida emas balki o'z ajdodlarimiz tomonidan me'morchilikning yuksak namunasi, ya'ni konstruktsiya qurilish texnologiyasi bilan birga aniq fanlarni uyg'unligi birikmasi desa mubolag'a bo'lmaydi. Chunki avlodlarimiz bizga nisbatan aniq fanlarni ham mukammalroq bilishgani ya'ni matematika, xandasa ilmini, geografiyani, astronomiya, kimyo, fizika fanlarini xadisini olganliklari ko'rinish turibdi.

Chunki oddiy gishtni terib qo'yish bilan ish bitmaydi. Buning uchun yer ostida va suvli yerlarga moslashtirilgan pishik gisht va unga mos keladigan qorishma bilan ishlov berilganligi uning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Bunga misol tariqasida ajdodlarimiz tomonidan qurilgan inshootlarning o'ziga xosligi ya'ni avvalombor uning qulay tarzda ko'rinishi, uning har qanday sharoitda ham tonnatta yuqlarni ko'tara olishi bu bir tomondan fizikaviy xossasi bo'lsa bir tomondan esa muxandislik-me'moriy va xandasa ilmining chukur bilimdonliklari ekanligini ta'qidlab o'tish joizdir. Bu uslubda me'morlarimiz oddiy aylanaga urinma o'tkazib ark, ya'ni shunday shakl xosil qilishganki bu bilan uning ko'rinishini chiroyli qilib, dizayni hamda yuk ko'tarish bardoshligini oshira olishga erishganligini guvohi bo'lamiz.

Shuningdek, Axsikentning shimoliy – g'arbida "Langarbibi" ziyoratgohi bor. Mazkur ziyoratgoh XVI asrga oid "Mavlono Lutfulloh manoqibi"da yozilishicha, XII asrga oid bo'lgan. Langarbibi esa Ahmad Yassaviyga zamondosh bo'lganligi qayd etilgan. Asarda qabrn "Momo xotun" ziyoratgohi, degan nom bilan qayd etilgan. Ushbu ziyoratgohda 3 ta qabr toshi mavjud bo'lib, uni sharqshunos, arxeolog va tarixchi Alijon Vohidov arab tilidan o'zbek tiliga o'girib, tarjima qildi. Xulosalarga ko'ra, mazkur yodgorlik o'z davrida e'tiborlik ahamiyatga ega bo'lgan. Ko'plab kishilar uni ziyorat qilganlar.

Mutaxassislarning fikricha, Axsikentdagи ushbu ziyoratgoh atrosida o'rta asrlarda shahar akobirlari-ulug'larining qabristoni joylashgan bo'lishi kerak. Chunki, qabrtoshlarini o'qish asnosida shunday xulosaga kelindi. Mazkur qabrtoshlarining egalari ham o'z davrida yetuk ilmli, obro'-e'tiborli shaxslar bo'lganliklari matnlari mazmunidan sezilib turibdi. Quyida ushbu matnlarning tarjimalarini

to'liq keltiramiz: **1-qabr toshi**. "Bu - shayx, imom, zoxidlardan biri, Istad ibn As'ad Muhammad ibn Asadning qabridir. Alloh ta'olo u kishini, ota-onalarini hamda butun mo'min va mo'minalarni mag'firat etsin". **2-qabr toshi**. "Bu - fozillar shahri podshohligining eng yuksagi, oliyjanob bosh vazir Mavlono Sayfulhaqqi vad-diyn-as-Samoniyl al Bobiy e'tirof etgan shayx, ulug' imom, olimu omil, fozilu komil, islom va musulmonlarning shayxi, podshoh va sultonlarning qimmatli maslahatgo'yi, dunyo imomlarining quyoshi Mavlono Qutbul millatiy vaddiyunning qabridir. Alloh ta'olo ularning har ikkilarini o'z roziligi va jannatiga noil qilsin va joylarini jannatda qilsin. U kishi 708 (760) yil, oylarning Alloh ta'olo eng mukarrami qilgan muharram oyida vafot etganlar". **3-qabr toshi (kufiy yozuvidagi)**. "Bu - imom, olimu zohid, ajoyib notiq, sunnat va dinning kuchli bilimdoni va ajoyib inson Umar ibn Muhammad ibn Mo'tasim al-Ulaviy-al-Balxiyning qabridir. Alloh ta'olo u kishini va duolarimizni qabul qil, deb so'ragan har bir kishini o'z rahmatiga olsin".

Axsikent direksiyasi a'zolari xususan T.Qozoqov va M.Mirsaydullayevlar ham shahar ulug'lari, o'tgan hokimlari, ulamolari va albatta Umarshayx mirzoning qabri ham shu yerda bo'lishi kerak, degan xulosaga kelishdi.

Parlamentlarning shakllanishi tarixidan

*Burgutali Kenjayev,
Nam DU talabasi.*

*Akmaljon Abdullayev,
Nam DU katta o'qituvchisi, ilmiy rahbar.*

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda zamonaviy parlament bosqichma-bosqich shakllandi. Oliy Majlis jamiyatdagi turli ijtimoiy tabaqalar irodasini ifodalash va ular manfaatlarini ro'yobga chiqarishning haqiqiy institutiga aylandi. Buning asosiy sababi shundaki, mamlakat hukumati va parlamenti hamjihatlikda ilg'or xorijiy tajribalarni, shuningdek, milliy an'analarni o'rganish asosida yildan – yilga parlamentchilik islohotlarini izchillik bilan amalga oshirib bordilar. Ayniqsa, o'z mamlakatlarida fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat barpo etgan davlatlar tajribasi sinch-kovlik va qunt bilan o'rganildi. Shuningdek, parlamentning kelib chiqish sabablari,

unga bo'lgan dastlabki zaruriyatlar, parlamentning siyosiy tizimdagagi o'rni chuqur o'rganildi. Shu bilan birga bu sohadagi islohotlar izchillik bilan davom etmoqda. Mamlakatda qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiylari mustaqilligini ta'minlash, ularning o'zaro muvozanatlashishi asosida jamiyat barqarorligining doimiyligiga erishish islohotlarning muhim va dolzarb yo'nalishiga aylandi.

Mamlakatda ikki palatali parlamentni shakllantirish borasida ilg'or tajribalar keng qo'llanilishi tabiiy holga aylangan. Islohotlarning hozirgi bosqichida ilk parlamentlarning paydo bo'lismi zaruriyatiga bo'lgan qizi-qishlar yanada ortdi. Ikki palatali parlamentlarning jumiyat va davlat hayotidagi ahamiyati va o'rnini anglab yetish uchun uning kelib chiqish sabablarini o'rganish, zamonaviy parlamentarizmning taraqqiyotini tadqiq etish zaruriyati tug'iladi.

Aslida, «parlament» so'zining o'zagi frantsuzcha «parler» dan kelib chiqqan bo'lib, u «so'zlamoq» yoki «gapirmoq» ma'nosini nglatadi. Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, parlament o'zining tarixiy ko'rinishlarida, asosan, fikr ifodalash va shu bilan davlat siyosatiga u yoki bu ko'rinishda ta'sir o'tkazish joyi bo'lib kelgan. Ammo bugungi kunga kelib, zamonaviy parlamentlar davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi oliy vakillik organi, siyosiy tizimning ajralmas tarkibiy qismi, mustaqil siyosiy institut sifatida shakllandi.

«Parlamentarizm» atamasiga to'xtaladigan bo'lsak, uning turli xil ma'nolari borligiga guvoh bo'lamiz. Ba'zi olimlar tomonidan parlamentarizm «hokimiylar bo'linishi tamoyili asosida boshqariladigan tizimda qonun chiqaruvchi hokimiyatning ustuvorligi»⁴³ sifatida ta'rif-laganlar. Biroq bu ta'rif «parlamentarizm» utamasining mohiyatini to'la ochib bera olmaydi. Odatda «parlamentarizm» deganda, parlament haqida, uning rivojlanishi va shakllanishi, faoliyat yuritishi haqidagi barcha qarash-lar, fikrlar va huquqiy me'yirlarning yig'indisi tushuniladi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, parlamentarizm bu ko'p qirrali universal hodisa bo'lib, har bir mamlakatda o'ziga xos ko'rinishiga ega.

Umuman, parlament nafaqat qonunchilik va vakillik funktsiyalari bilan, balki hokimiylar bo'linishi printsipini amalga oshirishi bilan

⁴¹Юридическая энциклопедия М.: 1997. – С.178.

ham ahamiyatlidir. Bu esa zamonaviy demokratiyaning eng asosiy shartlaridan bi-riga aylangan.

Ammo shuni ham alohida ta'kidlash joizki, ba'zi olimlarning fikricha, parlament o'zining konstitutsiya va qonunlarda belgilangan vakolatlari doirasida faoliyat yuritgan taqdirdagina u demokratiyaga xizmat qilishi mumkin.

Yevropa mamlakatlarida parlament palatalarining faoliyati ham, shakllanishi ham turlichadir. Bu sohadagi umumiylig shundan iboratki, quyi palatalarning tarkibini umumiy va to'g'ridan – to'g'ri saylangan deputatlar tashkil etadi. Shu bilan birga, saylovlarda tenglik va yashirinlik printsiplariga amal qilinadi. Parlamentlarni shakllantirish omili bo'lgan saylovlarning aksariyati majoritar tizimda amalga oshiriladi. Ya'ni, saylov okrugidagi deputatlikka nomzodlardan nisbatan ko'proq ovoz olishga muvaffaq bo'lgani deputatlik mandatini olishga erishadi. Bu saylov tizimi Buyuk Britaniya, Avstraliya, Kanada kabi ikki partiyaviylik tizimi amal qiladigan mamlakatlarda siyosiy barqarorlikni saqlash kafolatlaridan biridir.

Rivojlangan davlatlar parlamentlari tuzilishining an'anaviy tizimi bikameralizm (ikki palatali) bo'lib qolmokda. Yuqori palata dastlab aristokratiya vakilligi sifatida va quyi palata radikalizmini pasaytirib turuvchi posangi vositasi vazifasini bajarish uchun shakllantirilgan. Yuqori palata federativ davlatlarda keng tarqalib, ular asosan federatsiya sub'ektlari manfaatlari ifodachisi sifatida namoyon bo'ldilar.

Parlamentlarning ichki siyosiy vakolatlari cheklangan xarakterga egadir. Parlamentlar deyarli amalda tashqi siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga hal qiluvchi ta'sir o'tkazish imkoniyatlariga ega emaslar. Ular hukumatning tashqi siyosatini nazorat qilishda nisbatan ishtirok etishi va u haqda fikrlar bildirishi mumkin. Odatda, bu kabi funktsiyalar tashqi ishlar bo'yicha palatalarning qo'mita yoki komissiyalariga beriladi. Urush e'lon qilish va tinchlik masalalarii xal etishda ham parlament faqat rasmiy huquklarga egadir. Bu vakolatlar asosan hukumatlar qo'lida to'plangan. Parlamentning xalqaro bitimlarni ratifikatsiya va denonsatsiya qilish huquqiga kelsak, bu vakolat ham unchalik ta'sirli emas. Ko'pchilik holatlarda hukumatlar parlament tomonidan ratifikatsiya qilinmaydigan xalqaro bitimlar tuzishga haqlidirlar.

Kitob o'qish va madauliyat

Mo'tabar Eshmatova,

To'raqo'rg'on tumanlari 35-maktab o'qlituvchisi

Mustaqillik tufayli bizning ma'nnaviy qondriyatlаримиз, o'tmish ajodolarimiz qoldirgan meros, o'zining butun mukammalligida, qaychilanmasdan, "progressiv-reaktsion" atalmish zo'raki qoliplurga tiqishtirilmasdan tiklana boshladi. Qur'oni karim, hadisi shariflар birinchi marta o'zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi, Nosiriddin Rabg'uziy, Ahmad Yassaviy, Ubaydiy, Muhammad Rahimxon Firuz, Burxoniddin Marg'iloniy, Abu Mansur Moturidiy, Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon va boshqa "soviet davrida" hatto nomlarini eslash man qilingan allomalarimizning asarlari birin-ketin nashr etilib, chanqoq kitobxonlar qo'liga yetib kela boshladi. Bizgacha o'tmishdan yetib kelgan kitoblar ham ikki toifa – 1)ilohiy matnlarga tayanuvchi, ya'ni "vahiy" orqali yetib kelgan, 2)insoniy matnlar asosidagi, ya'ni insonlar ijod etgan kitoblar. Bulardan birinchilarining mazmuni azaliy va abadiy mohiyatga tutashadi, ikkinchilari esa muayyan zamon va makonda yashab o'tgan insonlarga tegishli bo'lgani tufayli, ayni o'sha zamon va makonning ta'siridan xoli emas, ya'ni ularga mutlaq haqiqat sifatida yondoshish noto'g'ri bo'ladi. Masalan, Qur'on oyatlari mazmuni o'zida mutlaq haqiqat sirini yashirgandir, ammo uning turli tafsirlari mufassirlar shaxsi bilan, ularning turlicha talqini bilan bog'liq. Xulosa qiladigan bo'lsak, Haq yo'lida qilinadigan har qanday ilm haqiqiy ilmdir va u inson ruhini poklashga xizmat qiladi, ilmda haqiqatdan har qanday chekinish esa jaholatga olib keladi.

Bugungi kunda mamlakatimizda 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustivor yo'nalishi buyicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha soxa va tarmoqlarda juda kata ishlar amalga oshirilmoxda yurtboshimiz tamonidan kitob mutaolasi va kitobxonlik madaniyatini oshirishga qaratilgan e'libor xalqimiz madaniyatida juda katta burilish yasadi. Kitob bu kishiga dust, kalblarni yorituvchi bir omildir. U insonni ilm olishga, to'g'ri fikrlashga, orzu qilishga undaydi, dunyoqarashini kengaytiradi o'zi tug'ilib o'sgan vataniga munosib farzand bulishda kitob o'qishning o'rni beqiyos.

To'raqo'rg'on tumaniga karashli 35-umumiy o'rta ta'llim maktabida ham katta ishlar amalga oshirilmokda shu maktabimizning ma'naviy va ma'rifiy ishlar buyicha direktor o'rindbosari Qozoqov

Nosirjon homiyligida har bir sinfda «Yosh kitobxon» tanlovi o'tkazib kelinmokda boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida kitobga bulgan kizikish ortib bormoqda.

Qozoqov Nosirjon g'olib o'quvchilarga xomiylik qilib har-bir g'olib o'quvchiga va qolgan sinfdoshlariga turli-xil badiy kitoblar sovg'a kilmoqda bundan o'quvchilar juda xursand bulishyapdi.

Qozoqov Nosirjon yana «Yosh kitobxon» tanlovidan tashqari maktabimiz kutubxonasiga 200-dan ziyod badiiy kitoblar sovg'a qildi va kutubxona fondini boyitdi. Har bir sinfda «sinf kutubxonasi» tashkil etildi. Bu musobaqa yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida ham «Eng yaxshi bilimdon» «Eng yaxshi kitobxon» nominatsiyalari buyicha o'tkazib kelinmokda. Aprel oyida maktabimizda Ota-onalar yig'ilishi bo'lib o'tdi yigelish kun tartibiga «Kitob mutaola madaniyati» mavzusi xam kiritildi bunda maktab direktori Nasrullo Egamberdiev so'zga chiqib ota-onalarga farzandlari uchun kitob olib ukishga bilimli bo'lishga oilada yaxshi sharoitlar kilib berishni aytib ota-onalarni kitob ukishga chorladi. Shu kuni maktabda kitob yarmarkasi tashkil kilindi majlis so'ngida ota-onalar uzlari uchun farzandlari uchun va nabiralariga turli xildagi kitoblar xarid kildilar. Ota-onalar ham bu xayrli ishdan juda mammun bo'ldilar.

Yosh kitobxonlar

Dilorom Mirzahmedova,

To'raqo'rg'on tumanii 35-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Kitob madaniy taraqqiyotning ilk bosqichida yuzaga kelgan badiiy va ilmiy tafakkur mahsulidir. Kitobning ilk ko'rinishini bugungi kitob shaklida tasavvur qilib bo'lmaydi. Kitob yaratish uzoq tarixga ega. Yozish uchun eng qadimgi materialdan biri tosh bo'lib, yozuv asbobi sifatida tosh pichoq ishlataligan. Bibliyada - "Chiqish" kitobida O'nta Amr to'g'risidagi hikoya bor. Bu hikoyada birinchi marta toshga o'yib yozilgan ilk yozuv to'g'risidagi ma'lumot uchraydi. Ammo bu kitob qachon yozilgani to'g'risida ma'lumotga ega emasmiz. Bizga yetib kelgan kitob namunalari shumerlar yaratgan "loy kitoblar"dir. Bu kitoblar miloddan oldingi to'rtinchi ming yillik o'rtalariga oiddir. Shumerlarning mixxati Yaqin Sharq va Kichik Osiyo mamlakatlari keng tarqalgan. XIX asr oxirida amerikalik olimlar qadimgi shumerlarning Nippur shahridan mixxatda bitilgan bir

necha mingta lavha topganlar. Nippur taxtachalari 62 xonaga joylashtirilgan ekan. Bu kutubxona kutilmagan kashfiyat bo'ldi. Ammo kutubxona olimlarni tashvishga solib qo'ydi. Chunki lavhalar - taxtachalarning uvalanib ketish xavfi bor edi. Taxtachalarni zax yerdan chiqarib olib, quyoshda quritdilar, keyin olovda pishirdilar.

Hozirgi kunda yoshlarni kitob o'qishga qiziqtirish, ularni har tamonlama ma'naviyatli qilib voyaga yetkazish muhim vazifalardan biri bo'lmoqda.

O'quvchi qancha ko'p kitob o'qisa, dunyoqarashi, mustaqil fikrlash qobiliyati kengayib boraveradi. Kitob o'qish borasida so'z ketganda eng kichik kitobsevarlarimiz bo'lgan 1-sinflarni bir o'rganib chiksak.

1-sinf o'quvchilari kitobni tushinib, ifodali va ongli o'qishlari asosan 2-yarim yillikdan boshlanadi. Sababi ular 1-yarim yillikda harflarni o'qishni va yozishni o'rganadilar.

Hozirgi kunda maktabimizda 4-ta sinf 1-sinflar tahsil olmoqda. Maktabning ma'naviy va ma'rifiy ishlar buyicha direktor urinbosari Qozoqov Nosirjon tashabbusi va homiyligi asosida 1-sinflar o'rtasida «Eng yaxshi kitobxon o'quvchi» deb nomlangan musobaqa tashkil etildi.

Musobaqada xamma 1-sinf o'quvchilari ishtirot etdi. Musobaqa 1-fevraldan 24-martgacha davom etdi. O'quvchilar har kuni yangidan yangi ertaklar o'qib o'rganib mazmunini so'zlab berdilar.

Musobaqa yakunida maktabda «Kitobxonlik» kechasi tashkil etildi. Kechada o'quvchilar Vatanni, ezgulikni madh etuvchi she'r, qo'shiqlar aytishdi. O'qigan ertaklarini sahnalaشتirib ijro etdilar.

Kechada so'zga chiqqan Qozoqov Nosirjon shunday dedi:

“...Maqsadimiz eng avvalo o'quvchilarni yaxshi ko'rish, ishonchiga kirish va rivojlanib borayotgan mustaqil O'zbekistonimizga munosib farzandlarni tarbiyalab berish, dunyoga tunitish. Prezidentimiz takidlaganlaridek, biz dunyoga ziyo, bilim bilan chiqamiz chunki bu yurtdan shunday insonlar chiqqan biz ham shu yo'ldan boramiz”.

Ushbu musobaqa o'quvchilarda katta taassurot koldirdi. Ular yana kitob o'qishga, dunyoga teran nazar bilan qarashga intilmoqdalar.

Darvoqe, musobaqa davom etmoqda. Endi ular «Kim ko'p she'r yod oladi» deb nomlangan musobaqada qatnashmoqdalar.

Ma'muriy huquqiy normalar va ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi

**Jumavoy Umarov,
Nam DU katta o'qituvchisi**

Davlat va huquq nazariyasi faniga ko'ra, huquq-ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etuvchi vosita sifatida, doimo muayyan xulq-atvor, xatti harakat qoidasi sifatida o'zini namoyon etadi.

Har qanday huquq tarmog'ining mazmun moxiyati va ijtimoiy yo'nalishi huquqiy normalar xususiyati bilan belgilanib, ularning yig'indisi huquq tizimi u yoki bu tarmog'ining mazmunini tashkil etadi.

Huquqiy norma (norma) so'zi lotincha so'zdan olingan bo'lib, qoida, namuna ma'nosini anglatadi. Har bir huquq normasi o'zida biron-bir xatti-harakat, xulq-atvor, muayyan yurish turish qoidasini ifodalaydi.

Huquqning har bir tarmog'i, shu jumladan, ma'muriy huquqning normalari har qanday huquq normasi uchun xos bo'lgan umumiyligi belgilarga, shuningdek, o'ziga xos bo'lgan xususiyatlarga ega.

Ma'muriy huquqiy normalar - muayyan xatti-harakat qoidalardan iborat bo'lib, davlat tomonidan belgilanadi, boshqa ijtimoiy normalardan, masalan ahloq normalaridan farqlanadi. Shu sababli, ularga rioya etish majburiy bo'lib, ular buzilgan xollarda davlatning majburlov choralarini qo'llaniladi.

Boshqa huquqiy tarmoqlarning normalari kabi, ma'muriy huquqiy normalar ushbu munosabatlar sub'ektlarining yuridik va majburiyatlarini aniqlash, shuningdek, ular tomonidan huquqlar buzilgan va majburiyatlar bajarilmagan xollarda javobgarlikni belgilash yo'li bilan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi.

Demak, ma'muriy huquqiy normalar ma'muriy huquqiy tarmog'ining boshlang'ich elementi sifatida, quyidagi umumiyligi xususiyatlarga ega:

Birinchidan- ma'muriy huquqiy normalar davlat tomonidan o'rnatiladi va ularning bajarilishi majburiy xisoblanadi;

Ikkinchidan, ma'muriy huquq tomonidan taribga solinadigan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining xulq atvorini, xatti-harakatini tartibga soladi;

Uchinchidan, ma'muriy huquq tomonidan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining yuridik huquqlari va majburiyatlarini aniqlab beradi;

To'rtinchidan, huquqlar buzilganda yoki majburiyatlar bajarilmaganda davlatning majburlov choralarini orqali ijtimoiy munosabatlarni himoya qiladi.

Ma'muriy huquqiy normalarning o'ziga xos xususiyatlari ma'muriy huquqiy predmeti hamda huquqiy tartibga solish uslubining xususiyatlari bilan belgilanadi.

Ma'muriy huquqiy normalar O'zbekiston Respublikasi huquq tizimi boshqa tarmoqlarining normalardidan farqli ravishda maxsus qo'llanish soxasiga ega bo'lib, bu davlat boshqaruvini tushkil etish va amalga oshirish jarayonidagi ijtimoiy munosabatlardir. Shu sababli ma'muriy huquqiy normalarning mazmunini davlat boshqaruvi jarayonida amal qilinishi shart bo'lgan xatti harakatlar doirasi tashkil etadi. Ular yordamida davlat organlari mansabdar shaxslar, xo'jalik vurituvchi sub'ektlar, jamoat tashkilotlari va jismoniy shaxslarning davlat boshqarushi soxasida kachon va qanday tartibda harakat qilganlarida qonunchilik talablari aniq va maqsadga muvofiq bo'lishi belgilanadi.

Shu bilan birga ma'muriy huquqiy normalarda qanday harakatlarni amalga oshirish mumkin va qaysilaridan o'zini tiyish kerakligi ko'rsatiladi.

Ma'muriy huquqiy normalarida amalga oshirilishi lozim bo'lgan harakatlarning bironta xolatiga ko'rsatma beriladi yoki unga belgilangan shart sharoitlarda rioya etilganida ruxsat beriladi va mixoyat muayan harakatlarni amalga oshirish man etiladi. Shu tariqa davlat boshqarushi soxasidagi ijtimoiy munosabatlar ishtirokchilarining davlat jamiyat va shaxs manfaatlariga muvofiq keladigan huquqlari va majburiyatlarini belgilash orqali ularning xatti harakatining o'matilgan huquqiy tartibi yaratiladi.

Ma'muriy huquqiy normalarning boshqa bir xususiyati shundan iboratki ular xususiy emas balki ommaviy manfaatlarini amalga oshirish vositasi xisoblanadi.

Ma'muriy huquqning tartibga solish ulubi bilan bulgilangan ma'muriy huquqiy normalarning alohida xususiyatlarga imperativlik (buyruq berish) xususiyati kiradi, ularda muayyan harakatlarni amalga oshirish uchun katiy Yozma buyruqlar, ko'rsatmalar mavjud bo'ladi.

Ma'muriy huquqiy normalarning imperativligi yana shunda ifodalanadiki, munosabatlar ishtirokchilari o'z ixtiyorlari bilan uning ko'rsatmalarini o'zgartirish huquqiga ega emas.

Bundan tashqari davlat boshqaruvi soxasida normativ va davlat hokimiyat xususiyatga ega bo'lgan ko'rsatmalar mavjud bo'lmasa ma'muriy huquqiy normalarni amalga oshirib bo'lmaydi.

Ma'muriy huquqiy normalarning imperativligi turli shakllarda ifodalanib, birinchidan, ma'muriy munosabatlar va ularni tartibga solish maqsadlariga; ikkinchidan, ushbu munosabatlar sub'ektlari huquqiy maqomining o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'ladi.

Ayrim xollarda ma'muriy huquqiy normalarning imperativligi to'g'ridan to'g'ri beriladigan ko'rsatma shaklida ifodalanib, ma'muriy munosabatlar sub'ektlari zimmasiga aynan shunday harakat qilish majburiyatini yuklaydi va shu bilan bevosita ishtirokchilar tomonidan munosabatlar shartlari hamda xususiyatini o'zgartirish imkoniyatini yo'qqa chiqaradi.

Boshqa xollarda imperativlik nisbatan yengil shakllarda namoyon bo'ladi. Bunda ma'muriy huquq normalari bajarilish shart bo'lgan harakatning bir xil ma'nodagi modeliga ega bo'lmaydi va u davlat boshqaruvi soxasida tartibga solinayotgan ijtimoiy munosabatlarning u yoki bu sub'ekt tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan harakatini nazarda tutadi. Bu birinchidan, ma'muriy huquq normalarida nazarda tutilgan xolatlardan birini tanlash imkoniyatini berish; ikkinchidan, o'z ixtiyori buyicha harakat qilish yoki harakat qilmaslik imkoniyatini berilishi, ya'ni ma'muriy huquq normalarida nazarda tutilgan harakatni amalga oshirish yoki uni amalga oshirishdan voz kechishdir.

Demak, ma'muriy huquqiy normalarning davlat boshqaruvi soxasidagi ijtimoiy munosabatlarga ularning turli ishtirokchilariga bo'lgan tartibga solish tasiri – faol harakat qilishni aniq belgilash, shuningdek, o'z ixtiyori buyicha, umumiy qoidalar doirasida, harakat qilish imkoniyatini berishdan iboratdir.

Innovatsion ta'limni shakllantirishda mediata'lidan foydalanish

D. Toshpo'latova, TDPU 2-bosqich magistranti

Tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan zamon o'z oldiga ko'p yangi bir muammolarni qo'yadi. Mana shunday dolzarb muammolardan biri glabollahuv jarayonidir. Globallashuv tushunchasi fransuz tilidan "global" umumjahon va lotin tilidan "globus" so'zidan olingan bo'lib, yer shari degan ma'nolarni anglatadi. Demak, glabolizatsiya atamasi yer yuzida yashayotgan insonlarning umumjahon sivilizatsiyalashuvi natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy jarayonlarni ifodalaydi. Global muammolarning yuzaga kelishining, asosiy sabablari jahon moliyaviy – iqtisodiy tanglik natijasida deb qaraladi. Bugungi axborot kommunikativ texnologiyalarning tez taraqqiy etishi natijasida paydo bo'lgan yangi global muammolardan biri yoshlar ongiga mediata'lism, mediamadaniyat, mediaaloqa tushunchalarini singdirishdan iborat. Shaxsning va madaniyatning o'zgarishi yosh avlodning jiddiy muammolarga duch kelishiga sabab bo'lmoqda. Bunday o'zgarishlar usosan ommaviy axborot texnologiyalari vositalarining ta'siri ostida sivilizatsiyaning taraqqiy etishi bilan bog'liq holda sodir bo'lmoqda. Bu borada kanadalik filosof olim Marshall Maklyuenning ajoyib kuzatishiga ko'ra, kommunikatsiya vositalari insoniyatga va jamiyatga o'z-o'zidan ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun kommunikatsion texnologiyalar maktab o'quvchilarida katta qiziqish uyg'otadi.

Globallashuv jarayonida media har xil aholi qatlamlari o'rtaida keng tarqalgan norasmiy ta'lim tizimidir. Media – bu jamiyatda to'g'ri va aylanma kommunikativ aloqa tizimi bo'lib, insonlar bilan vaqtincha o'zaro aloqadorlikni yuzaga keltiruvchi va ularni qiziqtiruvchi, chalg'ituvchi makondir.

Mediata'lism o'zi nima?

"Media" atamasi (lotin tilidap **media**, **medium** – qo'llanma, vositachi ma'nolarini anglatadi) – XX asrda dastlab ommaviy madaniyatni shakllantiruvchi vositalarga nisbatan qo'llangan. Yangi fenomenning vujudga kelishi natijasida, atamashunoslikda uning funksiyalarini taraqqiy ettirish, atama bilan bog'liq jihatlar va ilgari unvjud bo'lmanan asoslari yaratila boshladi. Ushbu kalit so'zning vujudga kelishi natijasida, "mediamuhit", "mediamadaniyat", "mediata'lism", "mediasavodxonlik" va h. atamalar ham qo'llanila

boshladi. Qisqa vaqt davomida mediamadaniyatni yevropalik olimlardan Arnxeym, A, Bazen, R. Bart, V. Ben'yamin, M. Fuko, J. Derrida, J.Delyoz, G.Debor, G.Markuze, T.Dj. Mitchell, J.Lakan, J. Bodriyyar, G.Polok, M. Maklyuen, S.Jijek, B. Groys, Ortega-i-Gasset va boshqalar nazariy jihatlarini tadqiq etgan. Fransuz sotsiologi P'era Bud'ening ta'kidlashicha, "mediamadaniyat" tushunchasini tayanch makonda har xil "kapital"larning yordami bilan bajaruvchi konvertlangan "ramziy kapital" ko'rinishida talqin etgan [1].

Mediamadaniyat – bu globallashuv jarayonida insoniyatning taraqqiy etishini doimo yangilab turuvchi, tayanuvchi va ko‘p tarmoqli madaniyatning ramziy media shakllari majmuidir. Mediamadaniyatning tarkibiy qismiga quyidagilarni kiritish mumkin: mediamadaniyat – "mediamuhit", "mediata'l'm", "mediasavodxonlik", "mediabozor", "mediaqurilish" kabi komponentlarning asosiy qismidir. Medianing asosiy komponentlari mavjud: mediamadaniyat, mediamuhit va mediata'l'm.

1. Mediamadaniyat – (media kulture) – media doirasidagi ma’naviy va moddiy boyliklar majmui, shuningdek, ijtimoiylashuvning qayta ishlab chiqarilishi, insoniyatning mediamadaniyat bilan o‘zaro munosabatini taraqqiy ettirish tizimidir. Media makon doirasida insonlar mediayaratuvchilikka intiladi, mediamatnlarni baholaydi, tahlil qiladi va qabul qiladi. Mediamadaniyat tushunchasi - axborot madaniyati (information kulture), video madaniyati (video kulture), audiovizual madaniyati (audiovizual kulture) kabi tushunchalarga yaqindir.

2. Mediamuhit – ko‘pgina media tushunchalari kabi, axborot almashinuvi jarayonida, kasbiy va ta’limiy tizimda madaniyatning yuksalish tizimi bo‘lib, axborot texnologiyalari asoslarida ta’lim va tarbiyani o‘z ichiga qamrab oladi.

3. Mediata'l'm – (ingliz. media education, lotincha. media – vosita). Ta’lim tushunchasi esa, ma’naviy va axloqiy, madaniy boyliklar doirasida kasbiy va ilmiy bilimlarni ishlab chiqaruvchi ijtimoiy institutdir [2].

Mediata'l'm ommaviy axborot vositalari (jamoatchilik, televidenie, radio, kino, internet va b.) orqali ta’lim oluvchilarga ob’ektiv qonuniyatlarni ko‘rsatadi. Mediata'l'mning asosiy vazifalaridan biri: yosh avlodni axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalanishga tarbiyalaydi, yoshlarning har

xil berilayotgan axborotlarni to‘g‘ri tushunishini, o‘zining mustaqil fikrini, jamoatchilik bilan o‘zaro munosabat madaniyatini shakllantiradi va kommunikatsion texnologiyalar yordamida inson ongiga ta‘sir etuvchi noverbal munosabatlarni yo‘lga qo‘yadi. Mediamaadaniyat jamoatchilikka aralashuvi natijasida iqtisodiyot va siyosatga kirib keladi, insonlarning tafakkurining ijtimoiylashuvini, dunyoga ko‘z qarashni, mustaqil va jamoaviy o‘zaro munosabatlarni shakllantiradi. Yoshlar ertangi kun odamlari ekanligini hisobga olsak, mediata’limning dolzarbligi, ahamiyati bilan birga yoshlar ongiga mediamaadaniyatni ham singdirib borish zarur.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, yoshlarning mediamaadaniyatini shakllantirishda axborot vositalari orqali yoshlar xotirasida chuqur iz qoldiradigan, ularni fikrlashga o‘rgatuvchi, diqqatini torta oladigan ko‘rsatuvarlar berilib borishi natijasida, yoshlar o‘zini-o‘zi nazorat qila olish, o‘ziga-o‘zi baho berish qobiliyatlarini shakllantiradi va jamoga moslashuv ko‘nikmalarini hosil qiladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Burde P. Rinok smvolicheskoy produksi P. Burde Sotsiologicheskoe prstranstvo Pera Burde [Elektronniy resurs]. 2007.- Rejim dostupa: <http://bourdieu.narod.ru>. – Data dostupa: 22.10.2011.

2. Guldilina S.I. Mediaobrazavanie: gramotnosti zritel’skaya kuleura. Obrazovatelnie texnologii XXI veka, OT 11. Maerialii X.I. gorodskoy nauchno-prakticheskoy konfrensi /pod red. Gudilinoy S.I., Tixamirovoy K.M., Rudakovoy D.T., Vasileyov N.I., - M.: 2011. S. 14-19.

3. Hasanboyev J., To‘raqulov X.A., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmonov N.U. Pedagogika fanidan izohli lo‘g‘at. – T.: “Fan va texnologiya”, 2009.

Boshlang‘ich sinflarda geometrik mazmundagi materiallarni o‘rgatishda inovatsion yondashuvlar

*D.Toshpo’latova,
TDPU 2-bosqich magistranti*

Hozirgi davrda “Texnologiya” tushunchasi keng qo‘llanilmoqda. “Texnologiya” tushunchasi fanga texnika taraqqiyoti bilan bog‘liq holda 1872 yilda kiritilgan bo‘lib, yunoncha “texnoz” – san‘at, mahorat, hunar va “logos” – fan so‘zlaridan tashkil topgan. Demak, u “hunar fani” ma’nosini anglatadi. Bugungi davrda “pedagogik

texnologiya” so‘ziga “yangi” so‘zining qo‘shib ishlatalishi ko‘plab uchramoqda va ayrim joylarda ulardan samarali foydalilmoqda. Bular endilikda zamonaviy o‘qituvchidan ta’lim-tarbiya jarayonida faoliyat ko‘rsatishda eskicha yondashish mumkin emasligini taqozo qilmoqda.

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da ta’lim-tarbiyaning maqsadini yangi yo‘nalishga burishga e’tibor qaratilgan bo‘lib, eskirgan metodlardan foydalanmasdan yangi pedagogik metodlar ishlab chiqib malakali kadrlarni tayyorlashni oldiga maqsad qilib qo‘ydi. Hozirgi paytda yangi pedagogik texnologiyalardan “Diagramma venna”, “Klaster”, “Kubik”, “Sankveyn” kabilar ishlatalmoqda. Boshlang‘ich sinflarda dars o‘tish jarayonida ulardan keng foydalanssa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Boshlang‘ich sinflarda matematika darslarini o‘tishda yangi pedagogik metodlardan foydalanishni maqsad qilib olish lozim. Metodlarni qo‘llashning asosiy maqsadi qilib o‘quvchilarining narsalarni bir-biri bilan solishtirish jarayoniga yangi pedagogik texnologiyani qo‘llashni maqsad qilib qo‘ydik. Ular mavzuni to‘liq, yaxshi o‘zlashtirib olishga imkon yaratadi.

Har bir pedagog o‘z darsini qiziqarli olib borish uchun o‘quvchilarining yangi mavzuni tez o‘zlashtirib olishlari uchun bu metodlardan unumli foydalanishga harakat qilish kerak. Boshlang‘ich sinfda matematika darslarini o‘tishda “Diagramma venna” metodidan samarali foydalansa bo‘ladi. “Diagramma venna” narsalarni bir-biri bilan solishtirish, farqli va umumiy tomonlarini topishni amalga oshirishga mo‘ljallangan bo‘lib, u o‘quvchilarda baholay olish, taqqoslash, solishtirish imkoniyatini yaratadi va ayniqsa o‘quvchilarda har bir narsani solishtirish orqali ularda tanqidiy fikrlash ko‘nikmalari shakllana boradi.

Bu metodni qo‘llashdan oldin o‘qituvchi mavzuni yaxshilab tushuntirgan bo‘lishi lozim. O‘quvchilar mavzu haqida ko‘proq tushunchaga ega bo‘lishi kerak. Metodni qo‘llashdan oldin o‘qituvchi o‘quvchilarga aniq ko‘rsatma berish kerak. “Diagramma venna” metodidan foydalanganda butun sinf jamoasi qatnashadi. O‘qituvchi doskaga avvalo “Diagramma venna”ning shaklini chizib ko‘rsatadi. Keyin o‘quvchilarga mazkur metodning qonun-qoidalarini tushuntiradi. Masalan: ikkinchi sinf matematika darsligida

“Ko‘pburchaklar” haqida tushuncha berishda “Diagramma venna”ni qo‘llab dars o‘tish haqida to‘xtalamiz.

O‘qituvchi doskada avvalo yangi mavzuni tushuntirib beradi, darsni mustahkamlash qismida “Diagramma venna”dan foydalanadi. Ikkinci sinf darsligidagi geometrik figuralarni asosan uchburchaklar, to‘rburchaklar va ko‘pburchaklar tashkil qiladi. “Diagramma venna”ni qo‘llashda shu geometrik figuralardan xohlagan ikki xilini tanlab oladi. Bunda o‘quvchilar uchburchak va to‘rburchaklarni tanlab oldi deylik. Shundan keyin o‘qituvchi doskani uchga bo‘ladi, ya’ni birinchi qismiga uchburchakni chizadi, ikkinchi qismi bo‘sh qoladi va uchinchi qismiga to‘rburchakni chizadi. Keyin o‘quvchilardan figuralarning xususiyligini so‘raydi va o‘quvchilar uytgan xususiy hollarni o‘qituvchi doskaga yozadi. Keyin “Diagramma venna”ni chizadi. O‘quvchilarga tushuntirgan holatda ulardagи xususiy va umumiy holatlarni yozadi.

O‘qituvchi tomonidan bu jarayon qo‘llab-quvvatlanib va yo‘naltirilib turiladi. O‘quvchilar bilan birga uni yakunlab, umumiy xulosaga kelinadi. So‘ngra muhokamaga o‘tiladi. O‘yinda faol ishtirok etgan o‘quvchilar rag‘batlantiriladi va baholanadi. Bu maqsadni ko‘zlab dars o‘tgan o‘qituvchi birinchi o‘rinda o‘quvchilarni darsga qiziqtira oladi, ularni izlanishga, topqirlikka, chaqqon bo‘lishga, so‘zga chechanlikka o‘rgatadi. O‘quvchilarning har bir narsaning nozik tomonlarini o‘zlashtirib olinishiga erishiladi.

Bugungi kunda olib borilayotgan va hayotimizda qo‘llanilayotgan yangi pedagogik texnologiyaning bosh maqsadi yangi pedagogik texnologiyalardan ishlab chiqilayotgan metodlarni zudlik bilan amaliyatga tadbiq qilishdir. “Diagramma venna” metodini qo‘llaganda hakorlikka, tanqidiy fikrlashga, fandagi izchillikka, munozarani rivojlantirishga, bir-birining qimmatli fikr-mulohazalarini ilgari surishga va hammasini o‘z ichiga oluvchi erkin fikr yuritishga o‘rganadilar. Bu metod asosan ta’lim-tarbiyada o‘qituvchining yakka ishlashiga chek qo‘yib, o‘quvchilar bilan birga ishlab pedagogik hamkorlikni yuzaga keltiradi. Yangi pedagogik texnologiyalarda ishlab chiqilayotgan metodlarni har bir fanga qo‘llash mumkin. Har bir mavzu, bo‘lim, bob tugatilganda ularni umumlashtirish uchun “Diagramma venna”dan foydalilanadi. Matematika fanidan tashqari ona tili, tabiatshunoslik, o‘qish darslarida ham bu metoddan unumli foydalansa bo‘ladi. Masalan: ona tili darsida har bir mavzu tugaganda

“Diagramma venna”ni qo’llab mustahkamlash mumkin. Tabiatshunoslik fanida juda keng qo’llaniladi, chunki darslikdagi hayvonlarni, o’simliklarni, tuproqlarni, ob-havoni solishtirish eng qiziqarli bo’ladi. O‘qish darsida esa mustaqil o‘qish davrida, bo‘limlar tuga tilganda juda keng foydalilaniladi.

Xulosa o‘rnida ta’kidlash joizki, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini innovatsion ta’lim texnologiyalari bilan qurollantirish, ushbu sohada yana bir innovatsiyani yaratib, hozirgi zamon talablari va jahon ta’lim standarti talablari darajasidagi milliy kadrlar tayyorlash asoslaridan birini yaratgan bo‘lamiz va ushbu innovatsiya orqali talabalarni ijodiy fikrlashga va yangilikka intilishga o‘rgatamiz, ularning tafakkur doirasi yuksalishiga va nihoyat dunyoqarashi muntazam ravishda kengayib borishiga sharoit yaratgan bo‘lamiz.

Foydalanaligan adabiyotlar ro’yxati:

1. To‘raqulov O.X. Axborotlashtirilgan ta’lim muhitida ta’limni boshqarish. O‘quv-metodik qo’llanma. – T.: “Fan va texnologiya”, 2010.
2. To‘raqulov O.X. Axborotlashtirilgan ta’lim muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashning ilmiy-metodik ta’minoti. Monografiya. – T.: “O‘MKHTTKMO va O‘QTI”, 2010. – 156 b.
3. To‘raqulov X.A. Pedagogik tадqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari. Monografiya. – T.: “Fan”, 2007. – 248 b.

Mas’ullik hissi

*Tohirjon Qozoqov,
Nam DU dotsenti, tarix fanlari nomzodi.*

Mamlakatimizni rivojlantirishning 2017–2021 yillarga mo’ljallangan beshta ustuvor yo’nalishi bo'yicha qabul qilingan Harakatlar strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ishlari kishilarda o’ziga xos mas’uliyat va daxldorlik hissini shakllantirmoqda.

Jamiyatda islohotlar davom etar ekan, bu mamlakatdagi ijtimoiy o’zgarishlardan, taraqqiyot sari ildam qadam tashlanayotganligidan dalolat beradi.

O'zini shu xalq, yurt farzandi, deb atagan har qanday inson bunday jarayonlardan chetda tura olmaydi. Bu borada ziyolilarning mas'uliyati yanada yuksakroqdir.

Keyingi paytlarda respublikamiz rahbariyati tomonidan ijtimoiy sohaning turli jahbalariga oid ko'plab huquqiy – normativ hujjat, farmon, qarorlar e'lon qilindi. Jamiyatning har bir ongli fuqarosi ushbu qonuniy hujjatlar asosida o'z mas'uliyatini his qilib yashashi, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda fidoyilik qilishi bugungi kum talabidir.

Mustaqillik yillarda tarixiy-madaniy yodgorliklarni o'rganish va tadqiq qilish, ajdodlarimiz tarixi va ular qoldirgan boy ilmiy merosni asrab-avaylagan holda kelajak avlodga yetkazish bo'yicha samarali ishlar olib borilmoqda. Xususan, bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 may "**Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi qarorini alohida ta'kidlab o'tish joizdir.

Qarorda "...qo'lyozmalarni saqlash, ta'mirlash, mavjud fondlarni boyitib borish, tarixiy manbalar bilan ishlash uchun mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarga qulay sharoitlar yaratish, tarixiy-madaniy merosimiz namunalarini har tomonlama chuqur o'rganish, buyuk noloma va mutafakkirlarimizning jahon ilm-fani va tsivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan beqiyos hissasini targ'ib etish, shu asosda yurtdoshlarimiz, avvalo, yosh avlodimizni xalqimizning buyuk ma'naviy merosiga hurmat, ona yurtimizga mehr va sadoqat ruhida turbiyalashga qaratilgan ishlarning natijadorligini tubdan oshirish bo'yicha dolzarb vazifalar turganini alohida ta'kidlash..." lozimligi ko'rsatib o'tilgan.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, Namangan viloyati ziyolilari, ilm fan fidoyilari ham ushbu qaror doirasida muhim ishlar ro'yobini boshlab yubordilar. 2017 yilning 3 avgustida Prezident Shaykat Mirziyoev mamlakatimizning ijodkor ziyolilari vakillari bilan bo'lgan uchrashuvdagi adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish borusidagi fikrlari, tanqidiy mulohazalari, takliflari bilan matbuot saliflari orqali tanishdik.

Ma'ruzada aytib o'tilgan tanqidiy fikrlardan, bildirilgan takliflardan tegishli xulosalar chiqarib faoliyat yuritish ayni davr talabi

hisoblab, ma'naviyat sohasi vakillari oldiga ulkan mas'uliyat yuklaydi.

Yaqinda Respublikamiz telekanallarida Ozodbek Nazarbekov tomonidan tayyorlangan Jaloliddin Manguberdiga bag'ishlab namoyish etilgan klip deyarli barchaga manzur bo'ldi. Kishilarda vatanparvarlik, insonparvarlik hissiyoni uyg'otadigan, ma'naviy saviyasini boyitadigan ana shunday kliplar, hujjatli va badiiy fil'mlarni yaratish vaqt vaqt allaqachon keldi.

Bugungi kunda ishlanayotgan fil'mlarni deyarli barchasi oilaviy mojarolarga bag'ishlangan siyqa, sayoz maishiy mazmundadir. Shu fil'mlarni jahon sahnasiga "Mana shu o'zbek millati turmush tarzidan bir lavha, tanishing", deb tavsiya etish mumkinmi? Yoki dunyoning turli burchaklarida istiqomat qiladigan boshqa millat vakillari bu mojarolarni mazmun-mohiyatini tubdan tushunib, baho bera oladimi? Shu sarflanayotgan mablag'larni tarixiy fil'mlar yaratishga sarflasak bo'lmaydimi?

Bugungi kun tarixchi olimlarimiz oldida har qachongidan ham dolzarb, ulkan vazifalar turibdi. Avvalo, tarixchilar asl manbalarga tayangan holda yurtimiz tarixini, atoqli shaxslar hayot-saoliyatini yoritib berishlari lozim. Shu asosda tarixiy-badiiy asarlar undan keyin tarixiy va hujjatli fil'mlar paydo bo'ladi.

Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida ana shu masalaga, ya'ni ulug' ajdodlarimiz, shonli tariximizga bag'ishlangan badiiy fil'mlar yaratib, dunyo ekranlariga chiqish lozimligini alohida ta'kidlab o'tdilar.

Manbalar yetarli, faqat o'qib, ehtiroslarga berilmagan holda, asosli hujjat va dalillar bilan tarixiy-ilmiy asarlar yaratish kerak. Bugun har bir mutaxassis o'z sohasi muammolarini boshqalardan ko'ra yaxshiroq biladi. Shu bois, mazkur müammolar yechimini ham o'z o'rnida izlash uning vazifasi hisoblanadi.

Tarixchi sifatida aytishim mumkinki, manbalarni yaxshi o'rganmasdan chop etilayotgan asarlar, bildirilayotgan fikrlar ham uchrab turadi. Masalan, Zahridin Muhammad Bobur tarixiga bag'ishlangan ba'zi asarlarda 1499 yil Boburga Andijon taxtini uning g'animplaridan tortib olib bergen shaxs, uning ukasi Nosir mirzo ekanligi aytib o'tilgan. Biroq, "Boburnoma"ni o'qigach, mazkur shaxs boshqa inson ekanligi ma'lum bo'ladi: "...Sohib tajriba kishi edi, mardonialig'i ham bor edi.Nosirbekni va o'g'lonlarinikim, Do'stbek va Mirimbek bo'lg'ay, ko'rub, so'rub inoyat va shafsqatdin

umidvor va sarafroz qildim...”. Boburning ukasi Nosir mirzo bu paytda 12 yoshli o’smir edi. Vaholanki, Bobur Nosir mirzoni Do’sbek va Mirimbek kabi o’g’illari bor ekanligini yozadi. Andijon taxtini Uzun Hasandan tortib olib, Boburga topshirgan kishi uning ukasi emas, balki unga ismdosh bo’lgan Nosirbek nomli boshqa bir bek edi.

Shuningdek, Farg’ona vodiysini mo’g’ullar tomonidan bosib olinishi ham manbalarga tayanmagan holda yozilgan. Vodiydagи shaharlar tarixi yozilgan kitoblarni varaqlasangiz, deyarli barchasida shaharni mo’g’ullar vayron qilganligi yozilgan. Ma’lumotlar qaysi manbadan olingen? Qaysi mo’g’ul lashkarboshisi kelgan? Qachon kelgan? Qaerda jang bo’lgan? Kimlar Farg’onada hokim edi? Bu haqda qaerda yozilgan? Mualliflar bu savollarga javob berishlari uchun birlamchi manbani o’qishlari kerak. Asl manbalarda esa, Farg’onani mo’g’ul davlati tarkibiga kirishi boshqacha yoritilgan. Bu alohida mavzu bo’lgani uchun biz unga hozircha to’xtalmaymiz.

Madaniy-ma’rifiy sohada qiladigan ishlarimiz, o’nglanishi lozim bo’lgan muammolar talaygina. Yana shu narsaga ham diqqat joizki, bugun ayrim ijodiy guruhlar tomonidan ommaga “ko’ngilochar”, deb taqdim etilayotgan sahna ko’rinishlari bachkanagarchilik va insonlarning juz’iy kamchiliklari ustidan kulishdan iborat xolos. San’at kishilarning ma’naviy barkamolligi va insoniy fazilatlarni shakllantirish hamda yuksaltirish uchun xizmat qilishi darkor. Yaqinda “QVZ”, deb atalmish ijodiy guruhlardan birining kelin tanlash masalasida tomoshabinlarni kuldirish uchun taqdim etilgan sahna ko’rinishlaridan birida ko’rish darajasi past, ko’zoynak taqadigan qiz mashara etib tasvirlandi. Shuni unutmaslik kerakki, nogironlik yoki jismoniy nuqsonli bo’lish, bu oru-havas qiladigan ish emas. Sog’lig’ida ojizligi tufayli qizlar ne-ne hijolatlar bilan ko’zoynak taqishlarini, hayotda bu borada biroz tortinib yashashlarini, davolanish uchun qanchadan-qancha mablag’ sarflab yurishlarini bu savodsiz va hayosizlar bilarmikanlar? Insonlarni kuldirish uchun boshqa mavzu topilmadimi? Qani bu yerda insonparvarlik, qani o’zgalar dardi bilan yashash? Ommaviy axborot vositalarining asosiy vazifasi – kishilar o’tasida insonparvarlik, odamiylik, mehr-muhabbat g’oyalarini tarqatishdan iborat emasmi? Ular bundan nima maqsadda foydalanishmoqda? Mir Ammon Dehlaviyning asarlarida: “Dil dardini olmoq uchun yaralgandir bu

inson, yo'qsa u siz ham to'la jonivorlarga jahon”, degan ekanlar. Bu kabilarni shoir tasvirlagan mahluqlardan qanday farqi bor? Yuqoridagi kabi sahna “korchalonlari” o'z chiqishlari bilan “Ommaviy madaniyat” targ'iboti uchun zo'r xizmat qilayotganliklarini nahotki bilishmasa? O'z vatandoshi, millatdoshi ustidan o'rinsiz kulish, hajv qilish, uning qadr-qimmatini yerga urish, ta'bir joiz bo'lsa, bu ham Vatanga va millatga hiyonat qilishdan kam emas.

Umuman olganda, chiqarilayotgan qarorlar, farmonlar ijrosini ta'minlanishiga, islohotlarni izchil davom ettirilishiga har birimiz munosib ulushimizni qo'shishimiz shart va bu bizning fuqarolik burchimiz bo'lishi bilan bir qatorda, vijdon amriga ham aylanishi kerak.

Namangan viloyati arxeologiyasi

*Ne'matjon Sharipov,
Tariixchi-arxeolog.*

Arxeologiya, tarix fanining bir tarmog'i hisoblanadi. Kishilikning uzoq o'tmishi faqat arxeologik ma'lumotlar asosida o'rganiladi.

Arxeologik yodgorliklari moddiy tarixiy manbalur bo'lib, ularni o'rganish bilan kishilik jamiyatining o'tmishi yoritiladi. Bizning viloyatimizda ham arxeologik yodgorliklar ko'p. To'raqo'rg'on tumanida – Axsikent va Aksi, Pop tumanida Munchoqtepa, Chust tumanida Buonomozor, Kosonsoy tumanida Mug'tepa, Uchurg'on va Norin tumanlarida Kayvonot va Eyloton, Chortoq tumanida qadimiy irrigatsiya qurilmalari-korizlar muhim arxeologik yodgorliklar sifatida katta ilmiy qiymatga ega bo'lib, uzoq o'tmishdan xabar berib turadi.

Jumladan: «Munchoqtepa» arxe-ologik yodgorligidir. 1989 yilda Namangan viloyatining Pop tumani xududiga qurashli Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan Munchoqtepa, eng noyob topilma, arxeologlar tomonidan kashf etildi.

Ushbu arxeologik yodgorliklarni B. Matboboev boshliq Namongan arxeologiya ekspeditsiyasining Pop otryadi xodimlari o'rganib chiqishdi. Chustdagi G'ovasoy, Kosonsoy sohilidagi Tergachi, Qoradaryoning irmoqlaridagi Dalvarzin, Ashqoltepa, Chimboy va boshqa qadimiy qishloqlarning xirobalaridan topilgan

o'ziga xos guldor sopol buyumlarni alohida arxeologik madaniyatga ajaratish mumkin.

Bu madaniyat – Chust madaniyati deb ataladi. Eng birinchi o'rGANilib, fanga kiritilgan Chust davri yodgorliklarini Farg'ona vodiysida topilgan xarobalari tarixiy – arxeologik xronometriya jihatidan so'nggi bronza (jez) davriga mansubdir.

Chust madaniyatiga mansub aholi o'troq hayot kechirgan. Ular so'g'orma dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanishgan. Dehqonchilikda bug'doy, arpa va tariq ekishgan, xo'jalikda ot, qoramol, qo'y, cho'chqa, it saqlanganlar hamda soyg'oq, kiyik, tog' echkisi kabi yovvoyi hayvonlarni ovlaganlar.

Chust madaniyatiga mansub xalq irqiy jihatdan yevropaliklar tipiga mansub bo'lib, diniy e'tiqodiga ko'ra otashparastlar bo'lgan.

Chust shahridan 2 km shimolida G'ovasoy sohilida ko'hna tepalik bo'lib, xalq tilida Buonomozor nomi bilan yuritiladigan bu manzilgohni 1950 yilda arxeolog E.Voronej kashf qilgan bo'lib, 1951-1961 yillarda arxeolog V.I.Sprishevskiy tomonidan o'rGANildi.

Eramizdan avvalgi III – asrning oxiri, eramizning II – asrining boshlariga kelib Markaziy Osiyoda eng qudratli davlatlardan biri Kushon imperiyasining shimoliy hududlarida joylashgan qadimgi Koson shahri hozirgi Kosonsoy shahrining shimol tomonida barpo etilgan edi. Hozirgi vaqtida bu shahar poytaxt o'rni Mug'tepa nomi bilan atalib, bu yerda o'tgan asrning 50-80 yillarda Sankt – Peterburg (Leningrad) lik mashhur arxeolog olim Yu.A.Zadneprovskiy rahbarligida bir guruh arxeologik olimlar borib, ilmiy qazish ishlari olib bordilar. Olib borilgan ishlar natijasida qadimgi qal'a shahar xarobalari va uni o'rab turgan mudofaa devorlari qoldiqlari topilgan.

Namangan viloyatining Jomasho'y-Shaxand avtomagistral yo'lida Sirdaryoning o'ng sohili bo'ylab Sharqdan-G'arbga yastanib yotgan, asrlar osha sukut saqlab o'z tadqiqotchilarini kutib turgan qadimiy shahar xarobalari mavjud.

Bu arxeologik yodgorlik xalq tilida eski «Aksi» yoki «Aksi» nomi bilan atalib kelinadi. 1989 yil yoz oyida Namangan viloyatining Pop tumani xududiga qarashli Sirdaryoning o'ng sohilida joylashgan «Munchoqtepa» deb atalgan joyda O'rta Osiyoda keyingi 30 yil mobaynida aniqlanmagan eng noyob topilmalar arxeologlar tomonidan kashf etildi.

Pop yozma manbaalarida ilk bor arab geograflari va sayyoohlari tomonidan «Bop» deb tilga olingen. Qadimgi Pop shahri hozirgi Sang qishlog'i o'rnida miloddan avvalgi 2 va milodning 3 asr oralig'ida mavjud bo'lgan deyiladi. Munchoqtepa topilmalari esa Pop shahri yoki qo'rg'oni qachon va qaerda bo'lganligini aniqlashga imkon beradi.

Binobarin, Pop shahri eramizning boshlarida Sirdaryoning o'ng sohilida hozirgi G'ovasoy vohasining joylaridan birida vujudga kelganligi ma'lum bo'lmoqda.

Shahar markazining juda oz qismi, ya'ni «Arki a'llo» va ichki shaharning saqlanib qolgan qismlari xalq orasida baland tepe deb ataladi.

Tashqi shahar territoriyasida esa faqat Nekropol shahar qabristoni saqlanib qolgan, xolos. Mahalliy aholi yerni qazish vaqtlarida ko'rinish qolgan turli munchoqlarga nisbat berib uni Munchoqtepa deb ataydilar.

Munchoqtepa 4 ta bir-biriga tutashgan tepalik bo'lib, ularning ikkitasi so'nggi yillarda paxtazor dalaga aylantirilgan. Ikkitasi - shikastlangan bo'lsada boy arxeologik materiallar bermoqda.

Kimyogar arxeolog Sharif Ilxomov boshchiligidagi xodimlar qazish ishlari jarayonida sag'anaga duch keldilar.

Sag'anada 47 ta tobut taxlangan holatda qo'yilib, shundan 22 nafari butun xolatda kovlab olindi.

Tobutlar tekshirib ko'rilinganda, ichida ust-boshlar, qurol - yaroqlar, zebu-ziynatlar va asbob uskunalar bor edi.

Hattoki tobut ichiga turli savatlarda oziq - ovqat, qo'y va parranda go'shtlari, mevalar, pista va yer yong'oqlar ham qo'yilgan.

Arxeologik qazishmalar natijasida 80 ga yaqin kulolchilik buyumlari topilishi o'sha vaqtdagi kulolchilikni rivojlanganligidan dalolat beradi. Shu jumladan qazilmalar ichida to'quv dastgohlari, tikuvchilik ish qurollari, turli yog'och buyumlar, torozilar, hayvon suratlari tushirilgan qurol aslahalar, kosibchilik namunalari, bronzadan yasalgan xalqalar o'sha davr hunarmandchiligi to'g'risida ma'lumot beradi.

Aksi shahri 1620-yilda ro'y bergan va vasqulotda kuchli zilzila oqibatida halokatga uchragan. Xijriy yili bilan 1030 yilda Aksi viloyatida shunday zilzila bo'ladiki, Sirdaryodan chayqalib chiqqan suv daryo chetidagi dalalarni bosib ketdi, suv bilan chiqarib

tashlangan baliqlar qirg'oqda tipirchilab so'ngra o'ldi. Kattu daraxtlar ildizi bilan yulinib, yerga qulab tushdi. Imoratlar qattiq va tez-tez sodir bo'lib turgan zilziladan vayron bo'lib, ko'p odam yiqligan imoratlar ostida qolib o'ldi. Ko'p odamning oyoq-qo'li sindi, hayvonlar qo'rquinchdan dalalarga qarab qochdi. Olti oygacha zilzila shunday bo'lib turdi. Birinchi kuni zilzila 70 martagacha borib yetdi. Shunisi qiziqki, eng qattiq zilzila Aksi qo'rg'onining ichida bo'lib atrof qishloqlarda uncha qattiq bo'lindi. Shahardan bir farsat (17 chaqirim) yerda hech qanday tovush eshitilmadi. Ana shu vayronagarchiliklardan so'ng Aksi qal'a shahri qayta tiklanmadı. Omon qolgan aholi atrof, chekkalarga ko'chib ketdi.

Axolining ma'lum bir qismi, asosan ziyyolilar, xunarmandalr, ilm-fan sohiblari Namongonga kelib o'rnashib keyinchalik bu joyni shahar maqomiga aylanishiga sababchi bo'lishgan.

Shunday qilib, 1640-yildan boshlab fan, madaniyat, savdo-sotiq sohalari rivojlangan Namangan shahri tarkib topdi.

Maktablarda o'lkashunoslik va arxeologiya to'garaklarini tashkil etish va uning ahamiyati

Alijon Vohidov,

Axsikent direktsiyasi ilmiy hodimi, tarixchi.

Namangan viloyatida ko'plab tarixiy-arxeologik yodgorliklar mavjud. Ularni o'rganish, tadqiq va targ'ib qilish dolzarb vazifalardandir. Bu borada yosh mutaxassislarni tayyorlash muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur masalaga avvalombor maktab sharoitida jamoatchilik asosida yondoshiladi.

Maktabda bu borada arxeologiya, tarix, etnografiyaga oid tadqiqotlar olib boradigan to'garaklar tashkil etish ayni muddao bo'ladi.

Maktab o'lkashunosligi ikkiga bo'linib, o'quv jarayonida (o'quv dasturi asosida) va dasturdan tashqari (maktabning tarbiyaviy ishlari rejasiga asoslangan holda) amalga oshiriladi. O'quv jarayonida (sinfdagi) olib boriladigan o'lkashunoslik ishlari ham ikki maqsadni ko'zlaydi. Biri – o'z o'lkasining o'tmishini arxeologik, etnografik, toponomik, qo'lyozma asarlar va arxiv xujjalari asosida o'rganish va o'lkashunoslik materiallarini bir tizimga solish; ikkinchisi to'plangan o'lkashunoslik materiallaridan tarix hamda inson va

jamiyat darslarida foydalanish. Sinfda olib boriladigan o`lkashunoslik ishlariga barcha o`quvchilarining ishtirok etishi majburiyidir.

Maktab o`lkashunosligi tarix hamda inson va jamiyat fanlaridan olgan bilimlarni oydinlashtiradi, kengaytiradi hamda har xil fanlarning o`zaro aloqasini ta'minlaydi.

Maktab o`lkashunosligi tarixiy obidalarni saqlash va himoya qilish, qadimiy manzilgohlarni topishda ham katta rol' o`ynaydi. U jamoa bo`lib yashash, ishlash va ijod qilishga o`rgatadi. O`quvchilarda sinchkovlik, tirishqoqlik, tevarak-atrofga havas bilan boqish, tadqiqotga qiziqish, Vatanni sevish va uni ardoqlash hislari shakllanib boradi.

Darhaqiqat, maktab o`lkashunosligi o`quvchilarda o`z Vataniga mehr uyg`otish bilan birga, ularni estetik ruhda tarbiyalashga xdm munosib hissa qo`shadi.

Vatanga bo`lgan mehr tuyg`usi o`z o`lkasini o`rganishdan boshlanadi. Maktab o`lkashunosligida ana shunday tuyg`u shakllanadi.

O`lkashunoslik uch turga bo`linadi: 1)ilmiy, ya`ni davlat o`lkashunosligi; 2)jamoat o`lkashunosligi; 3)maktab o`lkashunosligi. O`lkashunoslikning har uchala turi o`zaro bir-biriga aloqador bo`lib, biri ikkinchisini to`ldiradi.

Davlat o`lkashunosligi bilan respublika tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish hamda ulardan foydalanish qo`mitasi, muzeylar, respublika Fanlar akademiyasi qoshidagi tarix arxeologiya ilmiy-tadqiqot institutlari shug`ullanadi.

Jamoat o`lkashunosligi qishloq, ovul, qo`rg`on, tuman, shahar, viloyat hududidagi tarixiy obidalarni saqlash va asrash ishlariga boshchilik qilish bilan birga joylarda istiqomat qilib turgan xalqlarning kelib chiqishlari (etnogenezi), urf-odatlarini o`rganadi hamda ilg`or mehnatkashlar, Mehnat qahramonlari xotirasini abadiylashtirish uchun haykallar, mangu olovlar, hurmat taxtalari tashkil qiladi. Bundan tashqari jamoat o`lkashunosligiga mustaqil ravishda tanga pullarni o`rganuvchi mutaxassislar — numizmatlar, muhrlarni o`rganuvchilar sfragistlar, tamg`a (gerb)larni o`rganuvchilar — geraldistlar, tosh, metall, sopol va yog`ochdagи yozuvlarni o`rganadigan olimlar-epigrafistlar, eski asbob-uskunalar va quroq-aslaha hamda shu kabi narsalarni to`plovchilar ham uyushadi.

Maktab o'lkashunosligi esa maktablarda tarih inson va jamiyat fani o'qituvchilarining bevosita rahbarligida tashkil qilinadi. Maktab o'lkashunosligining a'zolari V-X (XI) sinflarning eng intizomli va a'lochi o'quvchilaridan tuzilib, ular o'lka materiallarini to'rt guruhga bo'lingan holda to'playdilar. To'plangan arxeologik, etnografik, toponimik va arxiv hujjatlari maktab o'lkashunoslik va tarix muzeylearida namoyish qilinadi.

Maktab o'lkashunosligi ta'lim-tarbiyani turmush, ishlab chiqarish, yangi jamiyat qurish tajribasi bilan uzviy bog'liq holda o'r ganadi. O'qitish jarayonida o'lka materiallaridan o'rinni foydalanish o'quvchilarning o'z o'lkasi tarixini bilib olishga, chuqr bilim olishga, mustaqil ijod qilishga bo'lgan qiziqishini orttiradi va kelgusi hayot yo'lini tanlab olishga yordam beradi. Maktab o'lkashunosligi fanlar o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi hamda o'qituvchi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. U dastur asosida, o'z a'zolarining bilim darajasi hamda ijodiy qobiliyatlarini hisobga olgan holda (iloji boricha mutaxassislarning maslahatlari va ko'rsatmalari asosida) tadqiqot o'tkazish ishining rejasi va ish hajmi hamda uslubini ishlab chiqadi. O'lkashunoslikning butun muvaffaqiyati shu ishga raxbarlik qilayotgan o'qituvchining bilimiga va tashkil qila olishiga bog'liq. Agar o'qituvchi o'z o'lkasini yaxshi bilsa, bu haqdagi og'zaki va yozma manbalarni muntazam o'r ganish bilan birga o'quvchilarning ota-onalari, keksalar, o'lkashunoslik tashkilotining xodimlari bilan suhbatlar olib borib, pedagogik mahoratini ishga solsa, o'quvchilarning faolligi ortib boradi, o'tilgan materiallarni to'liq o'zlashtirish bilan birga uni hayotga ham tatbiq qila boshlaydi. Natijada o'quvchilarning puxta bilim olish bilan birga o'z o'lkasiga bo'lgan mehr-muhabbati ortadi va tarixiy tasavvuri hamda tarixiy tushunchasi shakllanib boradi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlar tushunchasi

Jumavoy Umarov,
Nam DU katta o'qituvchisi

Umumiy huquq nazariyasida huquqiy munosabatlar o'zaro huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan sub'ektlar o'rtasidagi huquq normalari va muayyan yuridik faktlar asosidagi aloqa sifatida ta'riflanadi. Darhaqiqat, hayotdagi mavjud ijtimoiy munosabatlar huquqiy normalar yordamida tartibga solinadi. Shunday ekan, ijtimoiy

munosabatlar umumiy nazariya fani nuqtai nazaridan qaraganda doimo huquq normalari bilan bog'liq holda uchraydi. Zotan, ijtimoiy munosabatlarning huquq normalari yordamida tartibga solinadigan qismi huquqiy munosabatlarni tashkil qiladi. Huquq normalari esa o'z vazifalarini huquqiy munosabatlar orqali amalga oshiradi. Aniqroq aytsak, ularni ijtimoiy munosabatlar shakliga aylantirish, ya'ni ularni tartibga solish orqali hayotga tatbiq etiladi.

Darhaqiqat, qonun bilan o'rnatilgan holatlar ijtimoiy munosabatlarga, jamiyat hayotiga ta'sir etmasa, bu munosabatlar huquqiy munosabatlarga aylanmaydi. Demak, ijtimoiy munosabatlarga huquq normalari ta'sir etsagina, ular huquqiy munosabatlarga aylanadi.

Yuridik adabiyotda bu borada bildirilgan fikrlarning umumiy xulosasiga ko'ra, mehnat huquqi sohasidagi huquqiy munosabatlar—bu mehnat qonunchiligi normalari bilan tartibga solingan mehnatga oid munosabatlar va ular bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lgan xodimlarning mexnatga doir munosabatlaridan iborat. Boshqacha qilib aytganda, bu mehnat huquqi sub'ektlarining yuridik aloqasidir.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlarning ishtirokchilari doimiy ravishda mehnat huquqi normalari asosida faoliyat yuritadi.

Ta'kidlash joizki, mehnat huquqining predmetini tashkil etuvchi barcha ijtimoiy munosabatlar mehnat qonunchiligi normalari bilan yo'g'rilgan bo'lib, ular doimo mehnatga oid huquqiy munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatning har bir turkumi mazmuni jihatidan o'ziga xos huquqiy xususiyatga ega bo'lib, u davlatning normativ-huquqiy hujjatlari ta'siri natijasida kelib chiqadi.

Yuridik adabiyotda mehnat huquqining predmetini tashkil etuvchi munosabatlardan tashqari mehnat huquqi sohasidagi yana boshqa munosabat turlari xususida fikr mulohazalar ilgari surilmoqda.

Umumiy tarzda tan olingan va mehnat huquqi normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

1) mehnatga oid huquqiy munosabatlar;

2) kasaba uyushmalari va xodimlarning boshqa vakillik organlari bilan ish beruvchilar o'rtasidagi tashkiliy boshqaruvgaga oid huquqiy munosabatlar;

3) ishga joylashtirishga doir huquqiy munosabatlar;

- 4) korxonada kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishga oid munosabatlar;
- 5) mehnat muhofazasini nazorat etishga oid huquqiy munosabatlar;
- 6) mehnat nizolarini ko'rishga oid protsessual huquqiy munosabatlar.

Bizning fikrimizcha, mehnat huquqi normalarining qo'llanilishi natijasida kelib chiqadigan munosabatlarning barchasini mehnatga oid huquqiy munosabatlar, deya ta'riflash maqsadga muvofiq.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlar uzlusiz davom etish hususiyatiga ega bo'lgani sababli harakat yoki topshiriq bajarilgach, yo'q bo'lib ketmaydi. Bu munosabatlar shu jihat bilan boshqa, masalan, fuqarolik huquqiy munosabatlaridan farq qiladi. Chunonchi, fuqarolik huquqiy munosabatlar topshiriq, pudrat shartnomasi, mualliflik haqidagi shartnomma bajarilgach, tugaydi. Mexnat munosabatlari esa uzlusiz ravishda va belgilangan tartibda davom etaveradi.

Mehnatga oid huquqiy munosabatlar o'z sub'ektiga ega va ayni shu sub'ektlarning huquq va majburiyatlari mehnatga oid huquqiy munosabatlarning mazmun-mohiyatini tashkil etadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, barcha ijtimoiy munosabatlar sub'ektlarining yuridik aloqasi ularning tabiatini ifodalaydi. Bu esa ularning asosiy huquq va majburiyatlarini belgilaydi. Sub'ektlarning huquq va majburiyatlari mehnat qonunchiligi normalari, jamoa kelishuvi va shartnomalari hamda xodim bilan tuzilgan mehnat shartnomasida nazarda tutilganini ham ta'kidlab o'tish lozim.

Davan davlatining davlatchiligidan taraqqiyotidagi o'rni

B.B.Ibrahimov,

*NamDU milliy g'oya, ma`naviyat asoslari va
huquq ta`limi kafedrasi katta o`qituvchisi*

O'rta Osiyoning Sharqida, Sirdaryoning yuqori havzasida joylashgan qadimgi Farg'ona antik davr o'zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyatga ega bo'lgan edi. Farg'ona haqida yunon-rim mualliflari ma'lumotlar bermaydilar. Bu davlat haqidagi yozma ma'lumotlar asosan Xitoy manbalarida – Chjan Syan ma'lumotlarida,

Sima Syanning «Tarixiy xotiralar», Ban Gunning «Birinchi xan sulolasi tarixi» asarlarida beriladi. Bu manbalarda ushbu davlat «Dayuan» yoki «Da-van» nomi ostida eslatiladi. Farg’ona so’zi Sug’d manbalarida «Fragnik» shaklida yozilib «tog’lar orasidagi vodiy, atrofi berk soylik» ma’nosini beradi. Xitoy manbalaridagi Dayyuan ham «tog’lar orasidagi vodiy» ma’nosini beradi.

Davan davlati tarixi bo'yicha uzoq yillardan buyon tadqiqot ishlari olib borilib, so'nggi yillarda o'zbek olimlaridan A.Asqarov, A.Xo'jayev, B.Matboboyev, A.Anorboyev, S.Qudratov, B.Abulg'oziyeva, B.Abdullayev, Abduholiq Abdurasul o'g'li kabilar arxeologik ma'lumotlarni yozma manbalar bilan qiyosiy o'rganish asosida samarali ishlar olib borayotgan bo'lislchlari qaramay, bu yo'nalishda hali ko'pgina masalalar o'z yechimini topmagan. Davan davlati shaharlarining aniq joylashuvi, davlat tizimi va boshqaruvi, davlatning chegaralari, qo'shni davlatlar bilan munosabatlari, mahalliy madaniyatning qo'shni madaniyatlar bilan munosabatlari masalalari shular jumlasidandir.

Qadimgi Farg’ona aholisi bronza davridayoq buloq suvlari birlashuvidan paydo bo'lgan Qoradaryo tarmoqlari havzalarida o'ziga xos sug'orma dehqonchilik madaniyatini yaratadilar. Avvalo o'troq dehqonchilik, keyinchalik ilk shaharsozlik va nihoyat ilk davlatchilikka asos bo'lgan bu madaniyat fanda «CHust madaniyati» nomi bilan mashhur bo'lib, qadimgi Farg’onaning shimoli-sharqiy hududlaridan bu madaniyatga oid 80 dan ortiq yodgorliklar majmui aniqlanib o'rganilgan. Ulardan ilk shahar madaniyati belgilari Dalvarzintepada (Andijon viloyati) va Buonomozorda (Namangan viloyati) aniqlangan. Undan tashqari Chust madaniyatini Sho'rakashot va Eylaton madaniyatları davom ettiradi.

Ilk temir va antik davrga kelib Farg’onada mahalliy madaniyatlar an'analari asosida taraqqiy etayotgan qadimgi dehqonchilik madaniyatları butun vodiyni qamrab oladi va aholining o'troq hayot tarzi jamiyat iqtisodiy asosini tashkil etadi. Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, mil.avv. III asrdan boshlab butun Farg’ona vodiysida shaharsozlik madaniyati keng yoyiladi. Aynan mana shu davrda Farg’ona vodiysi orqali o'tgan Buyuk ipak yo'li tarmoqlari bo'ylab Axsikent, Marhamat, Kubo, Marg'ilon, Bob (Pop) kabi ko'hna shaharlar paydo bo'ladi. Shuning uchun ham mil.avv. II asrga

oid Xitoy manbalari Farg'onada 70 ta katta-kichik shaharlar borligi haqida ma'lumot beradi.

Sima Syanning «Tarixiy xotiralar» asarida Davanning ikkita poytaxti – Ershi va Yuchen bo'lganligi haqida xabar beriladi. Bu shaharlarning joylashuvi masalasida olimlar orasida yagona fikr yo'q. Ular O'zgan, Mingtepa (Marhamat), Qo'qon, Koson, Axsikent, O'ratega yoki Jizzax o'rniда joylashtiriladi.

Eng qadimgi yozma manbalar O'rta Osiyodagi ayrim ilk davlat uyushmalari haqida ma'lumotlar bersada, Farg'ona haqida bunday ma'lumotlar uchramaydi. Shunga qaramasdan Yu.A.Zadneprovskiy Qadimgi Farg'ona (Davan) podsholigining mavjud bo'lganligining taxmin qiladi. A. Asqarovning fikricha, mil.avv. I ming yillikning o'rtalaridan oldingi davrdagi Farg'ona haqida so'z yuritilganda odatda faqat «chifdom» (voha) shaklidagi qadimgi davlat asoslarining paydo bo'lishi anglashiladi. Olimning fikricha, mana shu holatni hisobga olib Farg'onada davlatchilik, aftidan, mil. avv V-IV asrlarda paydo bo'lgan bo'lishi mumkin.

B.Matbobohevning fikricha, A. Asqarovning bu xulosasi ikkita tarixiy dalilga asoslangan. Birinchisi, aynan mana shu davrga oid arxeologik topilmalar (Sho'rakashot madaniyati) ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanganligi (mahsulot ishlab chiqarish va savdo sotiqning o'sishi) haqidagi taxminlarni ilgari surish imkonini beradi. Ikkinchisi, mil.avv. II asrdayoq Farg'onada ko'p sonli shaharlar mavjudligi haqida ma'lumotlar bor.

Mil. avv II asrdan boshlab Qashg'ardan Davanga shimoliy yo'ldan karvon yo'li harakati boshlanadi. Bu yo'ldan ipak va boshqa mahsulotlarning xalqaro tranzit savdosi amalga osha boshlaydi. Bu paytga kelib Davan aholisi ko'paya boshlaydi va ko'plab mustahkamlangan aholi manzilgohlari paydo bo'ladi. Savdo yo'lida Davan muhim ahamiyatga ega bo'lib boradi. Tadqiqotchilarining fikricha, Yassa va Qoradaryo vohalarida ko'pgina qal'alar savdo yo'lini qo'riqlash maqsadida barpo etiladi.

Mil.avv. 125 yilda Davanga kelgan Xitoy elchisi Chjan Syan bu yerda qishloq va shaharlari obod, sug'orma dehqonchilik va hunarmandchilik xo'jaliklari yuksak rivojlangan, kuchli harbiy kuchlarga ega davlatni ko'radi. Chjan Syan Davanning qishloq xo'jaligi haqida ma'lumot berib, shunday yozadi: «O'troq aholi yer haydaydi, g'alla va sholi ekadi, ularda musallas navli o'zum, juda

ko'plab yaxshi otlar bor. Davanning barcha joylarida o'zum vinosi tayyorlaydilar. Boy xonodonlar uni katta miqdorda tayyorlaydi, bu ichimlik xumlarda bir necha o'n yillarda ham bo'zilmay saqlanadi». Shuningdek bu elchi, bu davlat aholisi juda xushmuomala, mehmondo'st, ko'ngli ochiq odamlar ekanligi haqida ma'lumot beradi.

Xitoy manbalari qadimgi Farg'onada dehqonchilik madaniyati yuqori darajada rivojlanganligini isbotlaydi. Xitoyliklarni ayniqsa, o'zлari uchun notanish bo'lgan beda va o'zum hayratga solgan. Manbalarda yana shunday ma'lumot bor: «Xitoy elchisi urug' keltirdi, shunda osmon farzandi(Xitoy imperatori) unumdar yerga beda va o'zum ekdi». Davanliklarning bog'larida o'zumdan taшqari anor, o'rik va boshqa mevali daraxtlar ko'p bo'lgan. Xitoy tarixchilari bu mevalarning Xitoyda paydo bo'lishini Davan bilan bog'laydilar.

Ma`naviyatni yuksalishi va yosh avlodning porloq kelajagi

B.B.Ibrahimov

*NamDU milliy g`oya, ma`naviyat asoslari va
huquq ta`limi kafedrasi katta o`qituvchisi*

Asrlar davomida bizning vatanimiz tarixida yuksak o'rin tutgan mustaqqilligimiz qolaversa xalqimizning o'zligi,qadr qiymati va ma`naviyatimizning so`ndirishga qaratilgan g`oyalar va ularning amalga oshirilishida olib borilgan islohotlar qarib yuzellik yil davomida tariximizning tong ma`nodagi qora kunlari mustaqqilligimizgacha bo'lgan tarixiy ajdodlarimiz o'z ona yurti mustaqqilligi uchun jon fido etgan va o'zligimizning anglash yo'lidagi say harakatlar o`z samarasini berdi deb bemalol aytal olamiz.

Rossiya mustamlakachilik davrida o'zligimizni insoniy qadr qiymatimizni va ma`naviyatimizni yuqotishga bo'lgan munosabatlar ular yurgizgan siyosati bizning xaqimizga bo'lgan qarashlari o'z samarasini bermadi. Bunday bo'lganligi bejiz emas. Bizning ajdodlarimiz bosib o'tgan tarixiy yo'l o'zligimiz uchun olib borilgan kurashlarga ajdodlarimizni oqilona yurgizgan siyosatlari zamirida o'zligimizni yuqotmaslikka bo'lgan ona vatanimiz mustaqqilligini asrab avaylashga qaratilgan ma`naviyatni ulug'vor darajada ekanligi ,vatanimizning mustaqqil bo'lishiga yashab o'tgan ajdodlarimiz ma`naviyatini yuksak darajada ekanini va vatanga bo'lgan sadoqat

ruhi ekanligi bunday g'oyalarni vatanimizni bo'ysundirish siyosatidan ustun keldi. Tahlikali bir paytda prezidentimizni oqilona olib borilgan siyoslari o'z samarasini berdi.

1991-yil 31-avgust O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida tan olindi va Prezident farmoni bilan 1-sentiyabr Mustaqillik kuni deb e'lon qilindi.

Muxtaram prezidentimiz vatanimizni yuksalishi va mustaqillikgacha bo'lgan davr ajdodlarimizni vatan uchun olib borilgan harakatlari mohiyatini chuqur anglagan holda ma'naviyatimizni yuksalish yo'lida olib borilayotgan oqilona siyosatlari va yosh avlodga qaratilgan etiborlari zamirida yosh avlod ongini ma'naviyatimizning chuqur anglab yetishi ona vatanga bo'lgan sadoqatini to'la anglab yetishida keng imkoniyatlar berilmoqda. Yosh avlodga qaratilgan etibor zamirida o'z vataniga bo'lgan muhabbat ma'naviyatni anglab yetishga va qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz va vatanimizni mustaqil davlat sifatida dunyoda o'z o'rniغا ega bo'lganligi zamirida ajdodlarimizni mehnatlari katta ekanligini o'z fikrlarida bayon etadi. Shuy jumladan hozirda olib borilayotgan islohotlar zamirida muxtaram prezidentimizni biz yoshlarga ochib berilayotgan imkoniyatlari har sohada o'z zamirini to'la to'kis ifoda etgan. Bir so'z bilan aytganga ta'lim sohasida, sport sohasida, xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalari to'la to'kis olib borishda, yoshlarni chet ellarda malaka oshirishlari, bizning bosh qomusimiz o'z konstitutsiyamizga ega bo'lganligimiz har bir fuqaroning erkinliklari va huquqlari konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan.

Qay sohada bo'lmasin yoshlarimizning jahon davlatlarida erishilayotgan yutuqlari yuksak salohiyatga ega bo'lgan yoshlarimizning mustaqil ta'lim olayotganligi, vatanimizning o'z mustaqqilligiga erishilganligi samarasini natijasidir.

Olib borilayotgan islohotlarga bir so'z bilan aytganda ma'naviyatimiz zamirida ko'plab ma'naviy qadriyatlar, insiqiy tushunchalar va bularni barchasi o'zligimizni anglashda yaratilayotgan imkoniyatlar, yoshlarga berilayotgan etibor va ko'p joylarda olib borilayotgan ma'naviy tadbirlarni mohiyati.

Dunyoda bo'layotgan voqeа va hodisalarni to'la tasnifini anglagan holda yurtboshimiz Respublikamizni barcha joylarda va ta'lim sohasida ma'naviyat soatlarini o'tkazib borilishi va barkamol yoshlar avlodni ongida ma'naviy bilimlarni mustahkamlanishi

zamirida yosh avlodni har xil diniy oqimlarga kirib ketmasligini oldini olish chora tadbirlarini tadbiq etish, ularni takomillashtirish, yosh avlodni ongini mustahkam ma`naviy ozuqa bilan to`ldirish chora tadbirlarini olib bormoqda.

Ma`naviyat tushunchasini zamirida prezidentimiz ma`naviyatga shunday ta`rif berganlar: Ma`naviyat insonni ruhan poklanish, qalban ulg`ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosini, irodasini baquvvat, jymon-etiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg`otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

Xulosa o`rnida shuni aytish joizki ma`naviyatni yuksalishga erishish o`z o`zidan osonlik bilan erishib bo`lmaydi. Ma`naviyatga erishishda ajdodlarimiz bosib o`tgan yo`l, tarixiy jarayonlar barcha shu davr gacha bo`lgan islohotlar natijasi ekanligini chuqur anglab yetishishimiz lozim. Fikrlar mushtarakligi yosh avlodni kelajakka bo`lgan nurli istiqboli ma`naviyatimizni chuqur ahamiyatga ega ekanligidandir.

Amir temur bobomiz aytganidek ma`naviyati yetuk xalq qudratli bo`lur deb aytganlar.

Bugungi ozod hayotning o`z kelajagimizga katta umid bilan intilayotgan ekanmiz mustahkam irodamiz va yuksak ma`naviy qadriyatlarimizni mustahkam etmog`i lozim.

MUNDARIJA

1. O'zbekiston haykaltaroshligida milliy ijodiy yondoshuvlar tavsifi. *Dilmurod Po'latov*
2. Shayboniylar davlat boshqaruvining o'ziga xosligi. *Gulmira Otaboyeva*
3. O'zbekistonda ommaviy axborot vositalari faoliyati. *Navbahor Dorxonova*
4. Amir Temur markaziy davlat boshqaruv tizimi va uning o'ziga xosligi. *Navbahor Dorxonova*
5. Bola tarbiyasining o'ziga xos jihatlari. *Muslima Rahmonova*
6. Sharqona odob-axloq qoidalari. *Ermatov Abrorbek*
7. Vatanga muhabbat muqaddas tuyg'u. *Abdujabbor Qambarov*
8. Milliy ma'naviyatimiz rivojida Navoiy merosining o'rni. *Rohatoy Dolimova*
9. Ma'naviy – ma'rifiy ishlarni tashkil etishning mazmuni. *Dilfuza Jo'rayeva*
10. Milliy ma'naviyatda milliy adabiyotning o'rni. *E'tibor Turopova*
11. Xalq og'zaki ijodida ma'naviyat masalalari. *Nargiza Dadajanova*
12. Axborot va jamiyat taraqqiyoti. *Muyassar Tojiboyeva*
13. Fuqarolik jamiyatining ma'naviy negizlari. *Dilnoza Qurbanova*
14. Farzand tarbiyasi. *Hayitova Shahlo.*
15. Komil inson tushunchasi. *Usmonova Shahnoza*
16. Xotin-qizlar ijtimoiy faolligini oshirish asoslari. *Muyassar Tojahmedova*
17. Madaniyat va shaxs kamoloti. *Dilfuza Xatamova*
18. Madaniyat tushunchasi. *Abdumutal Qurbanov*
19. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda oilaning roli. *Azimjonov Ulug'bek*
20. Ta'lim islohotlari. *Abdujabbor Qambarov*
21. Turizm to'g'risida tushuncha va uning turlari. *Xabibaxon Mirzahmedova*
22. Tarixiy tafakkur. *Saida Isoqova*
23. Jamiyat hayotida mahallaning o'rni. *Yulduzzon Sotiboldiyeva*
24. Yoshlar o'rtasida sodir etilayotgan jinoyatchilik va huquqbazarliklarni oldini olish omillari. *Ahmedova Yulduz*
25. Yoshlarda yuksak ta'lim tarbiya va ma'naviy daxldorlik

hissini shakllantirish. *Ahmedova Yulduz*

26. Mamlatimizda sud-huquq tizimini yanada isloh qilishda Harakatlat strategiyasining o'rni. *Behzod Tursunov*
27. Bozor va ma'naviyat. *Gulchehra Kazakova*
28. Ta'lif va tarbiyada milliylikning o'rni. *Mohira Usmonova*
29. *Azizbek Nosirjonov. Jumavoy aka Umarov*
30. Xilvatiyning «Sayr ul-jibol» asari. *Gulasal Hamidullayeva, O.Boltaboyeva*
31. Farg'onaning qadimiylar poytaxti. *Baxtiyor Ro'zinov., Alijon Vohidov., Tohirjon Qozoqov*
32. Parlamentlarning shakllanishi tarixidan. *Burgutali Kenjayev., Akmaljon Abdullayev*
33. Kitob o'qish va madaniyat. *Mo'tabar Eshmatova*
34. Yosh kitobxonlar. *Dilorom Mirzahmedova*
35. Ma'muriy huquqiy normalar va ma'muriy huquqbuzarlik tushunchasi. *Jumavoy Umarov*
36. Innovatsion ta'lifni shakllantirishda mediata'limdan foydalanish. *D. Toshpo'latova*
37. Boshlang'ich sinflarda geometrik mazmundagi materiallarni o'rgatishda innovatsion yondashuvlar. *D.Toshpo'latova*
38. Mas'ullik hissi. *Tohirjon Qozoqov*
39. Namangan viloyati arxeologiyasi. *Ne'matjon Sharipov*
40. Maktablarda o'lkashunoslik va arxeologiya to'garaklarini tashkil etish va uning ahamiyati. *Alijon Vohidov*
41. Mehnatga oid huquqiy munosabatlardan tushunchasi. *Jumavoy Umarov*
42. Davan davlatining davlatchiligidagi taraqqiyotidagi o'rni. *B.B.Ibrahimov*
43. Ma'naviyatni yuksalishi va yosh avlodning porloq kelajagi. *B.B.Ibrahimov*

“Fazilatorgtxservis” xususiy bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan shahar, A.Navoiy ko'chasi, 72 uy.

